

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT STOMATOLOGIYA INSTITUTI

P. T. XUDOYBERGENOVA

**MUSTAQILLIK YILLARIDA MILLIY TURMUSH TARZINING
TAKOMILLASHUVI**

MONOGRAFIYA

Toshkent - 2024

Tuzuvchi:

Toshkent davlat stomatologiya instituti Ijtimoiy fanlar va bioetika kursi bilan
kafedrası dotsenti f.f.n. **P.T.Xudoybergenova**

Taqrizchi:

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi ijtimoiy fanlar kafedrası f.f.d.prof. **D.T.Norkulov**
Toshkent davlat stomatologiya instituti Ijtimoiy fanlari va bioetika kursi bilan
kafedrası f.f.d., dotsent. **D.G. Sattarova**

Ijtimoiy fanlar kafedrasining yig'ilishida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi. “ ”
1 2024 yil. Bayonnoma №.

Ijtimoiy gumanitar fanlar sohasi bo'yicha muammoli yig'ilishida ko'rib
chiqildi va tasdiqlandi. “ ” aprel 2024 yil. Bayonnoma №.

Markaziy muammoli yig'ilishida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi. “ ” 2024
yil. Bayonnoma №.

TDSI Ilmiy kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi. “ ” 2024 yil.
Bayonnoma №.

Ilmiy kengash kotibi: **Annatasiya**

Ushbu monografiya bugungi kundagi mamlakatimizdagi yangi siyosiy, iktisodiy, ijtimoiy va ma'naviy isloxatlarb mustakillik sharofati bilan xalkning turmush tarzini tubdan uzgarishga va takomillashuviga olib kelganligini nazariy asoslashdan iboratdir. Monografiyada o'zbek xalqining sobik sho'rolar davridagi turmush tarzi va O'zbekistonda mustaqillik yillarida milliy turmush tarzining takomillashuvi olimlar va siyosiy arboblarning fikr muloxazalari fikr muloxazalari keltirilgan va ularning kabul kilgan karorlari xalk turmush tarziga ta'siri asoslangan.

Kirish

XXI asr global o'zgarish, dinamizm va tezlashuv bilan ajralib turadi. Uzbekiston Respublikasi mustakillikni kulga kiritgach xalkimizning ijtimoiy-iktisodiy va siyosiy hayotidagi o'zgarishlar buldi. Turmush tarzida har bir xalqning uzok, asrlar davomida yaratgan ma'naviy va moddiy boyliklari, yon-atrof, muhit va kelajak haqidagi tasavvurlari, milliy-etnik belgilari, mentaliteti, urf-odatlar, an'analar hamda yashash usuli to'la aks etadi. Shu nuqtai nazardan turmush tarzi xalq, millat, etnosning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratgan hayot kechirish usullarining majmuidir.

Texnologiyalar, ta'lim va daromadning o'zgarishi insonning turmush tarziga, shuningdek vaqtdan foydalanishga ta'sir qiladi. Bugungi globallashtirish davrida har bir e'shning bo'sh vaqtini oqilona uyushtirishi katta ahamiyatga ega. Zero, bo'sh vaqtni oqilona uyushtirish talabalarning madaniy saviyasi va dunyovarashi o'sishining, axloqiy va estetik tarbiyalashning muhim shartlaridan biridir. Chunki bo'sh vaqt talabalarning o'sib borayotgan ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Jamiyatimiz taraqqiyoti natijasida e'shlarning bo'sh vaqtdan samarali foydalanishi murakkablashib bormoqda. Bu esa talaba e'shlarni aqliy rivojlantirishni, kasb, bilim va malakalarini oshirishni, ma'naviy ehtiyojlarini qondirib borishni taqozo etadi. Bu muammolarni hal qilish esa bo'sh vaqtdan samarali foydalanishni tashkil etish bilan bog'liq.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama, jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida ishlab chiqilgan "xarakatlar strategiyasi"da **Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi.**

O'tgan davr mobaynida O'zbekiston sobiq Ittifoqdan meros bo'lib qolgan tizimlashmagan, umumiy shaklga ega bo'lgan ijtimoiy himoya tizimini tubdan yaxshilab, tizimli, manzilli xarakterga ega bo'lgan va ko'lami bo'yicha aholining barcha qatlamlarini har tomonlama himoyasini tashkil etishga qaratilgan takomillashgan tizimni joriy etdi va bugungi kunga kelib aholiga ijtimoiy kafolatlarni ta'minlanmoqda.

Bugungi kunda Davlat byudjetining qariyb 60 foizi ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilmoqda. 1991 yilga taqqoslaganda, aholining Real daromadlari 12 barobardan ziyod ko'paydi, ish haqi, pensiya va ijtimoiy nafaqalar salmoqli darajada oshdi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni jadal sur'atlar bilan

oshirish va aholining ularga bo'lgan talabini qondirish ta'minlanmoqda¹.

Taraqqiyotimizning bugungi bosqichida ijtimoiy sohaning aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratilmoqda.

“Barchamizga ma'lumki, har bir suveren davlat o'zining betakror tarixi va madaniyatiga egadir. Bu tarix, bu madaniyatning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi esa haqli ravishda shu mamlakat xalqi hisoblanadi”¹ deb ko'rsatadi O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev .

Respublikamiz mustaqil rivojlanishga ilk qadam qo'ygan kunlardan oq, "O'zbekiston xalqining munosib turmushini, uning huquqlari va erkinligini kafolatlashi, milliy an'analar va madaniyat qayta tiklanishini, shaxs sifatida insonning ma'naviy-axloqiy kamol topishini ta'minlash"² ni o'zining kuchli demokratik davlat va fukarolik jamiyati barpo etish borasidagi pirovard maqsadi qilib belgiladi.

Bugun mamlakatimizning barqaror rivojlanish yo'lida izchil ilgarilab borishini tahlil qilar ekanmiz, o'tgan yili printsiptial muhim islohotlarni amalga oshirish bo'yicha qat'iy qadamlar qo'yildi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Bu islohotlarning asosiy maqsadi - aholi uchun munosib xayot darajasi va sifatini ta'minlashdir.

Jadal va barqaror rivojlanishga qaratilgan bu siyosat bundan keyin ham so'zsiz davom ettiriladi³- deb ta'kidlaydi O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev.

Birinchidan, milliy turmush tarzi xalqimizning uzoq ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida yaratgan "ijtimoiy qiyofa"sidir. Faqat Respublikamiz mustaqillikka erishganidan keyingina turmush tarzini o'ziga xos tarixiy-madaniy hodisa, dinamik xususiyatga ega ijtimoiy vokelik sifatida ob'ektiv ilmiy o'rganish imkoni yuzaga keldi.

¹.Karimov I.A.. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li // O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. - T.: O'zbekiston, 1996. - 39 b.

² usha joyda

³. Sh.M.Mirziyoev.

Ikkinchidan, I. A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan milliy demokratik taraqqiyotning "O'zbek modeli"da xalqimizning tarixiy-madaniy boyliklari,

¹Ўзбекистон Республикаси Бош вазири Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги нутқи. // Халқ сўзи, 2016 йил 9 сентябрь.

an'analari va milliy xususiyatlariga tayanish asosiy vazifalardan biri sifatida qayd etilgan bO'lsa, Respublikasi

Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-2021 yillarda Uzbekiston Respublikasini rivojlantirishning

beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha 2017 yil 7 fevralda imzolangan Farmoniga muvofiq uni hayotga joriy etish bo'yicha qonuniy tamoyil va mexanizmlar xalkimiz ijtimoiy xayotini tubdan o'zgartirishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, o'zbekona turmush tarzining etnogenezi va sosiodynamik xususiyatlarini o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Uchinchidan, kishilarning turmush tarzida mustahkam o'rin olgan o'zgarishlarga progressiv ahamiyatga ega. Shuning uchun ijtimoiy munosabatlarda mustaqillik yillarida ro'y bergan o'zgarishlarning mohiyati va ko'lamini to'g'ri anglash, ob'ektiv baholash uchun eng avvalo xalqning, millatning turmush tarzini tadqiq etish lozim. Bundan tashqari, jamiyat taraqqiyotining magistral yo'llarini aniqlash ham turmush tarzini ilmiy prognozlashni, bashorat etishni shart qilib qo'yadi.

To'rtinchidan, bugun O'zbekiston, jahon tsivilizasiyasi yutuqlaridan bahramand bo'lib, taraqqiy etgan davlatlar qatoridan

munosib o'rin egallashga intilmoqda va bugungi kunda ba'zi yo'nalishlarda o'z o'rniga ega. Respublikamizning ushbu sa'y-harakatlari milliy turmush tarzida aks etayotgani muqarrardir. Ushbu jarayonlarni aniqlash, yuksak farovon turmush tarzini yaratish yo'llarini belgilab olish zarurligi ham milliy turmush tarzidagi umuminsoniy taraqqiyot mezonlariga mos keladigan o'zgarishlarni o'rganishni taqozo etadi.

¹ "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. Sh. Mirziyoevning O'zbekiston Ruspublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tanta - nali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2016 yil 15 dekabr.

1. **I-Bob. Turmush tarzi-ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar muammosi.**
2. **1.1.Turmush tarzi tushunchasiga ilmiy yondashishlar va ularning ijtimoiy-falsafiy tahlili**

Turmush tarzi inson hayoti va insoniyat mavjudligining, borligining asosiy ko'rsatkichidir. Hatto aytish mumkinki, turmush tarzi orqaligina inson boshqa mavjudotlardan farq qiladi. Shu nuqtai nazardan turmush tarzi inson hayotining,

insoniyat mavjudligining belgisi sifatida qadimdan, kishilik jamiyati bilan birga mavjuddir. Biroq turmush tarzini ijtimoiy hodisalar va tushuncha, ilmiy kategoriya sifatida o'rganish o'tgan asrning 60-70 yillarida boshlandi.

Faylasuf V.Tolstix turmush tarzini shaxs va ijtimoiy munosabatlarni, jamiyat o'rtasidagi aloqalarni, dialektik bog'liqlikni ifoda etuvchi hodisa sifatida qarashni ilgari suradi. Uning fikriga ko'ra, turmush tarzi eng avvalo shaxs to'g'rirog'i, ijtimoiy shaxs hayotini ifodalovchi ijtimoiy-falsafiy tushunchadir.¹ Turmush tarzini ijtimoiy-falsafiy kategoriya va hodisa sifatida qarash darrov tadqiqotchilar diqqatini o'ziga jalb etdi. Natijada turmush tarziga oid turli ilmiy-nazariy kontsepsiyalar va fanlar sohalari nukta nazaridan yondashishlar paydo bo'ldi.

I.Nikolaev turmush tarzini ijtimoiy-siyosiy hayot, shaxs faoliyati va hayotining "etuklik belgisi", ko'rsatkichi sifatida qarashni yoqlab chiqadi.² Keyinchalik ushbu yondashuv mehnat jamoalaridagi ijtimoiy-siyosiy faollikni ham turmush tarzi

1 .Qarang:Tolstix V. Obraz jizni Sosialno-filosofskaya kategoriya.// Voprosi filosofii, 1972,№ 12.- S.48-51.

2.Qarang: Nikolaev I. Obraz jizni kak Sosialnaya kategoriya.//Politicheskoe samoobrazovanie, 1974. №7.- S41 -42.

sifatida qarashga olib keladi. Bunday yondashishga asoslanib B.A.Babin, "mehnat jamoalari a'zolarining ijtimoiy-siyosiy faolligida o'zini-o'zi boshqarish kurtaklari mavjud. Agar raqamlar orqali ifodalansa, ular socialistik turmush tarzini modellashtirish uchun zarur ko'rsatkichlar bo'lishi mumkin,¹ deb xulosa chiqaradi. Bu o'rinda turmush tarzini ijtimoiy-siyosiy tuzum maqsadlariga muvofiq talqin etish ko'zga tashlanadi. Agar chet ellik tadqiqotchilar turmush tarzini "turmush darajasi", "turmush sifati", "hayot sifati" kabi ijtimoiy-falsafiy ekzistentsional kategoriyalar orqali o'rganishga intilsa, o'sha davrdagi sovet olimlari turmush tarzini "socialistik turmush tarzi" deb atadilar va unga ijtimoiy-siyosiy urgu berdilar.

Taniqli sosiolog I.V.Bestujev-Lada turmush tarziga sosiologik yondashuvni keng miqyosda amalga oshirdi va bu borada ko'p asarlar chop ettirdi. U o'zining mavzuga oid ilk maqolasidayoq tarmush tarzini o'ziga xos bo'lgan inson hayoti, shaxsi, yashash muhiti, oilasi, madaniy qiziqishlari bilan bog'liq ijtimoiy-falsafiy hodisa, kategoriya sifatida qarash zarurligini ta'kidlaydi.² To'g'ri, muallif turmush tarzida ijtimoiy-siyosiy tuzum ta'siri borligini inkor etolmaydi, shu boisdan socialistik turmush tarzi kapitalistik turmush tarzidan eng avvalo g'oyaviy , ma'naviy va madaniy yo'naltirilgani bilan farq qilishini ko'rsatadi. Biroq

keyinchalik I.V.Bestujev-Lada mavzuga oid muammolarni va ularning chet ellarda tadqiq etilishini kuzatib, bu borada hali "etuk va nihoyasiga etgan

1.Qarang:Babin B.A.Obtshestvenno-politicheskaya aktivnost v trudovix kollektivax kak pokazatel sotsialisticheskogo obraza jizni //Problemi izmereniya i modelirovaniya obraza jizni.-M.: 1978.-S.84.

2.Qarang Bestujev-Lada I.V.Obraza jizni kak filosofskaya-sosiologicheskaya kategoriya.// Slovo lektora,1975,№3. -S.14-19.

3.Qarang:Bestujev-Lada I.V.Metodologicheskie problemi izmereniya i modelirovaniya obraza jizni.//Problemi izmereniya i modelirovaniya obraza jizni.-M.: 1978.-S.4. 2.Qarang:Mansurov N.S., Kosimov T.K.

kontsepsiya yoki modellar yaratishga erta" degan xulosaga keladi.³

Turmush tarziga sosiologik muammo sifatida yondashish, ayrim olgan faylasuflar fikriga ko'ra, cheklangandir.

Masalan, N.S.Mansurov va T.K.Qosumovlarning sosiologik yondashuv turmush tarziga ta'sir qiluvchi ijtimoiy omillarni aniqlash, ilmiy asoslangan turmush tarzi modelini yaratish, jamiyatni ilmiy boshqarish uchun zarur bo'lgan turmush tarzini to'g'ri bashorat qilish imkonini beradi, degan fikriga faylasuf E.A.Anufriev e'tiroz bildiradi. U bunday yondashishda turmush tarzining ijtimoiy omillarigina o'rganiladi, uning mohiyati chekkada qoladi. Shuning uchun turmush tarzi nima uchun sosiologik kategoriya sifatida o'rganilishi zarur degan savolga hech kim qoniqarli javob bergan emas¹, deb yozadi.

Shu bilan birga E.A.Anufriev, turmush tarzining murakkab, keng qamrovli hodisa ekanligi bois unga tor yoki faqat o'rganilayotgan mavzu doirasidan kelib chiqib yondashish ham to'g'ri emas, deb ko'rsatadi. Misol tariqasida u turmush tarziga urf-odatlar, an'analar, bo'sh vaqtni o'tkazish yoki ehtiyojlar, ularni qondirish tizimi sifatida yondashishni cheklangan deb hisoblaydi.²

Turmush tarzi ma'lum bir madaniy-maishiy muhitda, yashash uchun zarur bo'lgan anjomlar, narsalar, vajlar doirasida kechishi uchun uni ayrim tadqiqotchilar ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida qarash zarur degan fikrni yoqlab chiqdilar. Masalan, iqtisodchi olim L.Kapustin turmush tarzining atributi ijtimoiy-iqtisodiy qimmatiga ega bo'lgan uy-joy, asbob-uskunalar, yashash shart

- _____

.Qaran 1.Metodologicheskie problemi izucheniya sotsialisticheskogo obraza jizni.// Filosofskie nauki,1976. №5.-S.32.

Karang 2.Anufriev E.A. Sotsialisticheskii obraza jizni . Metodologicheskie Voprosi.-M.:Visshaya shkola , 1980.-S. 10-11.3.

Qarang: Kapustin L. Sotsialisticheskii obraza jizni kak Sosialno - Ekonomicheskaya kategoriya // Voprosi ekonomiki, 197. ,№12.-S. 19-26.

sharoitlari ekanini uqtiradi va shuning uchun turmush tarzi eng avvalo ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir degan xulosaga keladi. Buni uning maqolasi nomidan ham bilish mumkin.³

Turmush tarziga ijtimoiy-iqtisodiy yondashish o'zining ob'ektiv asosiga ega. Buni mutlaq inkor etish mumkin emas, aks holda inson

hayotini moddiy asosga qurilganini, inson munosabatlarining turmush tarzining shakllanishiga ta'sirini rad qilgan bo'lamiz. Biroq ijtimoiy-iqtisodiy

omillar turmush tarzining yagona asosi emas. Inson, shaxe turmush kechirish jarayonida shaxeiy, oilaviy, fuqaroviy-huquqiy, ma'naviy-ruhiy, madaniy, hatto xalqaro aloqalarga ham duch keladiki, ushbu omillar Real ijtimoiy borliq, hayotiy muammolar va boshqa rang - barang sub'ektiv ta'sirlarni ham hisobga olishni taqozo etadi.

Turmush tarzini inson hayoti va faoliyati bilan bog'lab qarash ilmiy adabiyotlarda keng tarqalgan. Faylasuflar G.E.Glezerman, A.P.Butenko, sosiologlar B.A.Grushin, Yu.K.Pletnikov, M.N.Rutkevich, Ya.Shepanskiy tadqiqotlarida kontseptual nuqtai nazardan turmush tarzi inson faoliyati, vaqti, madaniy muhit, oilaviy munosabatlar, turar joy infrastrukturasi, Infarmosion aloqalar tizimi bilan bog'lab qaraladi. Masalan, G.E.Glezerman fikriga ko'ra, turmush tarzi jamiyatning, xalqlar va sinflarning, ijtimoiy guruh va individlarning ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ta'sirida shakllangan hayot tarzi va hayot faoliyatiga oid eng muhim belgilarini ifoda etadi. Muallif turmush tarzida

1.Qarang:Glezerman G.E.Istoricheskiy materializm i razvitie socialisticheskogo obtshestva.-M.:Politizdat,1973.-S. 282-283.

milliy-etik va hududiy-regional belgilar mavjudligini hisobga olmaydi. U "ijtimoiy guruh" deganida esa eng avvalo ishchilar sinfi va dehqonlarni nazarda tutadi. Intellegentsiya esa ushbu ikki qatlamdan o'sib chiqqan, faqat ularning tub manfaatlarini va hayot tarzini, kelajak haqida umidlarini ifoda etuvchi ijtimoiy guruh

sifatida qaraladi. Turmush tarzida ikki tuzum -sozializm va

kapitalizm xislatlarining aks etishi, g.Glezerman ta'kidiga ko'ra, hozirgi davrda sodir bo'layotgan ideologik qarash natijasidir. Sozializmning g'olib chiqishi uchun turmush tarziga ideologik ta'sir manbai deb yondashish, unda sosiologik qarashlar va qadriyatlarni shakllantirish lozim.¹

Demak, soziaistik turmush tarzini o'rganishga ideologik sinfiy nuqtai nazardan yondashish talab etiladi. Turmush tarzining o'zidagi ahvol, jarayonlar emas, balki unda sosiologik tasavvurlarga va sinfiy qarashlarga Moe keladigan jihatlar asosiy ko'rsatkich qilib olingan. Bu esa turmush tarzining nafaqat rang-barang ijtimoiy voqelik, borliq ekanini, xuddi shuningdek, undagi milliy, etnomadaniy xususiyatlarni siyqa, tor talqin qilishga, ba'zan esa ularni umuman inkor qilishga olib kelgan. Sozialistik, sinfiy yondashuvning cheklanganligini, milliy taraqqiyot qonunlariga zidligini XX asr oxirlarida ro'y bergan soziaistik tuzumning emirilishida ham ko'rish mumkin.

Shu bilan birga g.Glezerman turmush tarzi nafaqat jamiyat iqtisodiy hayotining etuk darajada tashkil etilgani hamda mehnat sharoiti, maishiy hayot, ijtimoiy munosabatlar va demokratiyaning rivojlanganligi bilan bog'liqdir, deb hisoblaydi. Bu o'rinda g.Glezerman milliy turmush tarzidan ustun qo'yilayotgan, yagona socialistik turmush tarzini va uni shakllantirishga xizmat qiluvchi socialistik demokratiyani nazarda tutadi.¹ Diqqat bilan nazar tashlasak

, G.Glezerman millatning, xalqning turmush tarzi shakllanishdagi o'rnini qayd etsada, u o'sha davrlarda keng tarqalgan milliy belgilersiz allaqanday mavhum, sun'iy shakllantirilgan, ma'lum bir ideologik andozalarga solingan socialistik turmush tarzi haqida fikr yuritayotganini payqaymiz.

V. I.Tolstix turmush tarzi bilan bog'liq reallik, uni shakllantirish muammolarini maxsus tadqiq etib, "turmush tarzi kishilarning individual va ruhiy hayotiy faoliyati ko'rinishlaridir,"² deb ta'rif beradi. Uning fikriga ko'ra, turmush tarzi ma'lum bir ijtimoiy -tarixiy sharoitda yuzaga kelgan, shakllangan munosabatlar, ijtimoiy-siyosiy faoliyat, muloqot, dunyoqarash, xulq-atvor , mehnat , maishiy hayot, dam olish kabi omillar ta'sirida shakllanadi.¹

Ushbu ijtimoiy-antropologik yondashishda turmush tarziga xos asosiy belgilarni aniqlashga yordam beradigan hayot, turmush va sub'ektiv sohalar nazarda tutilgan. Biroq unda, birinchidan, turmush tarziga juda keng yondashilganidan u ijtimoiy munosabatlarga yaqinlashib qolgan. Ikkinchidan, unda milliy xususiyatlar va etnogenetik belgilar hisobga olinmaydi. Ushbu belgilarning e'tiborsiz qoldirilgani turmush tarzini mavhum, o'zining rang-barang etnomadaniy belgilariga ega bo'lmagan kategoriyaga aylantiradi. Uchinchidan, turmush tarzi, E.A.Anufriev to'g'ri e'tiroz bildirganidek, faqat

"shakllangan munosabatlar" va hayot tarzini o'z ichiga oladimi? Hali ijtimoiy borliqda, guruh turmush tarzida muhim o'rin egallashga ulgurmagan,

hali shakllanishi tugamagan yoki to'la shakllanmagan munosabatlar nima bo'ladi

1.Qarang:Glezerman G.E.Istoricheskiy materializm i razvitie socialisticheskogo obtshestva.-M.:Politizdat, 1973.-S. 282-283.2.Bu haqda kengroq ma'lumotlarni: Glezerman g. Lenin i formirovaniya socialisticheskogo obraza jizni // kommunist, 1974,№1;uniki. Obraza jizni kak sosialogicheskaya kategoriya //Sosialistichskie issledovniya, 197. №1 dan olishingiz mumkin.

2.Tolstix V.I. Obraz jizni. Ponyatie. Realnost. Problemi.-M.:Misl,1975.-S. 27. 2.O'sha joyda .-S.4-6.

Agar turmush tarzi V.I.Tolstix talqin qilganidek, individual va guruh hayotiy faoliyatining asosiy, eng muhim sohalarini o'z ichiga olsa, keng ma'nodagi, butun jamiyatga, ayrim etnik birliklarga yoki xalqlarga xos turmush

tarzlarini qaerga kiritamiz? Ular o'rtasidagi etnomadaniy aloqalarni, xalqlararo muloqotnichi?

To'g'ri, turmush tarziga ijtimoiy-antropologik yondashuv mavzuni ahamiyatli qiladi, unga taalluqli muammolarni aniq ijtimoiy va inson manfaatlari nuqtai nazardan echishga undaydi. Ammo turmush tarzidagi milliy etnogenetik, etnomadaniy xususiyatlarni e'tiborsiz qoldirish mumkin emas, aks holda kishilar hayoti, turmushi, yashash muhiti, tili, madaniy xususiyatlari ularning turmush tarzidan, oilaviy hayotidan, an'alaridan tashqarida shakllanadigan va kechadigan hodisalar, vaqealar, narsalar bo'lib qoladi. Diniy qadriyatlarning turmush tarzidan siqib chiqarilgani socialistik turmush tarzini sun'iy yo'l bilan yaratilganining yana bir isbotidir.

Turmush tarziga inson hayotiy faoliyatining in'ikosi, turmush tarzi komponentlariga esa shaxe ijtimoiy, siyosiy va madaniy faolligi natijasi sifatida qarash 70-80 yillardagi tadqiqotlarda keng qo'llab-quvvatlandi. Mazkur izlanishlar ikki jihatdan ilmiy ahamiyatga ega bo'ldi. Birinchisi, inson faoliyatini ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish, dunyoni o'zgartirish, inson bilan jamiyatni uzviy boglangan sistema, Universum taraqqiyotining sharti sifatida qarashga undadi. Jamiyat taraqqiyoti kelajak taqdiri uchun ma'suliyat inson (shaxs)ga Yuklandi; endi u nafakat o'zi, o'zining faoliyati va farzandlari taqdiri, shu bilan birga butun sosium, insoniyat

kelajagi uchun ham javobgarlikni o'z ustiga olishi darkor. Kelajak avlodlar qanday qadriyatlarni o'ziga dastur amal qilib oladi, qanday

1 .Tolstix V.I. Obraz jizni. Ponyatie. Realnost. Problemi.-M.:Misl,1975.-S. 27. 2.O'sha joyda .-S.4-6.

1.Qarang: Anufriev E.A. Sosialisticheskij obraz jizni .Metodologicheskie i Metodicheskie Voprosi. -M.:Vis.ShK.,1980.-S.18-19.

normalarga tayanadi va qanday turmush kechiradi ularning barchasi insonga, uning mavjud hayot tarzini o'zgartirishiga bogliqdir.

Ikkinchisi, turmush tarzi o'zgarmaydigan, jamiyat va kishilar hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlardan tashqarida turadigan, shaxsni o'zining ichki tartiblari va an'alariga band etadigan, qotgan narsa emas. U jamiyat, shaxe bilan birga, ularning ta'sirida o'zgaradi hamda o'zi ham jamiyat va shaxsga ta'sir etadi. I.V.Suxanov tugri ta'kidlaydiki, turmush tarzida avlodlarni bir-biriga yaqin qiluvchi, ular o'rtasida vorisiylikni ta'minlovchi shunday an'alar, normalar borki, shaxe ulardan mutlaq ayricha yashay olmaydi. Inson (shaxs)ning ijtimoiy munosabatlar va hayot tarzidagi o'rni mavjud an'analarni rad etganida emas, balki ular bilan ongli munosabatga kirishganidadir.¹

Ilmiy kontseptual nuqtai nazardan I.V. Suxanovning yondashishi va yuqoridagi so'zlari to'g'ri. Tarixiy-madaniy merossiz avlodlar turmush tarzidagi umumiylikni, mushtaraklikni, umuman, ijtimoiy taraqqiyotni tasavvur etish qiyin. Biroq hamma ran shundaki ushbu ilmiy-nazariy qarashni yo'l-yo'lakay ta'kidlash boshqayu uni aniq milliy-madaniy tajribani o'rganish orqali himoya qilish boshqa.

A.P. Butenko turmush tarzini inson (shaxe) va guruh hayotiy faoliyatining asosiy ko'rinishi degan talqinga "jamiyat"ni ham kiritadi. Uning yozishicha, "turmush tarzi shaxe, guruh, jamiyatning" qanday va nima uchun yashayotganlarini, kishilar nimalar bilan band ekanini, kanday harakatlar, intilish ular hayotini to'ldirayotganini o'z ichiga oladi"¹. Boshqa bir joyda u A.P. Butenko A.S. Tsipko va V.P. Kiselev bilan birga turmush tarziga boshqacharoq yondashadi. U(ular) yozadi: "hayot usuli (ular hayot usulini hayot tarzini aniqlashtiruvchi -----

1. Qarang: Suxanov V.I. Obichai, Tradisii i Preemstvennost pokoleniy.-M. Lolitizdat, 1976-C. 178-180.

subkategoriya deb biladilar -P.X.)-hayot tarzi tiplari yoki ko'rinishlari yaratadigan ob'ektiv imkoniyat doirasidagi shaxsning ehtiyojlari va ustanovkalariga mos xulq-atvoridir. Ko'rinib turibdiki, birinchi ta'rifda inson(shaxs), guruh va jamiyatning konkret harakatlari, hayotiy intilishlari turmush tarzining asosiy belgilari sifatida qaraladi. To'g'risini aytganda, shaxs va guruhning konkret xatti-harakatlarini tasavvur qilish mumkin bo'lsa, bu fikrni jamiyatga nisbatan ishlatish galati tuyuladi. Jamiyatning qanday va nima uchun yashayotganini qanday konkret xatti-harakatlarda tasavvur qilish mumkin? Masalan, bozor munosabatlariga o'tishni turmush tarzi deb bo'ladimi? Yoki Qonunchilik jamiyatning konkret xatti - harakatlari, turmush tarzi deb bo'ladi? Biz jamiyat kategoriyasini va uning ma'lum bir konkret xatti-harakatlarni olib borishi mumkinligini shubha ostiga olmokchi emasmiz. Jamiyatning bozor munosabatlariga o'tishi mudom konkret shaxs, guruh qatlam yoki etnik birlik, ularning turmush tarzi orqali ro'y beradi.

Ikkinchi ta'rifda "turmush usuli", "ehtiyoj" va "ustanovka" kategoriyalari birlik, millat orqali ro'y berishini ta'kidlamoqdamiz, xolos. Jamiyatning u yoki bu qadriyatlarini qo'llab-quvvatlashi, u yoki bu normalarga o'tishi har doim yuqoridagi konkret shaxslar, qatlamlar yoki etnik tilga olinadi, ularning shaxe turmush tarzi negizida yotishi ko'rsatiladi. Haqiqatan ham shaxe faoliyati uning ma'lum bir ehtiyojlari, qiziqishlari bilan bog'liqdir. K.A. Gelvisiy behuda ta'kidlamagan: "ehtiyoj kishilar faoliyati va baxtining manbaidir.

Inson har doim o'zining yaxshi yoki yomon anglagan ehtiyojlariga itoat etadi".¹ Ammo ehtiyojlardan kelib chiqqan hamma-xatti-harakat va intilishlar ham turmush tarzi bo'lavermaydi. Ehtiyoj nafaqat o'zgaruvchan, qisqa muddatli, shu bilan birga anglagan yoki anglamagan, ijtimoiy muhit va jamiyat manfaatlariga Moe keladigan yoki ulardan farq qiladigan bo'ladi. Demak, 1.Qarang:Nadjimov G.N. Narodnie Tradisii i kultura.-T.:Uzbekiston, 1992.-C.4-5.

ehtiyojlardan kelib chiqqan hamma say'-harakatlar emas, balki shaxe, guruh, millat hayotida ma'lum bir muhim ko'rinishga , uzluksiz takrorlanishga , hatto odat tarziga, qadriyatlarga aylangan harakatlarga turmush tarzining belgisi hisoblanadi.

Turmush tarzini ijtimoiy voqelik sifatida o'rganish ba'zi olimlar tomonidan uni behad kengaytirish, keng ijtimoiy munosabatlarga yaqin hodisa sifatida talqin qilishga olib kelgan. Masalan, V.G. Smolenskiy va A.A. Shershunov unga, "iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy oilaviy va jamiyatda boshqa munosabatlarni uz ichiga oluvchi tushunchadir", deb ta'rif beradilar. Shubhasiz, turmush tarzi ushbu ijtimoiy sohalar bilan bog'liqdir, ma'lum darajada ularga tayanadi va ular ta'sirining in'kosi bo'lib keladi. Masalan, turmush tarzini oilaviy munosabatlardan alohida kechadigan hodisa sifatida qarash mumkin emas. Biroq oila kishilar, jinslar va avlodlarning ijtimoiy - tarixiy an'alariga muvofiq uyushgan, bolani voyaga etishtirish, yashash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan institutidir.² Turmush tarzi esa ushbu institutning xarakteristikasidir. Ushbu xarakteristikasiz, sifat belgilarisiz turmush tarzi o'z mohiyatini yo'qotadi. Ammo bundan oila va turmush tarzi aynan vokealar, ularning institut sifatidagi va funktsional vazifalari bir xil degan ma'no kelib chiqmaydi. Biroq ular turmush tarzining milliy, etnomadaniy xususiyatlari ham borligini esdan chiqaradilar. Bunday yondashish "yagona sovet xalqi" , "umumiy socialistik turmush tarzi" shakllantirishga yo'naltirilgan sho'rolar davlati siyosatining ta'siri edi, atbatta.

I.V.Suxanovning talqini bizning qarashlarimizga yaqin turadi. Unda turmush tarziga tarixiy-madaniy yondashiladi. Natijada xalq urf-odatlarini,

1..Butenko A.P. Sosialisticheskiy obraza jizni: problemi i sujdeniya.-M.:Misl,1978.-S.36-37.

2..Smolenskiy V.G. Tsennosti sosialisticheskogo mira .-M.:Misl,1978.-S7.

an'analari, uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangan etnomadaniy, milliy qadriyatlar, ma'naviy hayot turmush tarzining xususiyatlariga ta'sir qilgan omillar sifatida karaladi. Shuning uchun u turmush tarziga ijtimoiy munosabatlar

bilan kishilar fikri, his-tuyg'usi, ma'naviy -hayotining uygunligini aks ettiruvchi sosiologik kategoriya, deb ta'rif beradi.¹

Turmush tarzining ijtimoiy-falsafiy masalalarini o'zbekistonlik olimlar o.P.Umrzaqova, X.O. Shayxova, R.Jumaniyozov, K. Xolimbetov, A.M. Yunusov, A.Eshto'xtarov, O'.Toshtemirov, T.D.Saakova, M.D.Rajapova, N.Saidov, mustaqillik yillarda esa T.U.Abdullaev, R.A. Nosirov, D.A. Rahimboeva, Z.U.Ismoilovalar mahsus tadqiq etganlar.

O.P.Umrzaqova "turmush tarzi" kategoriyasi o'rniga "turmush" kategoriyasini qo'llab, unga "tarixan tarkib topgan sosial-iqtisodiy va ma'naviy faktorlar bilan belgilanadigan kundalik hayot ukladi bo'lib, shu asosda rivojlangan munosabatlar, an'analar va urf-odatlardan iboratdir",³ deb ta'rif beradi. Olima urf-odatlarning turmushdagi o'rne haqida to'xtaladiyu negadir ularning milliy jihatlari haqida hech nima demaydi. Bizning fikrimizcha, olimaga o'sha davrda hukmron bo'lgan sinfiy, mafkuraviy yondashish, 1917 yilgi oktyabr inqilobidan keyingi davr

1.Qarang:Suxanov I.V. Obichai, Tradisii i Preemstvennost pokoleniy.- M.:Nauka, 1976.-S.180.

2,Qarang: Jumaniyazov R. Xalq ijodi - haq ijod. - T.: Uzbekistan, - 1992; Shayxova X.O.Kollektivizm va o'zaro o'rtoqlarga yordam sovet turmush tarzining muhim normasidir//sosialistik turmush tarzi va shaxe kamoloti.- T.:Fan,1978;Xolibetov K.Internasionalizm va vatanparvarlik - sovet turmush tarzining ajralmas qismi // Sosialistik turmush tarzi va shaxe kamoloti.- T.:Fan,1978;Yunusov A.M. Sovet kishisining umumilliy iftixori, sovet turmush tarzining xarakterli xususiyatidir// sosialistik turmush tarzi va shaxe kamoloti.- T.:Fan, 1978;Abdullaev T.U. Dialektika nasionalnix i obtshechelovecheskix tsennostey v sfere bita.Avtoref.diss...D-ra filos. Nauk.-T.: 1992; Raximbaeva D.A. Semeyno-bitovie Tradisii v formirovanii nasionalnogo Samosoznaniya molodyoji (na materialax Uzbekistana).Avtoref.diss...kand.filosof.nauk,-T.: 1993. Z.Umrzaqova O. Sosialistik turmush va xalq an'analari.-T.: 1967.-4 b.

shakllangan turmush tarzini ulug'lash mavzuni ob'ektiv ochib berishga to'sqinlik qilgan. Umuman bunday yondashish Utla davrdagi barcha tadqiqotchilarga xos edi.

X.O.Shayxova turmush tarzi-inson faoliyatini, tafakkur va fikrlashini, kishilar xatti-harakati, odob-ahloqini har bir shaxsning ichki va tashqi qiyofasini ifodalovchi usul"¹ deb qaraydi. "Turmush tarzi shu jamiyatda hukm surayotgan ijtimoiy tartib, sosial-iqtisodiy, huquq va siyosiy erkinlik, odob normasi, turmush qoidalarini belgilaydi. Turmush tarzi insonning dunyoqarashi, hayotiy maqsadi,

intilishi, tafakkuri hamda xatti-harakatini anglatadi. Har bir insonning xulq-odobi, an'ana, urf-odat, udum va odob tamoyillari, sosial kayfiyati turmush tarzining muhim elementi hisoblanadi".

Olimaning turmush tarziga ma'naviy-ahloqiy omillarni kiritishga moyilligini sezish qiyin emas. Shuning uchun ham u turmush tarzining muhim xususiyatlariga jamoatchilik, birdamlik, xalqlar do'stligi, demokratizm, sosial optimizm, mehnatsevarlik, ahloq, odob, ma'naviy sog'liq kabilarni kiritadi.³

K.Xolibetov turmush tarzini "goyat murakkab va dinamik taraqqiyotdagi sistema" deb tushunadi. Shu nuqtai nazardan u, turmush tarzi "muntazam ravishda yangi-yangi mazmun kasb eta boradi, yangi-yangi jabhalarda namoyon bo'laveradi",⁴ deb yozadi. Bizning fikrimizcha, olim turmush tarzini murakkab hodisa deb bilsada, uni baynalminal va vatanparvarlik mavzusi doirasida qaragani uchun boshqa xususiyatlari haqida to'xtashga imkon topmagan.

A.M.Yunusov esa uzbek ijtimoiy falsafasiga birinchi bo'lib "milliy turmush tarzi" kategoriyasini olib kiradi. U boshqa tadqiqotchilardan

1.Shayxova X.O.Kollektivizm va o'zaro o'rtoqlarga yordam sovet turmush tarzining muhim normasidir//sossialistik turmush tarzi va shaxe kamoloti.-T.:Fan, 1978.-39 b. 2.Usha joyda.

Z.Qarang:o'sha joyda.39-43 b.4.Xolimbetov K.Internasionalizm va vatanparvarlik - sovet turmush tarzining1.Shayxova X.O.Kollektivizm va o'zaro o'rtoqlarga yordam sovet turmush tarzining muhim normasidir//sossialistik turmush tarzi va shaxe kamoloti.-T.:Fan, 1978.-39 b. 2.Usha joyda.

farqli o'laroq, turmush tarzi negizidagi milliylik va baynalminallik yotishini, tadqiqotchilar turmush tarzini o'rganayotganida uning ushbu ikki tomonidan kelib chiqishi zarurligini ta'kidlaydi.¹ Shu bilan birga olim o'sha ajralmas qismi ajralmas qismi davrdagi hukmron ideologiyadan kelib chiqib, "milliy turmush tarzi hukmron turmush tarzining tarkibiy qismidir" degan xulosaga keladi. To'g'ri, bunday yondashish o'sha paytda markazda chop etilgan adabiyotlarda mavjud edi. A.M.Yunusov ana shu adabiyotlardan foydalangan, biroq u milliy respublikalarda, shu jumladan, O'zbekistonda ham, milliy qadriyatlar, an'analar, turmush tarzi etakchi o'rinda saqlanib qolayotganini sezmagan. Shunday yondashuv R.Jumaniyazov, A.Eshto'xtarov, U.Toshtemirov, T.A.Saakova, M.D.Rajapova, N.Saidovning asarlarida, tadqiqotlarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

T.U.Abdullaev o'zining doktorlik dissertasiyasida turmush tarzida milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasini o'rganadi. Tadqiqotchi "ijtimoiy taraqqiyot negizida milliy va umuminsoniy qadriyatlar yotadi, ularning dialektik uygunligi shaxe turmush tarzini, kamolotini, keng munosabatlarini belgilaydi" deb ko'rsatadi. Biroq tadqiqotchi asosiy diqqatini qadriyatlarga qaratgani Bone turmush tarzini yo'l-yo'lakay tahlil qilib o'tadi xolos. Xuddi shunday yondashuv D.A.Rahimboeva

tadqiqotida ham ko'zga tashlanadi.⁴ To'g'ri, tadqiqotchi yoshlar milliy ongining shakllanishida oilaviy -maishiy an'analarning o'rnini, ahamiyatini o'rganadi. Biroq mavzu doirasida milliy turmush tarzining xususiyatlari ham tadqiq etilishi mumkin edi.

U.Ismoilova O'zbekiston mustaqilligi sharoitida qishloq turmush tarzi yangilanishining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillarini tadqiq etishga o'z

1.Yunusov A.M. Sovet kishisining umumilliy iftixori, sovet turmush tarzining xarakterli xususiyatidir// socialistik turmush tarzi va shaxe kamoloti.-T.:Fan, 1978.-34 b. 2.O'sha joyda.-37 b.

Z.Abdullaev T.U. Dialektika nasionalnix i obtshechelovecheskix tsennostey v sfere bita.Avtoref.diss...D-ra filos. nauk.-T.:1992.-S.6-7.

4.Rahimbaeva D.A. Semeyno-bitovye Traditsii v formirovani nasionalnogo Samosoznaniya molodyoji (na materialax Uzbekistana).Avtoref.diss...kand.filosof.nauk.-T.:1993.

diqqatini qaratgan. U ijtimoiy—siyosiy va ma'naviy omillarni o'rganar ekan, qishloq turmush tarzida milliy an'analar, urf-odatlar, bayramlarning ahamiyati, o'rni oshib borayotganini ochib beradi.¹ Ammo tadqiqotchi turmush tarzining ijtimoiy murakkab hodisa sifatida namoyon bo'lish xususiyatlariga, etnomadaniy, milliy komponentlarini ochib berishga e'tibor qaratmaydi. U milliy an'analar, urf-odatlarining ahamiyati haqida to'xtaladi, biroq milliy turmush tarzining o'zini ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida tadqiq etmaydi. Xuddi shuningdek, ushbu tadqiqotlarda turmush tarzining shaxe va millat hayoti bilan bog'liq tomonlari ham etarli o'rganilmaydi.

Turmush tarzini shaxe millat hayoti va ijtimoiy hayotning bir-biriga dialektik ta'sirisiz ta'savvur etib bo'lmaydi. Shaxe millatning turmush tarzini va hayotiy faoliyatini ijtimoiy tuzum, rang-barang ehtiyojlarga, ular o'rtasidagi qarama-qarshiliklarga qurilgan munosabatlar belgilab berganidek, o'z navbatida ijtimoiy munosabatlar ham shaxe, millat turmush tarzining, hayotiy faoliyatining ifodasidir. U har bir shaxe, millat hayotining alohida-alohida holdagi ifodasi emas, balki ularning uygunlashgan, tipologik ifodasidir. Ammo turmush tarzi tadqiqotchidan shaxe, millat hayoti, turmush tarzi bilan ijtimoiy hayot, milliy turmush tarzlari o'rtasidagi aloqadorlik va tafovutlarni aniqlab olishni taqozo etadi, aks holda u turmush tarzini mavhum, Real hayotdan ayricha kechadigan voqelik sifatida tahlil qilishga majbur bo'ladi.Bizning fikrimizcha, ushbu dialektik aloqadorlik va tafovutlar quyidagilarda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, shaxe, millat turmush tarzi ham , ijtimoiy hayot tarzi ham inson va jamiyatning uzviy bog'liqligidan kelib chiqqani bois ular urtasida substantSIONAL o'xshashlik, yaqinlik mavjuddir. Gnoseologik nuqtai nazardan ijtimoiy hayot tarzini shaxslar, kishilar turmush tarzining davomi, ong bilan idrok etiladigan va umumlashtiriladigan ko'rinishi sifatida karash -----

1.Qarang:Ismoilova Z.U.O'zbekiston mustaqillik sharoitida, qishloq turmush tarzi yangilanishining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillari,falsafa fan.nom.diss. avtoreferati.-T.:1999.—6-7 b.

esa ular o'rtasidagi dialektik aloqadorlikning belgisidir. Ushbu belgi inson hayot tarzining mohiyatidan kelib chiqadi.

Ikkinchidan, shaxs, millat turmush tarzi bilan ijtimoiy hayot tarzi ma'lum bir ijtimoiy-tarixiy va etnomadaniy makonda kechgani bois ular jamiyatning ob'ektiv qonunlariga bo'ysunadilar. Bu qonunlar kishilarning olamni idrok etish, dunyoni o'zgartirish jarayonida shakllangan, shuning uchun inson faoliyati, idroki va erki turmush tarzini shakllantiruvchi permanent omillar hisoblanadi. Shaxe, millat turmush tarzi bilan ijtimoiy hayot o'rtasidagi dialektik bog'liqlik ana shu permanent omillarning rolini ob'ektiv baholashni, ulardagi yaratuvchanlikdan yanada samarali foydalanish yo'llarini izlashni taqozo etadi. Shuni esdan chiqarmaslik lozimki, inson faoliyati, idroki va erki turmush tarzini u yoki bu tomonga burish, o'zgartirish kuchiga ega. Shuning uchun turmush tarzi yuqoridagi permanent omillardan tashqarida, alohida shakllanmaydi.

Uchinchidan, shaxs, millat turmush tarzi ijtimoiy hayotga ko'pincha bilvosita ta'sir etadi. Masalan, oilada shakllangan diniy yoki ma'naviy urf-odatlar ma'lum bir ijtimoiy, ahloqiy, hatto yuridik normalar orqali jamiyat hayotiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etadi. Agar urf-odatlar jamiyatda hukmron normalarga qarshi yoki zid kelsa, ular tor oila doirasida qolaveradi.

To'rtinchidan, shaxs, millat turmush tarzi individlarning hohish, ehtiyoj va istaklarini qondirishga xizmat qiladi, ularni ifoda etadi, shaxslarning to'laqonli hayot kechirishini ta'minlaydi. Mabodo turmush tarzi ushbu talablarga javob bermasa, turmush tarzi bilan shaxe o'rtasida ziddiyat paydo bo'ladi va oxir natijada, inson hayotining o'zi xavf ostida qolishi mumkin. Buni Alber Kamyu "be'manilik", "absurd" deb atagan.¹ Chunki inson o'z turmush tarzidan qoniqish o'rniga ziddiyat topsa, bu ziddiyat turmush tarzining mohiyati bilan bog'liq bo'lsa, inson buni anglasa, u ushbu turmush tarzidan bir kunmas bir kuni voz kechadi. Voz kechishning ko'rinishlari esa rang-barangdir. Biroq u ijtimoiy hayotdan mutloq voz kechib yashay olmaydi, bundan voz kechish ixtiyoriy o'lim yoki o'zini-o'zi o'ldirishdir.

Beshinchidan, shaxs, millat turmush tarzi bilan ijtimoiy hayot aynan emas, ular o'rtasida farqlar, tafovutlar mudom saqlanib qoladi. Gap shundaki, shaxe turmush tarzi individning yashash usulini ifodalaydi, ijtimoiy hayot esa jamiyat hayotining belgisidir. Bo'lak butunni to'la ifodalay olmaganidek, butun ham barcha bo'laklar xislatining aynan o'zi emas, aks holda bo'lak bilan butun o'rtasida ontologik, substantSIONAL farq qolmasdi. Biroq ushbu tafovut yoki farqlarni antagonistik kuchlar sifatida talqin qilmaslik kerak. Agar jamiyatda barcha kishilar e'tirof etgan, tan olgan va amal qiladigan normalar mavjud bo'lsa, tafovut va farqlar voqealarning o'ziga xos ichki xususiyati bo'lib, ijtimoiy turmushni rang-

baranglashishiga xizmat qiladi; mabodo shunday normalar bo'lmasa, kishilar o'rtasida aloqalar o'zaro hamkorlikka emas, ochiq kurashga, yovlashishga qurilgan bo'lsa, tafovut va farqlar jamiyatni emirishga olib keladi. Shuning uchun biz shaxe, millat turmush tarzi bilan ijtimoiy hayot o'rtasida tafovut va farqlarni izlashdan ko'ra, ularni uygunlashtiruvchi, jamiyatda konsensus, plyuralizm, hamkorlik, tenglik qaror topishiga xizmat qiluvchi omillarni izlash zarur, deb hisoblaymiz.

Oltinchidan , turmush tarzi bilan hayotiy shart-sharoitlar o'rtasida bog'liqlik va tafovut shaxe turmush tarzi va ijtimoiy hayot, muhit bog'liqligiga ta'sir etadi. Masalan, bozor munosabatlari sharoitida har kim o'z kuchi, ishbilarmonligi va mehnatiga yarasha kun ko'rishi, o'zining turmush tarzini tashkil etishi zarur bo'lsa, ba'zi kishilar osongina, ko'pincha g'ayriqonuniy yo'llar bilan pul topishga intiladilar. Ularning turmush tarzi ijtimoiy hayot normalariga ziddir. Demak, shaxe turmush tarzining ijtimoiy hayot bilan bog'liqligi bilvosita bo'lib, u shaxe ma'naviy-axloqiy xislatlarining ta'sirida pay do bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib biz turmush tarziga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin.

Turmush tarzi ma'lum bir ijtimoiy tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangan milliy, etnomadaniy xususiyatlariga ega bo'lgan kishilarning yashash, turmush kechirish, o'z hayotini o'zi tashkil qilish usullaridir.

1.2. Turmush tarzining sosiodinamik xususiyatlari va belgilari

Turmush tarzining ichki va tashqi belgilarini, aloqalarini o'rganish uni qanday yo'llar bilan shakllantirish, boshqarish, prognozlashtirish mumkinligini aniqlash imkonini beradi. Turmush tarzini o'rganishdan kelib chiqadigan bosh maqsad xam uni okilona tashkil etish, ijtimoiy, milliy tarasqiyot manfaatlari nuktai nazaridan boshqarishdir.

Turmush tarzini ob'ekt va sub'ektlari, manbalari, makon va vaqtda kechishi, milliy va umuminsoniy belgilari, maqsadlari, ijtimoiy funktsiyalari, ichki strukturasi, ta'minlanganlik darajasi, shaxsning hayoti va faoliyatining ko'rinishlari, milliy etnomadaniy tuzilishi, uning ijtimoiy borliq bilan aloqalari (yo'nalishlari) orqali o'rganish mumkin. Turmush tarzi birinchidan, ijtimoiy-tarixiy tajriba jarayonida, ikkinchidan, hozirgi jamiyatda hukmron bo'lgan, kishilar faoliyatining

yo'nalishlarini, fikrlash tarzini belgilab berayotgan ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shakllanadi.

Turmush tarzining ijtimoiy munosabatlar bilan bogliqligini o'rganish ikki muhim masala: birinchisi, turmush tarzining ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rnini aniqlashga, ikkinchisi, turmush tarzining ichki belgilari va tashqi aloqalarini yaxlit holda, ma'lum bir tizim sifatida qarashga, bu boradagi bilimlarni umumlashtirish, xullas, turmush tarzi xususiyatlari haqidagi yondashishlarni ilmiy metodologik asosga qurishga yordam beradi. Ob'ektiv shart-sharoitlarning turmush tarziga ta'sirini shunchaki kayd etish etarli emas, eng muhimi ijtimoiy munosabatlar shaklidagi ushbu shart-sharoitlarning turmush tarzida namoyon bo'lish xususiyatlari va ular orqali turmush tarzining sosiodinamik belgilarini aniqlash muhimdir. Chunki rasional boshqarish ob'ektga ta'sir etuvchi kuchlar ta'sirinigina emas, balki uning ichki strukturasini, tarkibiy qismlari o'rtasidagi kechadigan integrasion jarayonlarni, sosiodinamik o'zgarishlarni ham o'rganishni taqozo etadi.¹

Dunyo xalqlari o'rtasidagi keng integrasion aloqalarga, hamkorlikka qurilayotgan hozirgi davrda turmush tarzi global munosabatlar ta'siridan chekkada qololmaydi. Global jarayonlar mohiyatiga ko'ra xalqlarni yaqinlashtirish, ularning hayot tarziga umuminsoniy manfaatlar nuqtai nazardan ta'sir etishning omiliga aylanmoqda.¹

Globallashuv jarayonlari Millatlar, davlatlar, ijtimoiy tabaqalar turmush tarzlarining yaqinlashishini benihoya tezlashtiradi va shu asosda XXI asr davomida umuminsoniy turmush tarzi shakllanishi mumkinligini inkor etib bo'lmaydi. XXI asrni qamrab oladigan ushbu umumbashariy jarayonlar turmush tarzi bilan shug'ullanadigan tadqiqotchilardan katta e'tiborni talab qiladi. Ming yillar davomida tsivilizasiya turmush tarzi har bir xalq va mintaqaning muayyan shart-sharoitlari asosida shakllangan³ va rivojlangan bo'lsa, endi bu borada tadqiqotchilar o'z nuqtai nazarlari va e'tiqodlarini tubdan o'zgartirishlari lozim bo'ladi.

Mutaxassislarning hisobiga ko'ra, insoniyat o'z taraqqiyotida shunday darajaga ko'tarildiki, butun er yuzi bo'yicha barchaning barobar darajada turmush talablari, hayot ehtiyojlarini ta'minlash, er yuzida to'q xalqlar va och xalqlar, kambagal mamlakatlar mavjud bo'lishiga yo'l qo'ymay, xalqlarning xaqiqiy tengligiga, ozodligiga va o'zaro hamkorligiga erishish mumkin.²

Endi, umumbashariy yagona turmush tarzi xayolotdan reallikka aylanishi -----

1.Qarang:Vartofskiy M. Modeli. Obraz i nauchnoe ponimanie.-M.: Progress, 1989;
Prigojij I.R.Poznanie slojnogo.Vvedenie.-M.:Rodos, 1990.-S. 12-13.

2.Qarang: Globalnie problemi i obtshechelovecheskie tsennosti.-M.:Progress,1990.-S.4-5.

Z.Qaranptoynb A. Tsivilizsiya pered sudom istorii:Sbornik.-M.:Rolf,2002.—S.-232-240.

Er yuzida yashab turganlarning, ya'ni bizning ezgu so'zimiz, ezgu ishimiz va ezgu haraklatimizga bog'liq bo'lib qolmoqda. XXI asr insoniyat oldida ana shunday amalga oshirsa bo'ladigan istiqbolli imkoniyatlarni yaratmoqda. Demak, insoniyat o'z taraqqiyoti jarayonida erishgan moddiy va ma'naviy yutuqlarga suyangan holda yangi, zamonaviy, demokratiya, insonparvarlik, fuqaroviy jamiyat tamoyillari asosida va dunyoda Millatlar, elatlar, mintaqalar uchun adolatli bo'lgan turmush tarzini yuzaga keltirish arafasida turibdi.

Global jarayonlarning asosiy ziddiyati umuminsoniy turmush tarzi bilan milliy turmush tarzlari o'rtasidagi farq va tafovutlar ularni umumiy maqsadga olib kelish masalalari bilan bog'liqdir. Ammo, bizning fikrimizcha, umumbashariy turmush tarzi milliy va mintaqaviy turmush tarzlarining ijobiy, asosli, barcha Millatlar va elatlar qabul qiladigan jihat va xislatlarini umumlashtirish asosiga quriladi. Shu nuqtai nazardan olganda, uzbekona turmush tarzi o'ziga xos ijobiy xislat va xususiyatlarini saqlab qolgan holda, umuminsoniy va xalqimizning barcha talablariga javob berishi shubhasizdir.

G'arbdagi olimlar va jamoat arboblari o'tgan asrning 50-yillaridayoq G'arb va Sharq, Janub va shimoldagi boy va kambagal mamlakatlar, xalkdar, mintaqalarning turmush darajasi, sifati va o'lchovlari o'rtasidagi katta farq yaqin kelajakda tugatilmasa va boshqarilmasa, kelgusida juda katta global muammolar, halokat va bo'hronlar yuzaga kelishi mumkinligi haqida ogohlantirib, o'z taklif va tavsiyalarini ilgari sura boshlagan edilar.

XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to'la chetda kolgan birorta ham davlat yo'q. Hattoki, xalqaro tashkilotlardan uzoqroq turishga intilayotgan, ularga a'zo bo'lishni istamayotgan mamlakatlar ham bu **jarayondan mutlaqo chetda emas**. Hozirgi davr global muommolari.

Ijtimoiy muommalar:

1. Aholining ko'pchilik qismi qashshoqligi. Er yuzi aholisining 3/2 qismi to'yib ovqat emaydi. 3/1 qismi esa butunlay qashshoq.
2. Sog'liqni saqlash sohasining keskin etishmasligi va bevaqt o'limning ko'pligi. SPID XX asr vabosi.
3. Savodsizlikning ko'lamdor maktabi. Ko'pchilik kishilarda fizik ijtimoiy mayishiy va ma'naviy madaniyatning pastligi.

Iqtisodiy muommalar.

1. Tartibsiz globalizasiya jarayoni.
2. Mafiya, Korupsiya, Jinoyatchilik, Narkomaniya, Ichkilik, Foxshabozlik,
3. Tabiiy boyliklarning kamayib borishi va materiallarning qimmatlashishi

Siyosiy muommalar.

1. Ishsizlik armiyasining o'sib borishi. Mafkuraviy urashning avj olishi, millatchilik, shovinizm, diniy akidaparastlik, terrorizm.

2. Qurollanishning kuchayib borishi. Dunyoda xar yili 1000 mlrd. Xarbiy sohaga sarv qilinishi. 400 ming olimlar harbiy sohada tadqiqot olib bordi. Kashfiyotning 25% harbiy sohaga aloqadordir.

Ekologik muommo.

Orolni asrash, suv toshkini va boshkalar. Shu sababli hozirgi vaqtda mafkuraviy vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intila-yotgan siyosiy kuchlar va harakatlar ko'payib bormoqda. Tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm va kommunizm, irqchilik va diniy ekstremizm mafkura-lari shular jumlasidandir.

Uyushgan jinoyatchilikka,jaxon terorizmi qo'lida axborot xavfli qurolga aylanmoqda. Masalan Internet qo'poruvchilik tadbirlari tashkil etish bo'yicha qo'llanmaga aylanib qoldi

Odatda globalizasiyaga avvalo iktisodiyot va axborot soxalarda ruy beradigan jarayoin sifatida yondoshiladi. Jaxon dinlarining barchasi globalizasiya intilish ruxi bilan sugorilgan.Xar bir kudratli tsivilizasiyauz tarakkiyotining chukkisida dunyo mikiyosida uz tartibini urnatishga xarakat kilgan.

Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar uning ta'siriga ko'proq uchrab qolishi mumkin. Bunday g'ayri ixtiyoriy ta'sir esa ko'pincha salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Globalizasiya tushunchasi,uning moxiyati, asosiy ko'rinishlari,tendentsiyalari va oqibatlari tevaragidagi munozaralar so'ngi yillarda nafakat jonlandi,balki qizgin tus oldi.

Globallashuvga berilgan ta'riflar juda ko'p.Globalizasiya - kishilik jamiyatidagi axamiyatga molik madaniy,axborat ,iktisodiy ,geosiyosiy masalalarni bir tizimga birlashtiruvchi jarayondir.

Frantsuz tadqiqotchisi B.Bandi bergan ta'rif. Unda globallashuv jarayonining uch o'lchovli ekaniga urg'u beriladi:

- globallashuv-muttasil davom etadigan tarixiy jarayon;
- globallashuv-jahonning gomogenlashuvi va universallashuvi jarayoni;
- globallashuv-milliy chegaralarning "yuvilib ketish" jarayoni.¹

B.Bandi ta'rifida keltirilgan globallashuv o'lchovlarining har uchalasiga nisbatan ham muayyan e'tirozlar bildirish mumkin. Lekin jahonda yuz berayotgan jarayonlarni kuzatsak, ularning har uchovi ham unda mavjud ekanini ko'ramiz.

Globallashuvning mamlakatlar iqtisodiy siyosati va ma'naviyatiga o'tkazishi mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy ta'siri Hindistonning mashhur davlat

arrobi Mahatma Gandining quyidagi so'zlarida yaxshi ifodalangan: "men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-to'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman"²

Xususan, 1955 yil 31 yanvar - 9 iyul kun lari shakllangan "yangicha tafakkur usuli" mualliflari Nobel mukofoti sovrindorlari Jolio Kyuri va Bertran

Rassellar "Rassel-Eynshteyn manifesta" bilan insoniyatga, etakchi siyosatchi va davlat arboblari murojaat kilib, yadro qurolini takomillashtirish halokatli oqibatlariga, boy va kambag'al mamlakatlar aholisi turmush tarzlari o'rtasidagi farq ortib borayotgani esa insoniyatni halokatga olib kelishi mumkinligi haqida ogohlantirgan Edil ar. Shu asosda qurolsizlanish va tinchlikni saqlash uchun kurashuvchi "Paguosh harakati" vujudga kelgan.

Sovet apologetlari hukmron partiyaning topshirig'i bo'yicha "sosialistik turmush tarzi"ni asoslash va maktash bilan band yillarida G'arbda, kapitalistik davlatlarda insoniyat taraqqiyotida yangi tarixiy pallani belgilab beruvchi

ijtimoiy, aqliy-ma'naviy o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. G'arb olimlari insoniyat holatini global nuqtai nazardan tahlil qila boshladilar. Bu - insoniyat taraqqiyotiga yangicha yondashuv edi. Natijada birinchi marta boy, ilgor, rivojlangan mamlakatlarning olimlari, ishbilarmonlari, mutafakkirlari, jamoat arboblari insoniyat taraqqiyotiga bir butun jarayon tarzida karab, uni birinchi va ikkinchi Jahon urushlari saboqlariga tayangan holda tahlil qilib, xalqlar va davlatlarni inqirozlar oldini olishga chaqirdilar.

Insoniyat kelajagi to'g'risidagi asosli xavotir 60-yillar oxirida italiyalik yirik sanoatchi Aurelio Pechchei tomonidan xalqaro jamoatchilik "Rim klubi" uyushmasini tuzishga olib keldi. A. Pechchei o'zining "insoniy

sifatlar" nomli asarida turli xalqlar ijtimoiy taraqqiyoti

o'rtasidagi farq, tafovutlarning chuqurlashib, kengayib borayotganligi

1. Qarang: Globalnie problemi i obtshechelovecheskie tsennosti.-M.:Progress,1990.-S.4-5.

va buning oqibatlari global, jahonshumul ko'lam kasb etishi, bu esa turli turmush tarzlari o'rtasida yaqinlashtirib, kelishtirib bo'lmaydigan farqlarni muqarrar qilib qo'yishini ta'kidlaydi. U yozadi: "Global muammolarning dahshatli ko'lami shu darajada realki, insoniyat bunday tahlikali holatdan faqatgina o'z tafakkuri va xulq-atvorida keskin inqilobiy o'zgarishlarni shakllantiribgina qutulishi mumkin"¹ (tarjima bizniki - P.X.). "Rim klubi" ning mazkur global halokatlarning oldini olish yo'nalishida ilgari surgan loyihalari J.Forresterning

"dunyoviy dinamika", Denis Medousning "o'sish hadlari", M.Mesarovich va E.Pestelning "insoniyat o'zining burulish chorrahasida", ya.Tinbergenning "xalqaro tartibotlarni qaytadan ko'rib chiqish" kabi loyihalarida qo'llab-quvvatlandi. 90-yillarning o'rtalariga kelib "yangi insoniy o'lchovlar" loyihasi ilgari surildi. Unda asosiy maqsad boy va qashshoq mamlakatlar, mintaqalar, xalqlar o'rtasidagi taraqqiyot darajasidagi farqlarni

o'zaro yaqinlashtirish, inson aql-zakovati va shaniga putur etkazmaydigan turmush tarzini yaratish rivojlangan, "erkin dunyo"ning kambag'al, qashshoq mamlakatlar, xalqlar oldidagi burchi, majburiyati ekanligini anglatishga qaratilgan edi. Rivojlangan mamlakatlaridagi oqil insonlar dunyodagi barcha millat, xalqlar vakillari uchun munosib turmush tarzini yaratish, imkoniyatlarini qidirdilar. Gollandiyalik Nobel mukofotining sovrindori

Ya.Tinbergen boy va kambag'al mamlakatlar, xalqlar, mintaqalar o'rtasidagi notenglikni bartaraf etishni nazarda tutib, "yangi butun dunyo tartiboti

yaratilib", - unda to'q - farovon va munosib hayot barchaning daxlsiz huquqi bo'lmog'i lozim, degan g'oyani ilgari surdi. Ushbu qarashlar G'arbda turmush

1.Pechchei A.Chelovecheskie kachestva.- M.:Progress, 1980. - S.5.

2.Tinbergen Ya.N. Peresmotr mejdunarodnogo poryadka.-M.:Progress,1980.-S.45-46.

Z.Bu haqida kengroq ma'lumotlarni quyidagi adabiyotlardan olishingiz mumkin: Todorov A.

Kachestva jizni. Kriticheskiy analiz burjuaznix kontsepsiy.-M.:Misl, 1980; Problemi

izmereniya i modelirovaniya obraza jizni.-M.: 1988.—S.161-168.

tarziga oid turli kontsepsiyalarni, yondashuvlarni yuzaga keltirdi³. Uzbekiston Prezidenti I.A.Karimov «Globallashuv – kishilik jamiyatidagi maxalliy ahamiyatga molik madaniy, axborot, iqtisodiy, geosiyosiy makonlarning bir tizimga birlashuvi jarayonidir" deb kursatadi. Shu bilan birga ijobiy va salbiy tomonlarini ilmiy asoslab bergan.

Globallashuvning ijobiy tomonlari;

-Davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integrasiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi;

-Xorijiy investisiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi;

-Ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishi;

-Zamonaviy kommunikasiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi;

-Turli qadriyatlarning umuminsoniy negizida uyg'unlashuvi;

-Tsivilizasiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi;

-Ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi

-Axborot oqimining bimalol harakati tufayli globallashuv turmush farovonligini yaxshilash uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda;

-Globallashuvga qo'shilgan mamlakatlar barcha imkoniyatlardan baxramand bo'lishadi, ishlab chiqarish miqyoslari kengayadi, tovarlar sifati oshadi, tanlash tamoyili ishga tushadi.

-Internet, sun'iy yo'ldosh orqali teleko'rsatuvlarni uzatish tizimining mislsiz darajada rivojlanishi;

-Yangi kashfiyot va zamonaviy texnologiyalar vositasida o'simlik va hayvonot olamida irsiyatni o'zgartirish orqali oziq-ovqat ishlab chiqarish hamda o'ta xavfli irsiy kasalliklarni bartaraf etish imkoniyati paydo bo'lmoqda

Globallashuvning salbiy tomonlari:

-Zamonaviy texnologiyani monopoliya qilib olgan rivojlangan davlatlar globallashuv beradigan imkoniyatlardan o'zlarining xususiy manfaatlarini mutlaqlashtirmoqdalar. Natijada ular boyib, rivojlanayotgan mamlakatlar qashshoqlashmoqda, tabiiy resurslari tugab bormoqda;

-Rivojlangan mamlakatlar zamonaviy taraqqiyotni bir yoqlama talqin qilib, globallashuvni evropalashuv jarayoniga aylantirishga urinmoqdalar.¹

Shunday ekan, biz turmush tarzimizda milliy qalriyatlarimizni takomilashtirish, yoshlarimizni globallashuv davrida siyosiy dunyokarashini doimo rivojlantirish, dunyodagi siyosiyo vazmyatdan tezlik bilan xulosalar chikarib - Vatanni tashki yovuz kuchlardan ximoya kilishga va Vatan ravnakiga o'z himoyastnt ko'shishga o'rgatib borishdan iboratdir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev, bugungi globallshuv davrida tashki va ichki siyosatga tegishli qabul qilayotgan qarorlarni chukur yo'lab keyin qabul kilishimiz kerak, deydi. kechagi gap bugungi kunga to'g'ri kelmay kolyapti.

Turmush tarzining sosiodynamik o'zgarishiga tabiiy, ijtimoiy va ma'naviy-madaniy omillar ta'sir ko'rsatadi. Kishilar turmush tarzining shakllanishiga ta'sir qiladigan tabiiy omillarga tabiiy shart-sharoitlar, iklim, yashash qulayligi, suv va havoning tozaligi, shifobaxsh yoki aksincha, zararliligi, seroblighi yoki taqchillighi, ularning shaxsga, guruh, tabaqa, sinf, millat, davlatga tegishli ekanligi yoki tegishli emasligi, ijtimoiy munosabatlar majmui, demografik omillar, shuningdek, kishilarning tabiiy-ruhiy, ma'naviy-madaniy o'ziga xosligi ham kiradi. Ijtimoiy omillar majmu'iga jamiyatning paydo bo'lishi va rivojlanishiga olib keladigan, barcha iqtisodiy, siyosiy shart-sharoitlar, taraqqiyotga yo'l oluvchi jarayonlar, hatto tuzum, siyosiy guruh, firqa yoki uyushmalar kirishi mumkin. Turmush tarzining sosiodynamikasida davlat, mamlakat, hudud, mintaqaning o'ziga xosligi, hokimiyat, siyosiy uyushmalar, tashkilot va korporasiyalarning ta'siri ham u yoki bu tarzda o'z ifodasini topadi.

Demak, jamiyat taraqqiyoti qaysi bosqichda turgan bo'lsa, unda ishlab-chiqarish, umuman texnik texnologik daraja va imkoniyatlar nimani bersa, kishilarning ma'naviy-madaniy intilishlari qanday xususiyatga ega bo'lsa, turmush tarzi ham shunday bo'ladi.

Turmush tarzining sosiodinamikasiga ta'sir qiladigan shart-sharoitlar, qoidalar va omillarni falsafiy idrok qilish, turli jihat va yo'nalishlarini bir butunlikda qarash turmush tarzi mohiyatining mazmuni va ichki qonuniyatlarini chuqur ilmiy o'rganish uchun katta ahamiyatga ega.

Turmush tarzining sosiodinamikasiga ta'sir qiladigan ijtimoiy omillarni - **ob'ektiv** va **sub'ektiv** ko'rinishlarga guruhlash mumkin.

Ob'ektiv ijtimoiy shart-sharoitlarga ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy-siyosiy muhit, ijtimoiy-siyosiy kuchlar nisbati, ularning dasturi va maslagi, maqsad va vazifalari kabilar kiradi.

Sub'ektiv omillarga esa kishilarning ongli faoliyati, irodasi, ruhiyati, buyuk maqsad, vazifani bajarishga faol kirishganligi, yoki, aksincha, o'ta passiv, lokayd, begam, befarqlarcha munosabatda bo'lishi kabilar kiradi. Bunda siyosiy firqa, uyushma, tashkilotlar, ta'lim-tarbiya, tashviqot va targ'ibot muassasalarining goyaviy, ma'naviy, tarbiyaviy faoliyati katta ahamiyatga ega.

Ob'ektiv va sub'ektiv omillar turmush tarzining sosiodinamikasiga tadriijiy birlikda ta'sir qiladi. Ob'ektiv shart-sharoitlar, omillarning o'zgarishi kishilar ongining, dunyoqarashining, xulq-atvorining, amaliy faoliyatining, demak, keng ma'noda butun turmush tarzi majmuining o'zgarishiga olib keladi. Ba'zan, aksincha, sub'ektiv omillar - g'oya, maqsad, me'yor, ruhiyat, kechinmalarning o'zgarishi kishilar ongi, dunyokarashidagina emas, balki, ularning turmush ukladida ham beqiyos o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Turmush tarzi fenomeni shaxslar faoliyatining u yoki bu imkoniyatlarini amalga oshiribgina kolmay, balki ularning tashqi hayotiy faoliyati sharoitlariga ham ta'sir kursatadi. Turmush tarzining kishilar faoliyati jarayonida ifodalanadigan xususiyati shundan iboratki, shaxslar faollik bilan o'zlariga jamiyat talablarini qabul qiladilar. Buni ijtimoiy hayot tarzini shaxsning amaliyotga qo'llashi sifatida qabul qilsa ham bo'ladi. Demak, turmush tarzining sosiodinamikasi individ (shaxs) va ijtimoiy muhit (jamiyat) o'rtasidagi dialektik aloqalarda namoyon bo'ladi. O'z paytida Gegel, shaxsning turmush tarzi, hayoti antik davrdagidek uning "ichkidunyosi" orqali emas, balki "u yashayotgan doiradagi hukmron tashqi hayotiy tartiblar, tashqi muhit orqali kechadi",¹ deb yozgan edi. Shaxsning qaysi millat va jamiyat vakili sifatida shakllanishi, u yoki bu qadriyatlarni o'zlashtirishi, hayot tarzini qabul qilishi ijtimoiy tashqi muhitga, uning ta'siriga bog'liq. Aynan ijtimoiy ta'sir shaxsning ham

individuallashuvini, ham ijtimoiylashuvini belgilovchi "qonuniyat"dir.² Agar ushbu "qonuniyat"ni turmush tarziga, shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlar dialektikasiga tadbqiq etish jamiyat, tashqi muhit : a)qandaydir ob'ektiv va subektiv belgilari, mezonlari bilan individdan farq qilishi; b) o'ziga xos norma, etalon, obraz sifatida ta'sir qiladigan mexanizmlariga hamda ; v) o'zining strategik maqsadlariga, rejalari va ularni amalga oshirish yo'llariga; g) shaxsga, uning hayot tarzini shakllantirish, boshqarish, prognozlashtirish imkoniyatlariga, mexanizmlariga ega bo'lishi zarur.¹ Ushbu shartlardan birortasi bo'lmasa yoki ular shaxsga, uning turmush tarziga ta'sir qilish imkoniyatlariga ega bo'lmasa, shaxe turmush tarzining shakllanishi haqida ran bo'lishi mumkin emas. Masalan, ijtimoiy muhit shaxs turmush tarzidan milliy yoki umummilliy manfaatlariga xizmat qiluvchi davlat, armiya, ijtimoiy-pedagogik institutlar, milliy qadriyatlarni asrovchi va targ'ib qiluvchi jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalariga ega ekanligi bilan farqlanadi. To'g'ri, ushbu institutlarning ayrimlari (masalan, yu.Usmenovning o'z nomida "Yulduz" gazetasiga, ayrim shaxslarning milliy san'atni targ'ib qiluvchi xususiy korxonalarga ega ekanligi, xususiy mulk formasi sifatida kelishi mumkin. Biroq ularning mavjudlik, samarali ishlash sharti oxir natijada ijtimoiy muhitning munosabatlari va ehtiyojlari bilan chegaralanadi.

Shuni esdan chikarmaslik zarurki, sof milliy muhit yo'q. Har bir xalq madaniyati asrlar davomida Millatlar, xalqlar madaniyatidan nimanidir o'zlashtirgan, albatta. Shunday ekan shaxs milliy muhitda emas, balki ma'lum bir qadriyatlarga ega ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi.Ammo bu shaxsda

milliy xususiyatlar, milliy turmush tarzi bo'lmaydi degani emas, milliy tili, mintaliteti, urf-odatlar, yashash tarzi kabisiz kishi bo'lmaydi. **Milliy turmush tarzi deganda biz shaxs hayoti va faoliyatida ana shu milliy belgilarning aks etish usullarini tushunamiz.**

Milliy turmush tarzi ijtimoiy muhitning ichki komponentidir; goho u ushbu muhitda etakchi o'rinda turishi mumkin. Biroq millat vakillari sonining ko'pligi ham ijtimoiy muhitda ushbu millatga oid turmush tarzining etakchi o'rinda turishini belgilamaydi. Masalan, Pribaltika respublikalari va Qozog'istonda sobiq SSSR paytida rus millati vakillari umumiy aholi sonining 50 % dan ziyodini tashkil etagan bo'lsada, ushbu o'lkalar tub aholisining milliy turmush tarzi ruslashib, yo'qolib ketgani yo'q. Mustaqillikka erishgan ushbu respublikalarda milliy turmush tarzi mustabid tuzum tazyiqini engib, qaytadan keng namoyon bo'lish bosqichiga o'tdi.¹

Shuning uchun milliy turmush tarzining boshqa turmush tarzidan farqi undagi ijtimoiy, tarixiy-madaniy tajribalarning mavjud ijtimoiy

muhitda namoyon bo'lishi darajasi bilan belgilanadi. Bu esa eng avvalo shaxsning, ushbu millat vakillarining ijtimoiy va tarixiy-madaniy tajribalarni o'zlashtirishiga bog'liqdir.

Ilmiy adabiyotlarda shaxsning, millat vakilining turmush tarzi uning

faollik xarakteri, mushohadaga beriluvchanligi (sozersatelnost) va irodasining zaifligi (indifferntniy) sifatlarida namoyon bo'lishi ko'rsatiladi.² Haqiqatan ham, ushbu sifatlarda shaxsning hayotga, yon-atrofga, ijtimoiy muhitga munosabatlari aks etadi. Bizning fikrimizcha, bu o'rinda, ayniqsa milliy turmush tarzi to'g'risida ran ketganida, shaxsning o'z xalqining ijtimoiy, tarixiy-madaniy tajribalarini o'zlashtirishi ham nazarda tutilishi darkor.

Faollik-shaxsning dunyoni bilishga, o'zgartirishga qaratilgan harakatining yuksak ko'rinishidir. Bu oddiy faoliyat, har kuni, har onda takrorlanadigan xatti-harakatlar emas, balki taraqqiyot qonunlariga muvofiq ijtimoiy muhitdagi mavjud munosabatlarni tez va dadil o'zgartirishga qaratilgan xatti-harakatdir. Aynan faol shaxs turmush tarzini yorqin namoyon etadi. Masalan, bozor munosabatlariga o'tish sharoitida mehnat

Qarang:Problemi izmereniya i modelirovaniya obraza jizni.-M.: 1988.-S.8-14.

1,Qarang:Kara-Murza S.G.Evrostrizim-edipov kompleks intelegentsii.- M.:Izd-vo Eksmo,2002.-S.204;Petrov N. K unijeniyam v svojom otechestve nam ne privikatiunezavisimaya gazeta, 13 iyulya 1993.

2.Qarang:Stil jizni lichnosti. Teoriticheskie i Metodicheskie problemi.- Kiev,Naukova dumka, 1992.-S.109-110.

**P-Bob. Milliy turmush tarzi: etnomadaniy genezisi va mustaqillik
arafasidagi ahvoli**

**2.1.O'zbekona turmush tarzining etnomadaniy
genezisi**

O'zbekona turmush tarzi respublikamiz aholisining asosiy qismi, titul millati bo'lgan o'zbek xalqiga xos tarixiy-madaniy hodisadir. Demak, ushbu paragrafda tadqiqotimiz ob'ektini o'zbek xalqi turmush tarzining shakllanish jarayonlari tashkil etadi. Ammo bu bilan biz O'zbekona turmush tarzini umumiy ijtimoiy tarixiy jarayonlardan ajratib, uni boshqa Millatlar turmush tarzidan mutlaq farq qiluvchi va ularga qarama-qarshi turuvchi voqelik sifatida qarashdan yiroqmiz. Xalq, millat mavjud ekan ular o'zining enomadaniy genezisini, o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarni bilishga har doim qiziqadi, bu tabiiy holdir. Shu bilan birga biz ushbu xususiyatlarni bo'rttirib ko'rsatishga, ularni umuminsoniy, umumsosial taraqqiyot jarayonlaridan ayricha yoki alohida sharoitda kechadigan hodisa sifatida qarashga ham qarshimiz. O'zbek xalqining innovasion izlanishlarga Moe tarzda

shakllangani ham mavzuga tor, milliy yondashish bilan chegaralanib qolmaslikka undaydi.

O'zbekona turmush tarzining etnogenezisini quyidagi tarixiy-madaniy taraqqiyot bosqichlari orqali kuzatish mumkin.

1.Eng qadimgi davr. Bu O'rta Osiyo hududida bir million yil avval paydo bo'lgan odamlardan to eramizdan avvalgi birinchi ming yilliklargacha bo'lgan boskichni o'z ichiga oladi.

Ushbu eng qadimgi davrda o'lkamiz xalqlari urug'chilik davrini o'z boshidan kechirganlar. Ular termachilik turmush tarzidan chorvachilik, keyin esa dehqonchilik turmush tarziga o'tishgan. Eng qadimgi davrga taalluqli Kaltaminor madaniyatiga oid hududlarda neolit (yangi tosh) davri (er.avv. 6-4 ming yillar)da, ya.G'ulomovning yozishicha, "ko'pchilik xalq Daryo, ko'l va dengizlar bo'yida, qum ustiga chayla qurib yashagan. Bu xilda yashagan xalqlar

asosan ovchilik va baliqchilik bilan kun ko'rganlar. Bu davrda odamlar erishgan yutuqlardan biri sopol idishlar yasash bo'lgan.»¹

Ota urug'i davriga o'tish bilan turmush tarzida " kishilar mayda guruhlarga bo'linib, suv toshqinlari chegarasida juda oddiy dehqonchilik va bir oz chorvachilik bilan kun ko'rganlar... Ular da turmush ancha qrloq, uylar ham omonat chaylalaridan iborat bo'lgan". Shu tariqa kishilar ikki xil: vohalarda o'troq dehqonlar; dasht va tog'larda esa ko'manchi chorvadorlar shaklida hayot kechirganlar".²

P.Qadimgi davr. Bu davr eramizdan avvalgi birinchi ming yilliklardan o'lkamizda temir ishlab chiqarish va eroniylar (Ahmoniylar) va Iskan dar Zulqarnayn istilosi (er.AV. III asr)gacha bo'lgan bosqichdir.

Ushbu bosqichda muhim ahamiyatga ega bo'lgan, o'lkamiz xalqlarining kelgusi tarixiy-madaniy taraqqiyotida ma'lum iz qoldirgan uch voqea sodir bo'ldi. Birinchisi, eramizdan avvalgi up asrlarda zardushtiylikning yuzaga kelishi; ikkinchisi oromiylar yozuvining qabul qilinishi; uchinchisi ellinizmning o'lkamizda tarqalishidir.

T.Karim zardo'shtlikning paydo bo'lishini Amudaryo hududlarida oriy qabilalari o'rtasida yashagan Purishasp ismli kishi nomi bilan bog'laydi.U yakka xudolikni targ'ib qilgani uchun o'z yurtidan badarg'a qilinadi.³ Demak, oriy qabilalarida ko'p xudolik hukm surgan.

Zardo'shtliklarning asosiy qarashlari "Avesto"da o'z aksini topgan. T.Mahmudovning yozishiga ko'ra, "Avesto"da o'sha davrdagi nafaqat diniy qarashlar, unda ijtimoiy-falsafiy, siyosiy, oilaviy munosabatlar haqida ham ma'lumotlar bor.⁴ "Har kuni ikki marta suv oqib o'tadigan, sug'oriladigan bir bo'lak eri, podasi, ayvonli hovlisi, 15 yoshli xotini

1.G'ulomov Ya. Qadimgi madaniyatimiz izlaridan.-T.:Fan,1960.-14 b. 2.O'sha joyda.-17 b.

Z.Qarang;Karim T. Muqaddas "Avesto" izidan.-T.:Cho'lpon,2000.-107 b. 4.Qarang: Maxmudov T.
"Avesto" haqida.-T.:Sharq,2000.-38-40 b.

bo'lgan... hovli joyida olov yonib turadigan, ko'p farzandli, o'z mehnati bilan oilasini boqib yurgan, erni yaxshi parvarish qiladigan, molga yaxshi qaraydigan odam begunohdir".¹ "Avesto", bolalar yoshligidayoq "daraxt ko'chati o'tqazish, uy-ro'zg'or qurollari yasash, erga ishlov berish va chorvachilik bilan shug'ullanishga o'rgatilishi shart", deb yozadi.

Umuman mehnat hayotning, turmushning, farovon yasashning asosiy sharti degan fikr "Avesto"da asosiy o'rin tutadi. "Mehnat qilmaydigan odam!-deb da'vat etadi "Avesto",-Sen haqiqatan ham tilanchilar qatorida, yot eshiklarga ta'zim etib, abadul-abad bosh egib turajaksan! Xaqiqatan ham sening yoningdan turli xil ziroatlarni olib o'tadilar, bu noz-nematlarning barchasi mehnat qilayotgan, to'q va farovon yashayotgan xonadonga nasib qiladi. Abadul-abad shunday bo'lajak!"Quyidagi fikrni bevosita hozirgi ma'nodagi turmush tarziga qaratilgan desa bo'ladi: "eb-ichmaydigan insonning toat-ibodat qilishga kuchi bo'lmaydi, er-xotinlik vazifasini ado etishga quvvati etmaydi, bola tug'dira olmaydi. Oziq-ovqat yaxshilanishi bilan xalqning axloq-odobi ham kuchayadi. Ovqat mo'l-ko'l bo'lsa, ilohiy so'zlar yaxshiroq idrok etiladi".⁴

"Avesto"ning fargardlarida insonlarni sabr toqatlilik, chidamli, matonatli bo'lishga, qiyinchiliklarni engishga, so'zining ustidan chiqishga, va'daga vafo qilishga, to'g'ri o'qish, ta'lim - tarbiya berishga undovchi fikrlar bayon etilgan.⁵

"Avesto" ta'limotlariga asoslangan zardo'shtiylik dinidagi ba'zi talablar to'y marosimlarida, urf-odatlarda hozirgacha (masalan, Buxoro, Xorazm, Farg'ona viloyatlarida to'y marosimlarida otashparastlik

1.Qarang: Mahmudov T. "Avesto" haqida.- T.:Sharq,2000.-40 b. 2.Qarang:Uzbek pedagogikasi antologiyasi.-T.:Uqituvchi, 1995.-35 b. Z.Usha joyda -36 bet. 4.Usha joyda.

5.Qarang: Mahmudov T. "Avesto" haqida .-T.:Sharq,2000;Karimov I. Ma'naviyat, falsafa va hayot.-T.:Fan,2001;Jabbarov Iso.Antik madaniyat va ma'naviyat xazinasi.-T.:Uzbekiston, 1999 va b.

ko'rinishlari) saqlanib qolgan. Insoniyat olovni kashf etganidan buyon unga yuksak ixlos bilan qaraydi. Zero, olov issiqlik va yorug'lik manbai sifatida muqaddas hisoblangan. Bugun respublikamiz viloyatlarida bu marosimlar ayniqsa uy-joy, to'y marosimlarida, (masalan, kelinni kuyovning uyiga kuzatib borganda) ko'rishimiz mumkin. Kelin-kuyovning qon-qarindoshlari va yaqinlari mash'ala yoqib yo'lga chiqqanida, erkaklar ularni darvoza oldida gulxan yoqib kutib oladilar. Kelin-kuyovni do'stlari qo'lidan ushlab olov atrofida uch marta aylantirishadi; bu shayton ruhi va zararli kuchlar olovda kuyib nobud bo'ladi, olov issiqligi, yorug'ligi, muqaddas kuch sifatida kelin-kuyovga hamroh bo'lib, ularga kuch-kudrat ato etadi - degan ma'noni anglatar ekan.¹

"Avesto"ga ko'ra odam o'zini oiladan , turmush xo'jalik ishlarini olib borishdan ozod qilmasligi, balki oila qurib, chin insoniy xislatlarini shakllantirib, ularni namoyon etib yashashi darkor. Inson fikri, so'zi va ishi bilan go'zaldir degan fikr "Avesto"ning boshidan oxirigacha asosiy falsafiy-estetik g'oya bo'lib o'tadi.»²

Eroniylar va Iskandar Zulqarnayn qo'shinlari o'lkamizga bostirib kelgan bo'lsalarda, ularning istilochiligi bois O'rta Osiyo xalqlari turmush tarzida, "madaniyatida jiddiy bir siljish ro'y berdi, deb bo'lmaydi".³ Shu bilan birga O'rta Osiyo xalqlari madaniyati bilan ellinizm o'zaro integrasiyaga kirishganini, natijada ma'lum bir ellinistik qarashlar, tasavvurlar, turmush tarzi shakllanganini ham inkor qilib bo'lmaydi, albatta. Masalan, Plutarxning yozishiga ko'ra, Iskandar Zulqarnayn bosib olgan o'lkalardagi xalqlar o'rtasidagi yovvoyi odatlarni taqiqlagan. So'g'dlarga qari otasini o'ldirmaslik, balki ularni boqishni, perslarga o'z onalariga

1. Jabborov I. O'zbek xalqi etnograf iyasi. -T.: O'qituvchi, 1994, -240-2426.; Ashirov A. "Avesto"dan meros marosimlari. -T.: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2001. -15-186.

2. Usha joyda. -41 b.

Z. G'ulomov Ya. Qadimgi madaniyatimiz izlaridan. -T.: Fan, 1960. 21 b.

uylanmaslik, balki ularni izzat-hurmat Qilishni o'rgatgan. Iskan dar Zulqarnayn say'-harakatlari tufayli baqtriyaliklar grek xudolariga sig'inadigan bo'lishdi. "Agar Iskan dar ular (zabt etilgan elatlar-P.X) ni zabt etmaganida, ular yovvoyi holatidan chiqmasdilar.»¹ Bu o'rinda tarixchining Iskan dar Zulqarnayn shaxsini ulug'lashga intilgani ko'zga tashlanadi, ammo ellinizmning ta'sirini inkor qilib bo'lmaydi. Bu eng avvalo Iskan dar Zulqarnayn shaxsi haqida yozilgan rivoyatlar va qahramonliklari haqida bitilgan asarlardir. Ikkinchisi esa o'lkamiz mutafakkirlarining yunon tili orkali Arastu, Aflotun, Gerodot kabi olimlarning ijodidan xabardor bo'lganlaridir. Bu borada eng avvalo Dinavariy (IX), Tabariy, Ba'lamiy, Forobiy, Beruniy, Bayhaqiy, Nizomulmulk, Navoiy kabi mutafakkirlarni tilga olish mumkin. Xullas, Plutarx, Iskandar Osiyo va Evropa xalqlarining "urf - odatlar, yashash tarzi, oila, xulq-atvor kabilarni qorishtirib yubordi" deydi.³ "Grek lashkarlarining 23 mingdan ziyodi o'lkamizda qoldirilgani, bu "aralashuv" tarixda, madaniyatda iz qoldirmasligi mumkin emas edi.»⁴

Sh-davr Turk hoqonligi yuzaga kelishi (545 yil) bilan bog'liq bosqichdir. Turkiy mifologiya, adabiy asarlarni, bitiklarni, "Devonu lugati turk", "Qutadg'u bilig" kabi asarlarni tahlil qilgan. N.Rahmanov Bumin hoqon bo'lganidan keyingi davrda yurt, el, taxt uchun o'zaro kurashlar sodir bo'lganini yozadi. Turkiylar o'rtasidagi ichki hayot qabila, urug'ni qo'llab-quvvatlashga, oqillik bilan elni boshqarishga, kishilar turmushini o'ylash va ularni umumiy manfaatlar atrofida birlashtirishga qurilganini ta'kidlaydi. Kishilar asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shugullanganini aytadi. Xullas, bu davrda shaharlar madaniyati shakllanib, markazlashgan davlat atrofida birlashish goyasi etakchilik qilgan. Shaharlarda savdo-sotiq, hunarmandchilik, hoqon xizmatini o'tash, yon-

1 .Plutarx. Sochineniya.-M.:Xud.lit-ra, 1983.-S.415.

2.Bu haqida kengroq qarang: Sulaymanova F.Sharq va G'arb.T.: Uzbekiston, 1997.-127-188 b.

Z.O'sha joyda.-162 b.

4.Usha joyda.

atroflarda esa dehqonchilik va chorvachilik turmush tarzi bo'lgan.¹

Turklarda, ayniqsa U1 asrlarda chorvachilik turmush tarzining etakchi sohasi bo'lganini A.N.Gumilev ham ta'kidlaydi.² Biroq tarixiy taraqqiyot jarayonida ular ichida murakkab jarayonlar sodir bo'lib, keyinchalik dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlangan. Turk qoqonligiining kuchaya borishi bilan o'troq turmush tarzi kishilarni ko'proq o'ziga torta borgan.³

IU-davr Islom madaniyatining shakllanishi bilan bog'liq bosqichdir.

Islom ijtimoiy va shaxsiy hayotning deyarli barcha jabhalarini o'z tartiblari asosida tashkil qilishga intilgan. U tarqalish jarayonida turli-tuman o'lka va xalqlardagi tarixiy-madaniy tajribalarni o'zlashtirishga, ulardagi o'ziga Moe tomonlarni qo'llab-quvvatlashga, shu tariqa xalq hayotiga, turmush tarziga yaqinlashishga intildi. Islom ayniqsa axloqqa, kishilarning odob, yurish-turish, atrofida bilan muamalasiga, bola tarbiyasiga katta e'tibor beradi. Shuning uchun Muhammad paygambarning xotini Oysha "Rassulloh axloqlari Qur'on edi" degan.⁴

Islomda turmush tarzining yuqorida ko'rsatilgan barcha tomonlariga oid javoblar, misollar yoki hadislar topsa bo'ladi. Misol tariqasida quyidagi hadislarini keltirishimiz mumkin.

"Meni Alloh taolo ikkita hulq-halimlik(ahillik) va hayo bilan yaratgan" (171 6.).

"Qaysi bir xonadonda bir bosh qo'y bo'lsa-bir baraka, ikki bosh bo'lsa, ikki baraka va uch bosh bo'lsa, ko'p barakalar hosil bo'ladi" (167 b.).

nomoz vaqti bo'lganida masjidga chiqib ketardilar"(156 b.).

"Yaxshi siyrat, chiroyli hay'at va har bir ishda iqtisodchilik etmish xislatdan bir bo'lagidir"(137 b.).

1.Qarant:Rahmanov N. Ko'hna bitiktoshlar.-T.:G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi, 1991.-77-100 b.

2.Qarang:Gumilev L.N.Drevnie tyurki.-M.Tovaritshstvo "Klishnikov, Komarov i K.", 1993.-S.63.

Z.Qarang: O'sha joyda.-S.71-74.

4.Qarang:Jo'raev U.Saidjanov Y.Dunyo dinlari tarixi.-T.:Sharq, 1998.-128 b.

"Imorat qilishda ham o'rtacha holni tuting (136 b.).

"Musulmon kishiga tuproqqa ketkizadigan sarfidan (maqtanish uchun quriladigan imoratlar sarfi - P.X.) bo'lak hamma sarflar uchun, albatta arju savob beriladi" (134 b.)

"Kishi mardikorlari bilan birga hovlisida ishlasa, Alloh talo uchun ishlagan kishilardan bittasi hisoblanadi" (132-133 b.).

"Odamlar imoratlarning balandligi bilan bir-birlariga maqtanadigan davr bo'lmaguncha qiyomat qoyim bo'lmaydi" (133 b.).

"Har bir kishi qurilishga ruju qo'ysa gunohga botadi (1326.).

"Molni nohaq erlarga sarflaydigan kishilar-isrof kunandalardir" (1316.).

"Oila, uy, ro'zg'or sarf-xarajatlari rejali bo'lsin, hayotingiz, turmushingiz ravon bo'ladi"(129b.).

"Molni topish va uni ishlata bilish harakatida bo'linglar, chunki mol sahiylar darajasini ko'taradi va baxillarga muhtoj qilmaydi (111 b.).

"Kimki o'z oilasi ichida tinch, tani sog'bo'lib tursa va oldida shu kuniga etarlik taomi bo'lsa, u odamga go'yo butun dunyo berilgan hisoblanadi" (97 b.).

"O'zing eganing, bolalaringa, xotiningga va xizmatchilaringga edirganlaring hammasi sening qilgan sadaqang, hayr-ehsoning hisoblanadi"(40b.).¹

Hadislarda kishilarning bir-biriga bo'lgan munosabati, hurmati, mehr-oqibati tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan bebaho, takrorlanmas fikrlarda o'z aksini topgan. Quyidagi misollarga diqqat qilaylik: "katta yoshdagilar bilan suhbatda bo'linglar, ulamolardan maslahat so'ranglar, fuqarolar bilan

Buxoriy Imom Ismoil . Al-abad al-mufrad (abad durdonalari).-T.: O'zbekiston.1990.Kavs ichida hadislar yozilgan betlar ko'rsatilgan.

aralashib turinglar", "dunyo go'zal va yam-yashildir. Kimki undan uz ulushini tshli ravishda halollik bilan olsa, baraka topadi. Kimki, nafs hohishi bilan dunyoni mukkasidan ketib egallasa, qiyomat kuni do'zaxdan boshqa narsaga erishmaydi", "ilmni o'rganib, so'ng uni boshqalarga o'rgatmaslik, go'yoki molu dunyoni yig'ib, uni sarf qilmay, ko'mib qo'yish bilan baravardir"¹.

Islom dinidagi bu g'oyalar xalqning turmush tarziga, kishilar o'rtasidagi tinchlik, mehr-oqibat, ilmning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Agar Islom dinining aqidaviy dunyoqarash ta'limoti, amaliy talablari, marosim-ma'rakalari tizimini olib qaraydigan bo'lsak, bu din, juda qat'iy e'tiqodni taqozo etadigan din bo'lishi bilan birga, ancha mukammal turmush tarzi tizimini yaratganligi, bu tizim xalqimizning 1200 yildan beri tarixiy taraqqiyotida o'zini oqlagani, oqilona va inson sha'ni - sharafiga munosib bir tizim, me'yorlar va qadriyatlarni berganini ko'ramiz.

Islom odam tug'ilganidan boshlab, unga ism qo'yish, uni soglom, mukammal parvarishlash, ta'lim-tarbiya berish, toza-pokiza, sofdil hayot kechirishi (tahorat talablari, ro'za, Haj, zakot, iymon, kalimai shahodat va h.k.), vafot etgach esa uni munosib dafn etish (janoza, kafan, ta'ziya, tilovat, fotiha, turli yig'inlar o'tkazib eslash, xotirlash, unutmaslik va h.q.), toza-pok va halol oila-nikoh munosabatlarni, inson hayotining boshqa barcha soha va yunalishlarida sog'lom, halol hayot kechirish, insonni o'ziga bo'lgan hurmat izzati, ikromi, dunyoga bo'lgan umidi va faolligi, yuksak irodalilik, hayotni sevish, qadrlash, komil inson bo'lib etishish tizimini yaratdi.

Islom aqida va marosimlari inson turmush tarzini tartib-intizomga solish bilan cheklanmay, unga chuqur insoniy va muqaddas mazmun, ma'no bagishlagan. U o'zini, hayotni, yaratilgan ne'matlarni yuksak qadrlash, isrofgarchilikka, nobudgarchilikka yo'l qo'ymaslik kabi son-sanoqsiz go'zal va -

¹ Qaranpimom Buxoriy. Hadis 1-V jildlar.- T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991-1992; Abu Iso at-Termiziy. Sahihi Termiziy. Tanlangan hadislar. T.:Adolat,1993; axloq-odobga oidhadis namunalari. -T.: Fan, 1990.

yuksak insoniy, oqilona yashashga olib keladigan, samarali turmush tarzi tizimini yaratgan.

Ayniqsa hayotning qadriga etish, uni paymol qilishga, Olloh taolodan boshqa zotning haqqi yo'qligini qonunlashtirib qo'yilishi, haromning barcha turlari - harom aytish, zino qilish, aroq ichish, giyohvandlik qat'iy man etilib, og'ir, hatto oliy jazo belgilanib, qonunlashtirib qo'yilishi turmush tarzini toza-pok, sog'lom bo'lishiga, insonni faol, go'zal va yaratuvchan, rang-barang va to'laqonli hayot kechirishga, yuksak insoniy va oqilona turmush qurishga undagan.

Shu bilan birga yurtimizda tugilib, ilm, fan asoslarini o'rganib, Islomiy qadriyatlar bilan ilmiy qarashlarni o'z qarashlarida, turmush tarzida uyg'unlashtirishga intilgan mutafakkirlar ham borki, ularning ma'naviy-madaniy merosidan ham istagancha fikrlar keltirish mumkin.

"Mol-mulkni, - deb yozadi - az-Zamaxshariy, - isrof qilish kufrona "nematdir", o'ylamasdan boyligini sarflash to'liq tanazzulga olib keladi.»¹ Agar hadislarda mol-mulkka, hashamatga berilmaslik aytilsa, az-Zamaxshariy mol-mulkni behuda isrof qilmaslik, bu tanazzulga olib keladi, deb biladi. Boshqa joyda u kishi mehnat qilib yashashi, yiqqan mol-mulklari unga "ma'lum bir ma'suliyat" yuklashini ta'kidlaydi. Dehqonchilik kishini, xalq turmushini "behad xayr-barakali qiladi".

Forobiy "xalqlar va shahar ahllarida axloq, odob, rasm-rusum, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilish uchun insondan zo'r kuch va qudrat talab rlinadi".³ Bu kuch va qudrat eng avvalo bilimdandir. Bir millat, xalqdan ikkinchi millat, xalqqa tajribalarni tarqatish kishi egallagan nazariy bilimlarga bogliq bo'ladi. Tarbiya vositasida ana shu bilimlar, kasb-hunar va

1. Abul Kosim Maxmud Az-Zamaxshariy. Nozik iboralar.-T.:Kamalak, 1992.-49 b. 2. Qarang: O'sha joyda.-64-65 b.

Z. Qarang: Farobiy Abu Nasr. Fazilat, baxt-saodat va Kamolot haqida. T.: Yozuvchi, 2002.-32 b.

turmush uchun zarur amallar hosil bo'ladi. Shahar hayotini tashkil qilish, aholini zarur ishlarga yo'naltirish, oilasi uchun zarur ishlarga da'vat etish uchun bilimkerak.¹

Xullas, to XX asrgacha bo'lgan mutafakkirlar Islom dinidagi insoniy hayot, turmush, shaxe kamoloti uchun zarur xislatlarni o'zlashtirib, ularni ilmiy, hayotiy ehtiyojlar bilan bog'laydilar. Aynan shu intilishlar tufayli o'lkamizda ilmu-ma'rifatga qiziqish so'nmaydi. To'g'ri, ajdodlarimiz qoldirgan asarlarda turmush tarzi ilmiy kategoriya sifatida tadqiq etilmaydi, uning ichki va tashki belgilari, funksional xususiyatlari, ijtimoiy hayotning turli yo'nalishlari bilan dialektik aloqalari o'rganilmaydi. Biroq ulardagi millat, xalq hayotiga, turmushiga oid fikrlar o'z qimmatini yo'qotmagan, balki ular hozir ham ijtimoiy - ma'naviy ahamiyat kasb etadi.

U-davr O'rta Osiyoning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi, undan keyin sho'rolar mustabid davlatining o'rnatilishi bosqichidir.

XIX asrning ikkinchi yarmida chorizm tomonidan O'rta Osiyoning istilo qilinishi o'zbeklar turmush tarziga ba'zi yangiliklar olib kirdi. Rossiyaning kirib kelishi natijasida xalqimiz etnomadaniyatida, urf-odati va qadriyatlarida o'zgarishlar ro'y berdi. Masalan, yangi yil bayramlari va tug'ilgan kunlarning nishonlanishi, yangi oziq-ovqat mahsulotlari - jo'xori, pomidor, kartoshka, karam, lavlagini, iste'mol kilish kirib keldi. Ayni paytda, Chor mustamlaka tuzumi mohiyatan bizning xalqimizga yot bo'lgan turmush tarzi, qadriyat, me'yor va nishonlarni ham olib kelgan.²

1. Bu haqda kengroq qarang: O'zbek pedagogikasi antologiyasi. T.: O'qituvchi, 1995.-106-109 b. 2. Qarang: Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. - T.: Sharq, 2000.-235-253 b.

"Chorizm O'rta Osiyoni bosib olganidan keyin tub xalqlarning tarixiy-madaniy boyliklarini rad etdi. Ya'ni:

- shariat qoidalari ko'pincha inkor etildi;
- Rossiya hukumati Hajga borishni taqiqladi;
- beva-bechoralar uchun yig'iladigan zakotni bekor qildi;
- vaqf qonunlarini yo'q qildi-yu, yangilarini chiqarmadi;
- xalq axloqini yaxshilash va oilani mustahkamlash xaqida qayg'urmadi...".¹

Sho'rolar mustabid tuzumi ham milliy turmush tarzini, o'zbek xalqining tarixiy-madaniy tajribalarini mensinmaslikka, "yagona sovet xalqi", "sosialistik turmush tarzi" barpo etish shiori ostida ulardan voz kechishga majbur etdi.

UI-davr Mustaqillik yillarida O'zbekona turmush tarzining taraqqiyoti bilan bog'liq bosqichdir. Kelgusi bobda biz ushbu mavzuni alohida tadqiq etamiz. Bu o'rinda biz O'zbekona turmush tarzi etnogenezisiga oid ayrim misollar bilan cheklanamiz. Shunday misollardan biri mahalladir.

Mahalla-hayot ko'zgusi. Tariximiz shu narsani ko'rsatadiki, mahalla o'ziga bildirilgan ijtimoiy ishonchni oqlab, nafaqat bayram kunlarida, balki har doim fuqarolarga mehr-muruvvat ko'rsatib kelmoqda.

Uzbekiston Respublikasi Prezidentining Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risidagi 1992 yil 8 oktyabrdagi farmoni mahalla hayotida katta voqea bo'ldi.²

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 7 fevral 70 -sonli qarori bilan tasdiqlangan "Obod Mahalla yili" dasturi -mahalla aholisining turmush tarzini takomillashtirishga qaratilgandir. Bu dasturda asosiy e'tibor mahalla faoliyatining tashkiliy huquqiy asoslarini

1. Qarang:Egamnazarov A.Siz bilan Dukchi Eshon.- T.:Sharq,1994.-25 b.

takomillashtirish, maxdlalarda tadbirokorlikni kuchaytirish, maishiy xizmat va savdo sohasini rivojlantirish hamda kichik biznes sohasi orqali yangi ish o'rinlari barpo etish, kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy muhofazasini uyushtirish vazifalari belgilangan. Shundan keyin mahallalarda obodonlashtirishga oid ko'rsatkichlarda telefonlashtirish 62,3 foizga, toza ichimlik suvi bilan ta'minlash 84,4 foizga, gazlashtirish 83,6 foizga ko'tarilgan va 2798 ta "Otalar choyxonolari" qurib ishga tushirilgan.¹ "Mahalla" xayriya jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish dasturi "Mahalla" hayriya jamg'armasining mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotida roli tobora oshib boraettanini e'tiborga olib, uning faoliyatini yanada takomillashtirish vazifasini ilgari surdi. Shunisi diqqatga sazovorki, Uzbekistan Respublikasi vazirliklari, idoralari, korxonalari, xo'jaliklari va tashkilotlariga "Mahalla" xayriya jamgarmasi, hamda uning quyi bo'ginlariga muntazam ravishda moddiy, moliyaviy va amaliy yordam ko'rsatish topshirildi. Dastur doirasida 1 milliard 2000 million so'mlik xayriya yordami ko'rsatildi. Ikki yoshgacha bo'lgan bola tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan 400

mingdan ziyod ayolga davlat tomonidan nafaqa puli tayinlandi. Shuningdek, 180 mingta kam ta'minlangan oilalarga qarayib 4 milliard so'm miqdorida moddiy ko'mak berildi. Mahallani obodonlashtirish va ko'kalamlashtirish ishlarini amalga oshirish uchun 1 milliard 745 million so'm miqdorida mablag sarflanib, 310 mahalla guzari bunyod qilindi.²

1. Jalilov Sh. Mahalla yangilash davrida. - T.: Mehnat, 1995. - 13 b.

Natijada mahalla an'anaviy turmush tarzini tiklash zamonaviy hayot kechirish usullariga xalqimiz, millatimiz vakillarining uyushgan, markazlashgan tarzda o'ta borishini ta'minlashda eng samarali va ta'sirchan rol o'ynamoqda. Buni O'zbekiston oqsoqollar Kengashi va "Mahalla" jamgarmasi raisi A.G. Gadoyboev bilan 2023 yildagi suhbat paytida olingan malumotlarda ham ko'rishimiz mumkin.(58 - betidagi ilovada ko'rishimiz mumkin).

1.0 bod mahalla yili dasturining bajarilishi to'g'risida yakuniy ma'lumot.-
T.:2023.-3 b.

2.Usha

joyda.

Ma'lumotlar ko'rsatadiki, mahallalar o'zining etnomadaniy an'alarini davom ettirmoqdalar. Ularga:

- mahallardagi oilalarda tinch-totuvlikni, ahillikni ta'minlash; -oilalarning farovon va zamonaviy turmush kechirishiga yordam berish; -o'zini-o'zi boshqarish orqali yon-atrofda ijtimoiy-madaniy, ma'naviy sof muhitni shakllantirish;

- tarixiy an'analarga oid tarbiyani qayta tiklash;

- diniy-axloqiy, Islomiy tajribalarga tayanib shaxs, oila, jamiyat manfaatlariga, kamolotiga to'g'ri keluvchi an'analarni rivojlantirish;

- Vatanni, el-yurt qadriyatlarini, mehnatni, adolatni sevish, boshqalar huquqlarini hurmat qilish;

- kishilarda sog'lom turmush tarzi, ilm, ma'rifatga intilib yashash tarzini shakllantirish kabi l ar kiradi.

Mahalla xalqimizning asrlar davomidagi etnomadaniy, tarixiy va amaliy tajribasi asosida shakllangan. Barcha mamlakatlar va davlatlar bo'yicha ko'p yillar davomida yig'ib borilgan statistik va faktik malumotlar shuni ko'rsatadiki, jamiyatdagi jinoiy, g'ayriqonuniy va aksiljamoa ishlar avvalambor ayrim uylar, oilalar, kishilar yashash joyida rejalashtirar, "pishitilar" ekan. Buning sababi - ularning o'z holiga bo'larchilikka tashlab qo'yilganidir. Bu jihatdan O'zbekiston, mahallalari tufayli, boshqa davlatlar va millatlardan keskin ajralib turadi. Bu erda mahallalarda "tayyorlanadigan" va amalga oshiriladigan jinoyatlarning oldini olish imkoniyati baland va samaralidir. Mahalla fuqarolarining shaxsiy hayotiga aralashmaydi, demokratiya, fuqarolarning haq-huquklarini hurmat qiladi. "O'zi badavlat yashab turgan paytda yonidagi qo'shnisi qiyinchilikka duchor bo'lib, qiynalib kun kechirayotganini ko'rgach, insofi, vijdoni bor har qaysi inson xayru ehson qilish bilan cheklanib qolmaydi. Yordamga muhtoj bo'lganlarga baholi qudrat ko'mak berib, ularning ko'nglini ko'tarish bilan savobli ishlarga qo'l uradi, bu ishni o'zining insoniy burchi deb biladi. Bu

bizning asl milliy qadriyatlarimizga ham Moe keladi". Ayni vaqtda mahalla faollari va jamoatchilik asosida mahalladagi har bir oilaning va har bir fuqaroning "turmush tarzi"ni sezib -bilib turadi, noxush voqealarning oldini oladi. Shuning uchun I.A.Karimov, "Mahalla hozir xalq ishonchini qozongan adolat maskani hamda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmi bo'lib qoldi. U jamiyatda islohotlarni amalga oshirishning ishonchli tayanchi va ta'sirchan vositasiga aylanishi darkor", deb ko'rsatadi.

Mustaqil O'zbekistonda mahalalar O'zbekona turmush tarzidagi etnomadaniy an'alarini davom ettirmoqda. Shu bilan birga mahalalarning funktsiyalari asosan ijtimoiy-tarbiyaviy bo'lib qolganligini, ularning tashkiliy faoliyatiga etarli e'tibor berilmayotganini unutib bo'lmaydi. Masalan, mahalalar aholining ijtimoiy-maishiy xizmatga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlariga ega bo'lsalar-da, ular turmush tarzining shakllanishiga, ularning yuqoridagi ehtiyojlarini qondirishga ulushi hali etarli darajada yuqori emas. Uzbekiston da 85 mingdan ziyod mahalalar mavjud bo'lsa-da, ular qoshidagi aholiga maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarining soni atigi 2,78 mingni tashkil etadi, xolos. Tashkil etilgan "korxona"larning infrastrukturam esa turmush tarzini rivojlantirishga qaratilmagan. Ular asosan ayrim shaxslarning iqtisodiy ehtiyojlari, qiziqishlari natijasida yuzaga kelgan. Yuqoridagi 2,78 ming "korxona"dan 62% nonvoyxonalar, 35,5% savdo-sotiq do'konlari, atigi 1,5 % maishiy xizmat ko'rsatishni (asosan, etiksozlik) punktlaridir.³ Demak, mahallalardagi ijtimoiy, tashkiliy, maishiy xizmat ko'rsatishni imkoniyatlaridan foydalanish davr talablari darajasida

1.Karimov I.A.Konstitutsiya -yurtimizda yangi hayot,yangi jamiyat barpo etishning huquqiy poydevori // tinchlik va xavfeizligimiz uz kuch - qudratimizga, hamjihatligimizga va qatiy irodamizga bogliq.- T.12.T.: O'zbekiston, 2004.-1116.

2.Karimov I.A.Uzbekistan XXI asr bo'sagasida : xavfeizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot xususiyatlari //O'zbekiston buyuk kelajak sari.- T.:O'zbekiston, 1998 - 304-305 b.

Z.Obod mahalla yili dasturining bajarilishi hakidagi 2003 yilgi yakuniy yakuniy ma'lumotlardan kelib chiqib hisob-kitob qilingan.

deya olmaymiz. Ularni moddiy iqtisodiy ta'minlashni yaxshilash, bankda o'z rakam hisobini ochishga ruxsat berish chora tadbirlari haqida o'ylab ko'rish kerak.

Demak, O'zbekona turmush tarzining etnogegezi va taraqqiyoti ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonlarida, ijtimoiy munosabatlar ta'sirida, innovasion o'zgarishlar ro'y bergan va transformasiyaga uchragan.

Ma'lumki, har qanday turmush tarzi, inson hayoti va turmushi - bu tarixan tarkib topgan ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy omillar bilan belgilanadigan kundalik hayot ukladi bo'lib, shu asosda rivojlanadigan munosabatlar, rasm-rusumlar va urf-odatlar, etnomadaniy belgilardan iborat bo'ladi.

Turmush tarzi etnogenezisiga iqtisodiy, siyosiy, yuridik, axloqiy-ma'naviy munosabatlar, kishilarning ijtimoiy g'oyalari, qarashlari, ularga taalluqli siyosiy partiyalar, madaniyat muassasalarining faoliyati, kishilarning ijtimoiy ruhiyati kabi jarayonlar katta ta'sir ko'rsatadi. Etnomadaniy taraqqiyotga ishlab chiqarish jarayonlarining, iqtisodiy rivojlanishning ijobiy ta'siri har doim muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Uzbek xalqiga bunyodkorlik, yaratish xos xislatdir. "O'zbekning fe'l-atvori barchaga ayon. U erni, tabiatni sevadi. Do'ppisida suv tashib bo'lsa ham daraxt ko'kartiradi. Uzbek tom ma'noda bunyodkordir".¹

Ushbu bunyodkorlik, ijodiy yaratuvchanlik xislatiga ega turmush tarzi sohibi - o'zbeklar nafaqat tarix sinovlaridan, fojialaridan omon-eson chiqdi, shu bilan birga o'zbeklar ana shu an'anaviy turmush tarzi va bunyodkorlik ruhi bilan zamonaviy, rivojlangan jamiyatlar, davlatlar katoriga kirish uchun etarli aql-zakovatga, iqtidorga, o'ziga munosib sha'nu-Shavkat, obro'ga ega millat sifatida bugun qaytadan tarixiy taraqqiyot sahnasiga chiqmoqda. Bu o'rinda I.A.Karimov juda chuqur, metodologik goyani

surib, quyidagilarni yozadi: "O'zbek xalqining iligi to'q, baquvvat demoqchiman. Yana tilimizda "tagli-tugli", "palagi toza" degan iboralar ham

Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.6.-T.: O'zbekiston, 1998. -145 b.

bor. Bu bir joyda muhim yashagan, o'z turmush tarziga, axloq-odob mezonlariga, aqidalari va tafakkur tarziga ega bo'lgan xonadonlarga nisbatan aytiladi".¹

O'zbekona turmush tarzining shakllanishida, albatta, yurtimizning iqlimi, tabiiy sharoiti malum rol o'ynagan. O'rta Osiyo iqlimining qulayligi ham ishlab chiqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatib, xalq turmush tarzi rivoji uchun qulay imkoniyatlar yaratgan. O'rta Osiyoga xos tabiiy, geografik va xo'jalik sharoitlari sugorma dehqonchilik madaniyatining ustunligi, erkin dexqonlar, hunarmandlar,

bog'dorchi, gallachi, chorvachilar mehnatining ustunroq mavqeda bo'lishini ta'minlagan.

Uzbekona turmush tarzining shakllanishida muhim o'rin tutgan omil-bu o'troq hayot va shahar madaniyatidir. O'troq shahar madaniyatining Uzbekistondagi eng qadimgi davrlari ya.G'ulomov, B.I.Rempel, G.A.Pugachenkova, L.Yu.Mankovskaya, D.A.Faxriddinova, S.M.Mahkamova, A.A.Asanov, A.A.Hakimov, N.B.Nemsova, M.K.Rahimov, I.Ax.rarov, D.Mirzahmedov, L.I.Albaum va boshqa olimlar tomonidan chuqur va maxsus tadqiq etilgan. Utroq shahar madaniyati insoniyat taraqqiyotining mo'jizalaridan biri - yozuvni ixtiro qilishga yo'l ochdi. Xorazmda, Baktriyada va Parfiyonada erli xalqlarning qadimgi yozuvlari vujudga keldi. Yozuvlarning vujudga kelishi tufayli birinchidan, hayot tajribalari va bilimlarni avloddan-avlodga o'tkazish imkoniyati kengaydi, ikkinchidan, yozuv tufayli ma'naviyatni rivojlantirish va targib qilishda salmoqli ishlar

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.6.-T.: O'zbekiston, 1998. -145 b.

2.Qarang: Xudojestvennaya kultura Sredney Azii IX-XIII vekov -T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1983; *Albaum L.I.*, Jivopis Afrasiyaba.- T.: Fan, 1975; *Lugachenkova G.A.*Xalchayan.- T.: Fan, 1966; Pugachenkova G.A.. Iz istorii antichnoy kulturi Uzbekistana.- T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va sa'at nashriyoti. 1973; Pugachenkova ga. Iskustva Baktrii epoxi Kushan. -M.[Iskusstvo, \91%Nasriddinov K. Uzbek dafn va ta'ziya ma'rosimlari.- T.: Xalq merosi. 1996;Hand book for the collection of traditional music and musical instruments /bournon G.-Paris: UNESCO, 2000. 152p.

boshlanib ketdi, uchinchidan, yozuvning vujudga kelishi bilan qo'lyozma , kitob yaratish chop etish kabi ishlar avj oldi.

Turmush tarzining etnomadaniy genezisi da oila muhim o'rin tutadi. Oila jamiyatning tarkibiy qismi hisoblanib, uning mustahkamlanishi va takomillashishi turmush tarziga bevosita ta'sir etadi. Uzbek urf-odatlarida oila-nikoh muqaddas hisoblangan. Yoshlar oila qurar ekanlar, avvalo, ular ota-onasi oldidagi mukaddas burchini, vazifalarini anglab etishiga e'tiborni qaratadi. Yoshlarning oila qurishida, urf-odatlarga ko'ra, ikki yoshni ota-onalari yaxshilab o'rganishgan, o'zlariga lozim topgan xonadonlar bilan quda-anda bo'lishgan. To'y ota-ona roziligi bilan bo'lgan va bu omil oilaning oqilona hamda mustahkam shakllanishiga xizmat qilgan.

O'zbeklar orasida farzand katta baxt hisoblangan va hisoblanadi. "Bolali uy bozor" degan maqol bekorga aytilmagan. Qadimgi davrlarda farzandlarning dunyoga kelishini nishonlab yosh bolalarga shirinliklar va bolasining baxtli va o'zidan ko'payishini tilab non ulashilgan. Odatlarga ko'ra, shu farzandga atab mevali daraxt o'tqazishtan.

O'zbek xalqining an'anaviy turmush tarzi, uning etnomadaniy genezisi va taraqqiyoti quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. O'zbek xalqining turmush tarzi, o'zining etnomadaniy shakllanishiga ko'ra o'troq dehqonchilik, bogdorchilik, chorvachilik, hunarmandchilik hamda turli madaniyatlarning o'zaro ta'siri asosida qaror topgan. Shu jihatdan unda sof o'troq, shahar va yirik qishloq madaniyati vakillari sanalmish tojik-eroniylar, hindlar, Vizantiya, Yunon xalqlari hamda o'tmishda sof ko'chmanchi xalqlar hisoblanmish Arab, qozoq, kirgiz, turkman, mo'g'ul xalqlari, shu jumladan, XIX asr P-yarmidan boshlab esa Ovro'po, birinchi navbatda rus xalqi turmush tarzi ta'siri namoyon bo'la boshlagan.

Demak, o'zbeklarning etnomadaniy turmush tarzi boshqa xalqlar hayoti, madaniyati, turmush tarzi bilan yaqin aloqada yoki bevosita birga yashash omuxtaviy (sintez), tadrijiy qo'shilib ketish jarayonida shakllangan bo'lib, u

boshqa xalqlar turmush tarzlarining ko'pgina tomonlarini ham o'zida aks ettiradi.

2. Uzbeklar turmush tarzidagi etnomadaniy o'ziga xosliklardan biri-bu sharqona-O'zbekona turmush tarzi qoida me'yorlarining shu xalqning qon-qorindoshlari bo'lgan qozoq, qirg'iz, turkman, tojik, uyg'ur, dunganlar turmush tarzlariga yaqinligidir.

3. O'zbeklar turmush tarzining yana bir xarakterli belgisi ularning o'z qavm-qarindoshlari bo'lgan qozoq, kirgiz, turkman, tojiklarga nisbatan muomala madaniyatida sermulozamat, rang-barang oziqlanish, dam olish madaniyatining etakchi, hatto belgilovchi rol o'ynashida aks etadi.

4. O'zbekona turmush tarzining etnomadaniy xususiyatlari she'riyat, ba'diiy-falsafiy mushohadaga moyillikda, O'zbekona do'ppi va atlas ko'ylak kiyish, Farg'ona to'nlari, Buxoro choponlari, Xorazm chakmonlari, kurashning "Fargonacha" va "Buxorocha" usullari, bog'va xiyobonlar, maydonlar, me'morchilik san'ati, naqsh, gips, pichoqchilik, askiya, qiziqchilik san'ati, dehqonchilik va hunarmandchilikdagi mirishkorlik, xotin-qizlarni,

rafiqasini ibo-hayo bilan "siz"lash, kattaga hurmat, ular xizmatiga tayyor turish kabilarda ham aks etadi.

Tahlil va xulosalarimiz o'zbek xalqi milliy turmush tarzi genezisi, me'yor va talablari, xususiyatlari va qadriyatlari o'zining ko'p ming yillik tarixiy asoslariga va ildizlariga ega, ular o'ta yashovchan, hayotga yaroqli ekanini ko'rsatadi. Shu ma'noda I.A.Karimovning o'zbek xalqining "iligi to'q", "palagi toza" deb bergan ta'rifi ob'ektiv, xolis va o'zida tarixiy haqiqatni aks ettirishini ta'kidlash zarur. Darxaqiqat, millat turmush tarzi va an'analari, E.Dyurkegeym aytganidek, har bir "xalqning bo'yinsunmas ruhi" bo'lib, uning yangi hayot shart-sharoitlari, talab va me'yorlariga tez, oson, ziyon-zahmat ko'rmay o'ta olish qobiliyatining shakllanishi va taraqqiy etishi uchun zamin yaratadi.

2.2. Milliy turmush tarzining mustaqillik arafasidagi ahvoli

XX asrning 70-90-yillarda avj olgan komfirka mafkurasining va ma'muriy buyruqbozlik boshqarishining negizi XIX asrning ikkinchi yarmida Chor Rossiyasining O'rta Osiyoni istilo qilishiga borib taqaladi. O'sha davrda chop etilgan adabiyotlarda Chor Rossiyasining O'rta Osiyoga yurishidan asosiy maqsadi uni Rossiya sanoati uchun zarur bo'lgan xom ashyo, eng avvalo paxta etishtirib beradigan o'lkaga aylantirish, milliy boyliklarni talash ekani ta'kidlangan. 1921 yildayoq G.I.Safarov, Chor Rossiyasining maqsadi o'lka xalqlarining milliy turmush tarzini o'zgartirish, ularning moddiy va ma'naviy boyliklarini talashdan iborat edi deb ko'rsatgan. "Rus sarmoyasining Turkistonga kirib kelishi, ya'ni Rossiya imperiyasining ramzi bo'lgan ikki boshli burgutning tovuti Turkiston xalqi turmushini ostin-ustin qilib yubordi" . Shunga yaqin fikrlarni P.G.Galuzo, A.V.Validiy, M.N. Pokrovskiy l ar ham bildirganlar.³

Shu bilan birga Rossiya kapitalining O'rta Osiyoga kirib kelishi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga ta'sir etganini, mayda hunarmandchilikdan yirik sanoat ishlab chiqarishiga o'tilganini, progressiv rus madaniyati bilan O'rta Osiyo xalqlari madaniyati o'rtasida tajriba almashish, integrasion jarayonlar vujudga kelganini ham inkor qilib bo'lmaydi. Aynan ana shu davrlarda rus xalqi va uning madaniyati orqali Turkiston xalqlari zamonaviy jahon tsevilizasiyasi namunalaridan bahramand bo'la boshladilar, ilm, fan, maorif, adabiyot va san'atda yangi

1.Qarang:Terentev M.A. O'rta Osiyoning bosib olinishi tarixi.-Spb., 1906; Masalskiy V.M. Xlopkovodstvo: Oroshenie gosudarstvennix zemel i chastnaya predpriimchivost.-Spb,1908 va b.

2.Safarov G.I. Kolonialnaya revolyusiya (opit Turkistana).-M.: 1921.-S.7. Z.Qarang:Galuzo P.G.Turkistan-koloniya.Ocherk istorii Turkistana ot zavoevaniya russkimi do revolyusii 1917 goda.-M.: 1929; Validiy A.Z. Rus mustamlaka siyosatining mohiyati va maqsadi.-Vena, 1929; Pokrovskiy M.N. K voprosu ob istoricheskoy razvitiy Rossii.-Leningrad, 1925 va b.

yo'nalishlar, ijodiy izlanishlar paydo bo'ldi.

20-yillarning oxiriga kelib mamlakatda stalincha ma'muriy boshqarish tizimi o'rnatildi. Bolsheviklar 1917 yili hokimiyat tepasiga kelganida zavod-fabrikalarni ishchilarga, erlarni dehqonlarga, mustamlaka o'lkalarga esa "milliy suverenitet" va'da qilgan edilar. Ulkamiz xalqlari, uning ziyolilari, ma'rifatparvar kuchlari ushbu va'dalarga ishongan, unga umid bog'lab, Turkistonda mustaqil davlat tuzish g'oyasini ishlab chiqqan.¹ Ushbu g'oya negizida, tarixiy-madaniy tajribalarga tayangan holda, jahon andozalariga muvofiq keladigan hur milliy davlat, farovon va taraqqiy etgan jamiyat qurish kontsepsiyasi yotgan. Ammo stalincha ma'muriy boshqarish Chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosatini davom ettirish orqali "kapitalizm boskichini bosib o'tmagan o'lkalarda ham sosializm qurish mumkin" (Lenin) degan goyani isbotlash uchun Turkistonda "darhol va shu onda" (Lenin) sosializm qurishga kirishadi. Stalin buni "ayovsiz sinfiy kurash olib borish"² yo'li bilan ro'yobga chiqara boshladi. Natijada asrlar davomida yashab kelagan dehqon xo'jaligi eski turmush tarzining ko'rinishi sifatida qoralanadi, kolxoz va sovxozlar tuzish shiori ostida unga karshi ommaviy kurash uyushtiriladi. 1930 yillar boshiga kelib Uzbekistonda 40 mingdan ziyod dehqon xo'jaligi "quloq" qilinib, ular dan 31,7 mingga qatogon qurboni buli/ zo'rovonlik bilan amalga oshirilgan "kollektivlashtirish" (1925-1929), "erni, suvni musodara qilish" (1925) bir tomondan, ersiz kambag'al dehqonlarning bar qismini er bilan ta'minlagan, ular turmushiga, hayotiga sezilarli ijobiy ta'sir o'tkazgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, asrlar davomida o'zbek qishloqlarida shakllangan milliy turmush tarzining buzilishini boshlab berdi. "Shuning uchun kommunistik partiyaning er-Su v islohotlarini

1.Bu haqda qarang:O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida.K.2-T.:Sharq,2000.-33-40 b. 2.Qarang:Stalin I.Leninizm masalalari.-T.:O'zdavnashr, 1958,-296-297 b. Z.Qaranpuzbekiston sovet mustamlakachiligi davrida.K.2.-T.:Sharq,2000.-322 b.

o'tkazishdan maqsadi kambag'al dehqon xo'jaliklarini er bilan ta'minlab, uning iqtisodiy ahvolini yaxshilash emas edi. Uning asosiy maqsadi, avvalo qishloqda "sosialistik turmush tarzining moddiy asosi bo'lgan jamoa bo'lib xo'jalik yuritish shakllarini rivojlantirishdan iborat edi"¹.

Respublikamizda industrlashtirish, "madaniy inqilob", ikkinchi jahon urushidan keyingi rivojlanish, qayta qurish yillarida qo'lga kiritilgan yutuqlarni inkor qilib bo'lmaydi, albatta. Masalan, O'zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarish 1940 yili 0,5 mlr.kv. soatdan 1986 yili 52,2 mlrd.kv. soatga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqish 1940 yilga nisbatan 1986 yili 26 marta, istemol mollarini ishlab chiqarish 1970 (100 %) ga nisbatan 1986 yili 308 % ga, ipak ishlab chiqarish 1940 yilda 693 tonnadan 1986 yilda 2228 tonnaga, gazlamalar ishlab chiqish 1970 yilda 247 mln.kv.m.dan 1986 yili 639 mln.kv.m.ga, trikotaj kiyim kechaklari ishlab chiqarish 1940 yili 3,5 mln. donadan 1986 yili 76,5 mln, donaga, junli kiyimlar 1940 yili 3,8 mln. juftdan 1986 yili 36,3 mln. juftga, jami mahsulot ishlab chiqarish esa 1940 yilga nisbatan 1986 yili 4,5 marta oshgan.

Ishlab chiqarishning o'sishi aholi kundalik ehtiyojlarining, kiyim-kechakka, xizmatga bo'lgan talablarining ham o'sishiga olib kelgan. Masalan, respublika donchilari 1940 yili davlatga 238 ming tonnadan don sotgan bo'lsalar, bu ko'rsatkich 1986 yili 1 mln.007 ming tonnaga, meva sabzovotlar 311 ming tonnadan 2 mln.506 ming tonnaga, yirik shoxli qoramollar 1,7 mln.dan 4,1 mln.ga, go'sht ishlab chiqarish 82 ming tonnadan 386 ming tonnaga etgan.³

1.O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida.K.2.-T.:Sharq,2000.-355 b.

2.Karang: Norodnoe xozaystvo SSSR za 70 let.-M: Finansi i statistika, 1987.- S.93,132,162,189,190,191,214 va b.

Z.Qarang: O'sha joyda.,227,233,254,259 b.

Transport, maishiy-madaniy xizmat, tibbiyot, aholi daromadlari kabi omillar ham turmush tarziga ta'sir etadi. Usha yil lari bu sohalarida ham siljishlar sodir bo'lganini kuzatamiz. Masalan, O'zbekistonda 1940 yili 106 km. tramvay yo'li bo'lib, u 216,5 mln. kishiga xizmat qilgan bo'lsa, 1986 yilga kelib ular 263 km. va 157,2 mln. kishiga etgan. Respublikada 1940 yili 752 pochta, telegraf va telefon stantsiyalari xizmat qilgan, 1986 yilga kelib ular soni 4158 ni tashkil etgan. Oilalardagi televizor va radiolar soni 1960 yilda 64 ming, 1986 yili esa 3,642 mingdan ziyod edi.¹ ZZ/unday o'zgarishlarni biz ijtimoiy hayotning qolgan sohalarida ham kuzatamiz.

Turmush tarzi va uning darajasiga sosial-demografik, mehnat rezervlari, migrasiya, tasodifiy xrlatlar (masalan, 1966 yili er qimirlashi va b.) xalqaro aloqalar kabi omillar ham ta'sir etadi. Masalan, O'zbekistonda 1913 yilgi 4,3 mln.dan ziyod kishi yashagan, 1940 yili ular 6,5 mln.ga 1987 yilga kelib esa 18 mln.ga etadi. Aholi soni shaharlarda 1940 yilga nisbatan deyarli 6, qishloqlarda esa 3,6 baravar ko'payadi. Bu hol shahar turmush tarzini alohida bir ijtimoiy hodisa sifatida shakllanishiga olib keladi va shahar bilan qishloq muammosini keltirib chikardi.

O'rta Osiyoga migrasiya Ahmoniylar va Iskandar Zulkarnayn davridan tortib, to XIX asrgacha to'xtamagan. Bu tabiiy hol. Biroq sho'rolar davrida migrasiya mustamlakachilik siyosatiga aylangan edi.

Chor Rossiyasi davridayoq imperiya o'ziga yoqmagan kishilarni Turkistonga surgun qilgan yoki o'lka tabiiy geografiyasini, boyliklarini o'rganish maksadida turli ekspedisiyalar uyushtirgan. 1926 yilgi aholi ro'yxatidayoq Uzbekistonda 5,2 mln.dan ziyod kishi yashagan, undag 437,6 ming kishi "kelgindi" bo'lgan. Ularning 63,2 % shaharlarda 36,8 % qishloq joylarida yashagan.³

1..Qarang: Norodnoe xozaystvo SSSR za 70 let.-M.: Finansi i statistika, 1987.-S.371,372 vab.b.

2.Qarang:O'sha joyda.-S.374,375.

Z.Qarang: Vsesoyuznaya perepis naseleniya 1926 goda.t.49.Uzbekskaya SSR.-M.:Izd-vo Planxozgiz, 1930.-S.48-49.

Keyingi yillarda "kelgindi" aholi soni va tarkibi ham osha boshladi. 20 - yillarda Qarshi, Kagon, Termiz, Xo'jayli, Chimbay shaharlarining yuzaga kelishi, ayniqsa ikkinchi jahon urushi yillarida 100 dan ziyod yirik zavod va fabrikalarning Uzbekistonga evakuasiya qilinishi migrasiya oqimini kuchaytirdi. Shu davrda respublikamizga bir millionga yaqin kishi ko'chib kelgan, ularning 70% ziyodi Rossiyadan bo'lgan. 1961-1975 yillarda esa birgina Rossiyadan 1.018.1 ming, Ukrainadan 115.6 ming, Pribaltika respublikalaridan 8,5 ming, O'rta Osiyo respublikalaridan 301,9 ming, Qozog'istondan 192,8 ming, Belorussiyadan 18,6 ming, Moldoviyadan 10,3 ming, jami 1 mln.798,3 ming kishi ko'chib kelgan.¹ Bu omillar milliy turmush tarziga, uning qadriyatlari va an'alariga ta'sir etmay qolmadi. Ular quyidagilarda yaqqol aks etadi:

- ichki migrasiyaning kuchayishida;
- mutaxassisliklar va mehnat rezervlarining o'sishida; -
- sosial-demografik bayналminallashuvda;
- ijtimoiy-madaniy qadriyatlar, tushunchalar va qarashlarning o'zgarishida;
- tillarga hamda ijtimoiy (aqliy va jismoniy) mehnatga munosabatlarda.

Agar 80-yillargacha respublikamizda tashqi migrasiya etakchilik qilgan bo'lsa, 90 yillarga kelib ichki migrasiya, kishilarning qishloqdan shaharga qarab siljishi kuzatiladi. Demak, shahar turmush tarzi o'zining urbanizatsiyalashgani, madaniy, maishiy imkoniyatlarning kengligi bilan qishloq aholisini o'ziga jalb qilgan. To'g'ri, o'lkamizda maxsus etnososial tadqiqatlar o'tkazgan akademik yu.V. Brom 1 ey o'zbeklar orasida qishloqdan shaharga ko'chish kam ekanligini kuzatgan,² ammo 1990 yilga kelib u, L.P.

1. Qarang:Maksakova L.P. Migrasiya naseleniya Respublika O'zbekistan,- T.:2000.-S. 19-25.

2.Karang:Sosialno-kulturniy oblik sovetkix Nasiy (Po materialami etnososiologicheskix issledovaniy).-M.: Nauka, 1986.-S.25-26.

Maksakova ma'lumotlariga ko'ra, deyarli 461,8 ming kishiga etgan.¹ Agar norasmiy ma'lumotlarni hisobga olsak, yuqoridagi bu uch-turt barovar oshib ketishi turgan ran.

Qishloqdan shaharga ko'chish: a) bilim olish, kasb-hunar orttirish; b) ishga joylashish; v) yashash joyini o'zgartirish kabi ko'pincha shaxsiy xarakterga ega bo'lgan muammolarni hal etish bilan bog'liqdir. Biroq kuzatishlardan ma'lumki, qishloq turmush tarziga o'rgangan kishining shahar turmush tarziga, uning xatti-harakatlarini, yashash doirasini chegaralab qo'yishiga ko'nikishi qiyin kechadi.² Natijada u o'z qishlog'iga qaytadi yoki yangi shart-sharoitlarga, shahar madaniyati talablariga itoat etishga majbur bo'ladi. Shu bilan birga, shaharda qolgan qishloq kishisi yoshligida shakllangan qarashlardan, urf-odatlar va yashash tarzidan batamom voz kechmaydi. U qishloq turmush tarzini tez-tez eslab, goho uni ulug'lab turadi, ba'zida esa o'sgan qishlog'iga qaytishni ham orzu qiladi. Ming afsuski, u qishlog'iga borgach, shahar hayotini qo'msaydi va iloji boricha o'z "kvartirasi"ga qaytishga intiladi. Xullas, sho'rolar davrida avj olgan migrasiya natijasida qishloqlardan shaharlarga ko'chib kelgan kishilar turmush tarzida ushbu qarama-qarshilik chuqur ildiz otgan.

Migrasiya mutaxassisliklarning rang-baranglashuviga, yangi mehnat rezervlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Masalan, 1940-1986 yillar ichida qishloq xo'jaligida 200 ga yaqin turli mutaxassislar paydo bo'lgan. Tashqi migrasiya asosan shaharlarga yo'naltirilgan, ammo shahar yaratgan texnika vositalari, boshqarish usullari, madaniy, maishiy va tibbiyot xizmatlari, ta'lim-tarbiya vositalari qishloq hayotida ham yangi

1.Qarang:Maksakova L.P. Migrasiya naseleniya Uzbekistan.-T.:2000.-S.39.

2,Qarang:Sosialnaya situatsiya kak instrument analiza obraza jizni gorodskogo naseleniya.M.: 1984.-S.-209-222; Problemi sosialnogo razvitiya krupnix gorodov.-L.:1992.-S.127-142.

shakllanishini keltirib chikargan. Ammo qishloq turmush tarzi ijtimoiy taraqqiyot talablariga javob bermagan.¹

Migrasiya sosial-demografiyaga, aralash oilalarning paydo bo'lishiga ta'sir o'tkazgan. Uzbekistonda 1959 yili barcha oilalar soniga nisbatan aralash oila 8,2 %ni, 1979 yilda esa 10,5 %ni tashkil etgan. Ushbu oilalar ichida u rta Osiyo xalqlari vakillari bilan oila qurish etakchilik qilgan. Bu eng avvalo O'rta Osiyo xalqlarining tarixiy-madaniy negizi yaqinligi bilan izohlanadi. Demak, aralash oila qurishda tarixiy-madaniy tajribalarning yaqinligi muhim rol o'ynagan. Ammo sho'rolar davrida O'rta Osiyo xalqlari bilan slavyan, eng avvalo rus xalqi vakillari o'rtasidagi nikohning sun'iy tarzda "avj oldirilganini", bu "sovet xalqlari o'rtasida rivojlanib borayotgan Internasional do'stlik ramzi" deb ulug'langanligini ham unuta olmaymiz. Ushbu fikr yagona "sosialistik millat", "sosialistik turmush tarzi"ni yaratishga qaratilgan kontsepsiyani "umummilliy iftixor" darajasiga ko'tarishga xizmat qilgan.

Millatlar o'rtasidagi ixtiyoriy nikoh, aralash oilalarning paydo bo'lishi millatlarning ijtimoiy-madaniy, kishilarning psixofiziologik va biologik taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga egadir. Millatlar, elatlar va xalrlarning tarixiy-madaniy rivojlanish bosqichlari ular o'rtasidagi integrasiyaning yuqori bosqichga ko'tarilgan davrlariga to'g'ri keladi. Aynan ushbu davrlarda millat, xalqning kelgusi hayotini belgilab bergan o'ziga xos, aslida esa madaniy integrasiya mahsuli bo'lgan turmush tarzi shakllangan.

Kqaranpto'xtaxojaeva M.O'tmish toliqtirgan ayollar.-T.:2001.-S.224.

2.Qarang:Kozlova N.I.Nasionalnosti SSSR.-M.:Finansi i statistika, 1982.-S.72-79;

Z.Qarang: Mullyadjanov I. Naselenie uzbekskoy SSR.-T..'Uzbekistan, 1989.-S.125-126.

Migrasiya ijtimoiy-madaniy qadriyatlarga, tillarga, aqliy va jismoniy mehnat bo'lgan munosabatlarga ham ta'sir qilmay qolmaydi. Sho'rolar tuzumi davrida Respublikamizda umumiy, o'rta maxsus va oliy ta'limning yangi tizimlari yuzaga keldi. Bu o'rinda progressiv qarashli rus mutaxasislari, olimlari, yozuvchilari va san'atkorlarining ta'siri bo'lganini unutmamiz. Mamlakatda stalincha ma'muriy buyruqbozlik boshqarish o'rnatilgan bo'lsada, respublikamizda ta'lim, maorif, adabiyot va san'at, madaniyat sohalarida zamonaviy tizimlar, yondashuvlar, ijod turlari yuzaga keldi.¹ Bu, albatta, O'zbekistonning boshqa, eng avvalo Rossiya xalqlari bilan integrasiyasi natijasidir.

Shu bilan birga O'zbekistonda uch marta alifboning almashtirilganini, milliy maktablar va ziyolilarning faoliyati taqiqlab qo'yilganini, etarli mutaxasislarga va moddiy bazaga ega bo'lmay o'quv yurtlari tashkil etilganini, 1937,1950 yillardagi "qizil terror" natijasida 100 mindan ziyod kishi qatogon qiliganini va ulardan 17 mingi otib tashlanganini ham eslash lozim.²

Sho'rolar tuzumining mustamlakachilik siyosati 70-90 yillarda avj olgan va u milliy turmush tarziga, o'zbek xalqining mintaliteti, madaniyati, tili, urf-odatlariga uzluksiz hujumlar uyushtirib turgan. Markazdan boshqarish milliy hayotni o'ziga itoat ettirgan. Natijada I.A.Karimov ko'rsatganidek, "markazdan boshqarishning amaldagi tizimi, uning idoralari, xo'jalik yuritish uslubi va usullari iqtisodiyotimizning yanada rivojlanishiga sezilarli to'siq bo'lishi, keskin ijtimoiy muammolarni hal qilishga qodir emasligi yaqqol ayon bo'lib qoldi".³ Markaz O'zbekistonni umumbashariy taraqqiyotdan, umuminsoniy qadriyatlar va tamoyillardan

1.Bu haqda qarang: Uzbeki ston sovet mustamlakachilik davrida.K.2.-T.: Sharq,2000.-385-400 b. 2.Qarang: Shamsutdinov R. Istiqlol yo'lida shahid ketganlar.-T.:Sharq, 2001.-20 b. Z.Karimov I.A. O'zbekiston - bozor munosabatlarga o'tishning o'ziga xos yuli.//Uzbekiston:milliy istiqlol, siyosat, mafkura.t.1 .-T.: O'zbekiston, 1996.-282 b.

chetlab, o'lkaning tabiiy, madaniy va tarixiy boyliklarini beayov talab, paxta yakkaxokimligini kuchaytirib, mamlakatni mudhish ekologii halokatga olib kelgan. Uning aybi bilan Orol dengizi halok bo'la boshladi, yuzlab, minglab gektar erlarning meliorativ ahvoli yomonlashdi, bu esa oziq-ovqat maxsulotining tanqislashuviga, aholi o'rtasida turli xil kasalliklarning ko'payishiga sababchi bo'ldi.

Markazning adolatsiz siyosati xalqdan sir tutilar, Uzbekistondan olib chikib ketilayotgan xom-ashyo va turli mahsulotlar esa "baynalminal burchni bajarish", "umumxalq manfaatlarini ko'zlash" kabi targibiy goyalar bilan niqoblanar edi.

Qayta qurish boshlangan yillari sobiq SSSR Oliy Soveta deputatlari mamlakat oltin zahirasi qanday ahvolda ekanini aniqlamoqchi bo'ladilar . Shu maqsadda g.Yavlinskiy boshchiligida tuzilgan mahsus komissiya davlat xazinasida bor-yo'g'i 148 tonna oltin borligini aniqlaydi¹. Holbuki, Stalin vafot etgan 1953 yilda davlat xazinasida davlat zahiralarida 3200 tonna oltin bo'lgan. 1954-1990 yillarda esa mamlakatda yana 7-8 ming tonna oltin qazib olingan. Yani deyarli 10 ming tonna oltin qurollanishga, komfirqa extiyojlarini va chet el kommunistok partiyalariga yordam berishga sovurilgan. Demak, mamlakatning harbiy kuch-qudratini rivojlantirishga, sosializm nuqsonlarini bekitish, aholiga keng ommaga sosializmning imtiyozli tuzum sifatida maqtash, kommunistok va inqilobiy firqalarga, socialistik davlatlarga yordam berish uchun xazinadagi oltinning 90 foizi sarf qilingan. Mamlakatning asosiy kuchi, salohiyati, sanoat va fanning eng ilg'or qismi, ishchi kuchining eng jismonan va aqlan etuk qismi mamlakat harbiy qudratini oshirishga qaratilgan. Mutaxassislarning fikricha, "rivojlangan sosializmni takomillashtirish yillarida" (1961 - 1985 yillar) SSSR

1.Qarang:.Bobojonova D. O'zbekistonda ijtimoiy iqtisodidiy munosabatlar
T.:Sharq 1999.-54 b.

sanoatining 4/3 qismi, ya'ni 75 foizi harbiy buyurtma yoki ular bilan bog'liq ishlarni bajarishga yo'naltirilgan. Bu yukning talay qismi O'zbekiston elkasiga tushgan. Chunki O'zbekiston shu yillarda sobiq SSSR xazinasiga ming tonna atrofida toza navli oltin, bir necha ming tonna tabiiy ipak, 100 mln. tonnaga yaqin "oq oltin", bir necha million dona Korako'l terisi, metallar, uran va boshqalar topshirgan.¹ Har yili o'zaro iqtisodiy yordam Kengashi tashkilotiga a'zo mamlakatlarga 600 ming tonnadan tola etkazib bergan².

Respublika aholisining uy-joy, oziq-ovqat, ijtimoiy-madaniy muassasalar bilan ta'minlanish darajasining pastligi, demografik vaziyat murakkab bo'lib turgan bir vaqtda, unga boshqa mintaqalardan "mutaxassislarning keltirilishi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat hamda millatlararo munosabatlarning zimdan keskinlashuviga olib keldi. Masalan, Zarafshon shahri sanoati ob'ektlariga mutaxassislarning, ishchilarning 70%i chetdan keltirilgan. Ular birinchi navbatda uy-joy bilan ta'minlangan. Ogir sanoat, mashinasozlik, aloqa, transport, ayniqsa, xavo yo'llari transportida kadrlarni tanlash, ularni joylashtirish to'la ravishda markaz tekshiruvidan o'tgan partiya ma'murlari qo'lida edi. Bu omillar mahalliy xalq ongiga yomon tasir qilar, milliy kadrlar asta-sekin ikkinchi darajali sohalarga siqib chiqarar edi. O'zbek millatiga mansub ishchilar mashinasozlik va metallni kayta ishlash sanoati sohasida 32,3 %, neftni kayta ishlash sohasida 35,2 %, rangli metallurgiyada 27,0 %ni tashkil qilgan. Milliy kadrlar V.P.Chkalov nomidagi aviasiya ishlab chiqarish

1qarang:.Bobojonova D. O'zbekistonda ijtimoiy iqtisodidiy munosabatlar T.gsharq 1999.- 566.

2.Qarang: Tuxliev N. Iqtisodiyotni intensiv rivojlanish yo'liga o'tkazishni jadallashtiraylik //Uzbekistan kommunist, 1990.- 6-son.-13 b.; Madaliev S.Paxta -qora rang.//Hayot va iqtisod,1990,3-son.-56 b.; Z.Ibrohimov A.Qalbim notinch.// Xalq so'zi,1991,6 mart

birlashmasida 20 %, shu jumladan, bevosita stanokda ishlaydiganlar 8,6 % Toshelmash,TTZ korxonalarida esa 29 % atrofida bo'lgan.¹

O'zbekiston hududi xom-ashyo ishlab chiqarish mintaqasiga aylantirilganligi uchun oxir-oqibatda respublikada oziq-ovqat masalasi murakkablashib, go'sht va sut etishtirish kamayib ketdi. Biroq go'sht, sut va tuxumning o'rmini bosadigan hech narsa keltirilmadi. Natijada 80 yillarning oxirlariga kelib aholining oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol qilishi mamlakatdagi o'rtacha darajadan ancha pastga tushib qoldi. Buni quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin (aholi jon boshiga 1 yilda necha kg tegishi xisobidan).

Oziq- ovsatlar	SSSR bo'yicha	Uzbekisto n. bo'yicha	Uzbekiston bo'yicha (SSSR ga nisbatan foiz xisobidan)
Gusht	64 kg	29 kg	45
Sut	341 l	186 l	54
Tuxum (dona)	272 dona	112 dona	41
Baliq	18 kg	4,7 kg	26
TTT~..~"	lp o -T / IV!		lp Tu
Kartoshka	105 kg	28 kg	26

Albatta, oziq-ovqat iste'mol qilishda mintaqalararo farqlar bo'lishi mumkin. Chunki, sovuq iqlim sharoitida kishi organizmi ko'proq kaloriyali ovqat talab qiladi. O'zbeklar ovqatga rossiyaliklarga nisbatan 15-20% ko'proq kalampir, kashnich, piyoz, pomidor, baqlajon, qovun, tarvuz iste'mol qiladi.

Xalqimiz nafaqat oziq-ovqat masalasida kam taminlangan, shu bilan birga erta tong otgandan to kun botganga qadar ishlashiga qaramay, yashashning eng

1.Xojimirzaev M.Sosialnoe razvitie rabochego klassa.-T.Uzbekiston. 1990.-S.26.

2. Bobojonova D. O'zbekistonda ijtimoiy iqtisodiy munosabatlart.:Sharq. 1999.-.26 b.

past darajasidagi oylik maoshi olgan, ya'ni oylik maoshi o'ratacha jon boshiga 75-100 rubldan oshmagan.¹

Respublikalar	Aholi Ml n. kishi	Shu jumladan, kishi boshiga tugri keladigan oylik yalpi (foiz hisobida)				
		75 so'm gacha	75- 100 so'm	100- 150 so'm	150- 200 so'm	200 so'm dan ko'p
SSSR	28 5,5	126	15,7	33,3	21,1	17,0
RSFSR	14 6,8	6,3	13,1	34,0	24,6	22,0
Ukraina	51, 3	8,1	16,8	38,5	22,4	14,2
Belarussiya	10, 2	5,0	12,9	36,8	25,8	19,5
Uzbekiston	19, 8	44,7	13,9	12,2	6,4	2,8
Qozog'iston	16, 6	15,9	19,3	33,7	18,1	13,0
Gruziya	5,3	16,3	17,4	31,6	18,1	16,0
Ozarbojon	7,0	33,3	22,2	27,3	10,9	6,3
Litva	3,7	3,6	10,7	34,6	27,1	24,0

Respublikamiz er osti boyliqlari umumittifoq mulki deb qaralardi. Prezidentning yozishicha, "Oltin, qimmatbaho va rangli metallar, strategik ahamiyatga ega materiallar, qimmatbaho mahsulotlarni ishlab chiqarish va materiallar, qimmatbaho mahsulotlarni ishlab chiqarish va jahon bozorida o'ta xaridorgir bo'lgan boshqa sotishdan keladigan foyda Uzbekiston xazinasiga tushmas edi"¹. Sho'rolar davridagi turmush tarzining eng fojiali tomonlaridan biri qishloq aholisining yalpi "zaharlanishi" bo'ldi. Respublikada ekologiyaning buzilishi nafaqat kasalliklarni ko'paytirdi, shu bilan bolalar o'limining ko'payishiga ham olib keldi. Respublikamizning har bir gektar paxta maydoniga o'simlikni har xil hashorat va kasalliklardan himoya qiladigan, yovvoyi o'tlarni quritadigan

pestisidlardan va mineral o'g'itlardan 38,2 kilogramm, yig'im terim

1. Bobojonova D. Uzbekistonda ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar-T.:Sharq. 1999.-18 b. 2..Karimov I.A. Uzbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosiy, mafkura. 1-t. T.: Uzbekiston, 1996.- 3 b.

oldida go'za bargini to'kadigan defoliantlardan 16,2 kilogramm (jami 54,4 kg) zaharli modda solingan. Shu bois Markaziy Osiyoda bolalar o'limi 70-90 yillarda mamlakatdagi o'rtacha ko'rsatkichdan ikki barovar yuqori bo'lgan. O'zbekistonda tug'ilgan har 1000 boladan o'rtacha 46 nafari, Tojikistonda 47, Turkmanistonda 58, Surxondaryoda esa har 1000 bolaning 60 nafari, To'rtko'lda 50 nafari, Muynoqda 120 nafari nobud bo'lgan.³ Bu o'rinda sho'rolar tomonidan ajdodlarimizning tabiatdan foydalanish sohasidagi an'anaviy odob-ahloq qoidalari unutib yuborganiga, suv va erni o'ylamay-netmay bulg'ash, isrof qilish, gunohi Azim deb xisoblagani e'tiborga olinmaganiga duch kelamiz.

Kishilarimizni bozor iqtisodiyotini, xususiy mulkchilikni inkor etishga, o'ziga to'q oilalarga va kishilarga yomon ko'z bilan qarashga, boylikka nafrat bilan munosabatda bo'lishga, "uyim-joyim" deb mol-dunyo yiqqanlarni "yot unsur" deb bilishga o'rgatdilar. Dunyoda eng katta hududga ega davlat o'z fuqarolariga shaxsiy uy qurish uchun 0,04 gektardan 0,06 gektargacha er berdi, dala uyining uzunligi hamda balandligini ham o'zi belgilab qo'ygan edi.¹

Bu ko'rsatkichdan chetga chiqish ma'muriy va partiyaviy yo'ldan chiqish sifatida baholanib og'ir oqibatlariga ham sabab bo'lgan.

Xalq psixologiyasi "Yo'qolsin boylar!" shiori asosida shakllantirib, tayyorlab borildi. Natijada sobiq Sovet Ittifoqi kambag'allar mamlakatiga aylandi. 80-yillarning oxirida mamlakat aholisining o'rtacha hisob bilan 80 % kambag'allarni, 20% esa nisbatan yaxshi ta'minlangan kishilarni tashkil etar edi. Rivojlangan mamlakatlarda esa xuddi shu borada teskari mutanosiblikni

1. Karimov I.A. Uzbekiston XXI asrga intilmoqda.- T.: Uzbekiston, 1999.- 4 b. 2.Shodimetov Yu . Ijtimoiy ekologiyaga kirish. -T.: 1994.- 183-188 b.

Z.Qarang: Shayxova H, Nazarov Q. Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy Kamolot.-T.: Uzbekiston, 1997.-25 b.

o'rish mumkin , ya'ni aholining o'rtacha hisob bilan 80 % yaxshi ta'minlangan, 10% o'z hayotida ma'lum qiyinchilik yoki taqchillikka ega oilalar, 10% esa o'ta boylar bo'lgan.

Sho'rolarlar davridagi siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotdagi xatoliklar natijasida qatag'on qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Milliy respublikalardagi tub aholini iskanjada saqlash, zanjirband qilib turishning asosiy yo'l-yo'riqlarining asl mohiyati kommunistik firqa tomonidan 1947 yil 6 iyunda qabul qilingan va qat'iy sir tutilgan bir ko'rsatmada o'zining to'la ifodasini topgan. Unda shunday so'zlar bor: "ish joylarida etakchi mutaxassislarni ishdan olinishiga hamda ularning o'rniga chala mulla va mulohazasiz xodimlar qo'yilishiga erishmoq darkor. Partiya, davlat va xo'jalik apparatida ishlayotgan tub aholi erli namoyondalarini shunday holatga solish kerakki, ularning o'z qo'li ostidagilari ko'z oldida obro'si to'kilib, avvalgi mavqeini tiklash uchun imkoniyatlari qolmasin. Oliy o'quv yurtlariga shunday kishilarni qabul qilishga erishish kerakki, toki ular xalqning omi qatlamidan bo'lsin va ularni mutaxassislik bo'yicha bilim olish emas, balki diplom qiziqtirsin".¹

Uzbek tili esa faol ijtimoiy hayotdan siqib chiqarilib, xonadon tiliga aylantirilgan edi. Uzbek tili respublika aholisining 70 foizdan ortig'roqni tashkil qilgan millat tili bo'lishiga qaramasdan unga bo'lgan e'tibor, qiziqish sun'iy tarzda kamaytirildi.

Turmush tarzining shakllanishiga ijtimoiy-madaniy muhitning, ayniqsa ommaviy axborot vositalari, bolalar bogchalari, maktablar, kinoteatrlar , madaniyat o'choqlar, kutubxonalar, muzeylar, nashriyotlar faoliyatining ta'siri

1. Qaranptulenov J., G'ofurov 3. Mustaqillik va milliy tiklanish.-T.: Uzbekiston, 1996.-144 b.

2.Xonazarov Q.Mustaqillik va yoshlarni baynalminal ruhda tarbiyalash.- T.gqatortol-Kamolot,1998.-38-39 b.

kattadir. Biroq sho'rolar davrida ijtimoiy-madaniy institutlarning infrastrukturasini joylashishi va soni aholi ehtiyojlari darajasida bo'lmadi. Masalan, respublikamiz shaharlaridagi yosh bolalarning atigi uchdan biri, qishloq joylarida esa yigirmadan biri bolalar bog'chalariga qatnash imkoniga ega bo'lgan. Bolalar bog'chalariga qatnashgan mahalliy aholi bolalarining soni rus, ukrain va boshqa millat bolalari sonidan kam bo'lgan.²

Maktablar bilan ta'minlanish darajasi ham yuqori emas edi. Masalan, 1971-1975 yillari O'zbekistonda 1824 maktab qurilib ishga tushirilgan bo'lsa, 1981-1985 yillarga kelib u rakam 1230 ga tushib qoladi. Vaholanki, o'sha paytda maktab yoshidagi bolalarni deyarli 20% yo maktablar etishmayotganidan yoki ular o'qish imkoniyatining yo'qligi (o'quvchilar sonining ko'pligi) bois umumiy ta'lim doirasidan chekkada qolayotgan edi. Xuddi shu yillari maktablarga o'quvchilarni - bolalarni jalb qilish ham kamaygani kuzatiladi.³

Aholining zamonavay bilimlarini egallashga, jahon ilmi, fani bilan yaqindan tanishishga intilishi yuqori edi. Masalan, Oliy o'quv yurtlariga kiruvchi yoshlar soni yildan-yilga oshib borgan. 1971 yili oliy o'quv yurtlariga 232,9 ming yoshlar o'qishga kirgan, 1981 yili bu raqam 278,1 mingga, 1986 yili 285,5 mingga, 1987 yili esa 291,9 mingga etgan. Ammo o'quv yurtlarining soni (42) o'zgarmay qolavergan.¹ Ommaviy kutubxonalar va ulardagi kitoblar soni oshib borishi kuzatiladi. Masalan, 1970 yili O'zbekistonda 5,7 ming ommaviy kutubxona bo'lsa, 1980 yili ular 6,9 mingga, 1985 yili 7,7 mingga, 1987 yili esa 7,8 mingga etgan. Biroq

1.3 iyaev X. "Zanjir-band" hukmdorlar. //Uzbekiston san'at va adabiyoti, 1992, 18 sentyabr. 2.Qarang:Sosialnyu aspekti istorii Sovetskogo naroda kak novoy Sosialno-internatsionalnoy obtshnosti lyudey.-M.:Misl,1982.-S265.

ushbu kutubxonalardagi adabiyotlar deyarli 85-90 % rus tilida bo'lgan. Har bir kutubxonada Marks, Engels, Leninning to'la asarlar to'plami, KPSSning qarorlari to'plamlari, Markaziy gazetalar bo'lishi qat'iy belgilab qo'yilgan.

Kishilarning madaniy dam olishini uyushtirish ham talab darajasida emas edi. Masalan, Uzbekistonning tarixiy obidalarini, madaniyat o'choqlarini ko'rishga jahonda qiziqish katta, chet ellardan kelayotgan turistlar sonining oshib borayotganiga qaramay turistik dam olish muassasalari qurishga e'tibor berilmadi. 1980 yili respublikamizda bor yo'g'i 31 ta turistik pansionat bo'lgan, 1987 yilga kelib u 28 ga tushib qolgan. Vaholanki, ularda 1980 yili 559 ming, 1987 yili esa 1 mln.046 ming kishi dam olgan.²

Ko'rinib turibdiki, mustaqillik arafasida deyarli barcha sohalarida yillar davomida hal etilmay, milliy taraqqiyot qonunlari mensilmagani bois echilmay kelgan muammolar yigilib, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, milliy munosabatlarda inqirozlarni keltirib chiqardi. Eng asosiysi shundaki, sho'rolar saltanati milliy o'lkalarning ijtimoiy – madaniy rivojlanishiga oxirgi darajadagi vazifa deb qaradi, istagan va uz siyosatiga, maqsadlariga to'g'ri kelgan korxonalarni, ish joylarini ochdi, ular uchun zarur kadrlar tayyorladi, biroq ushbu ishlar, chora-tadbirlar milliy manfaatlarga Moe kelish - kelmasligini hech qachon hisobga olmadi. Uning uchun konkret shaxe, inson, millat, xalq emas, balki mavhum "sovet kishisi", "sosialistik millat", "sovet xalqi", "sosialistik turmush tarzi" bor edi, xolos.

Sho'rolar saltanati o'ziga Moe turmush tarzini shakllantirish uchun ijtimoiy hayotning barcha yo'nalishlaridan, ixtiyoridagi barcha institutlardan foydalanishga intildi. Bu eng avvalo markazlashtirilgan ma'muriy boshqarish u sul'i orqali amalga oshirildi.

1.Qarang:Narodnoe xozaystvo SSSR za 70 let.-M.:Finansi i statistika, 1987.-M.-S.548. 2.Qarang:O'sha joyda.-S.boz.

Milliy respublikalarni o'z maqsadiga muvofiq boshqarish, o'lka xalqlari orasidan o'zga maslakdoshlarni tarbiyalash va yosh avlodlarini hukmron xalqqa ta'zim-tazarruh ruhida tarbiyalash amalga oshirildi. Istobdod davri haqida fikr yuritar ekanmiz, N.A Berdyaevning quyidagi mulohazalarini eslaymiz. "Sosializmga men qandaydir maxsus iqtisodiy ma'noda emas, balki bir butun hodisa sifatida, rus hodisasi sifatida qarayman. Shunday yaxlit sosializmning barcha sohalari Renessans asoslariga butunlay qarshidir. Renesansning mohiyati shundan iboratki, unda inson ijodining mo'l-ko'lligi namoyon bo'ladi, sosializm shunday hodisaki, u mo'l ko'llik asosida emas, balki kamchiliklar va nochorliklar zaminida o'zida namoyon qiladi.

Unda insonning ijodiy kuchlariga erkinlik berish emas, aksincha, ularni jilovlab qo'yish, zo'rovon markazga tobe qilish yuz beradi. Erkinlikka chiqarilgan inson sosializmga majburan tartibda solingan hayotga qaytadan mixlab qo'yiladi."

Turmush tarzining aniq bir siyosiy tuzumlardan xoli va ayni vaqtda er yuzidagi mavjud millat va elatlarning talablariga monand keladigan shakli bormi va qanday bo'lishi kerak, degan savol paydo bo'ladi. Bu savolga javob izlar ekanmiz, birinchidan, turmush tarzi har bir millatda o'ziga xos bo'lishini inobatga olmoq zarur. Chunki, xalqlar turmush sharoitlariga, jug'rofiy muhit, iqlim, dengiz va suvlarning yaqinligi, togu toshlar, sahrayu cho'llar , o'rmonlaru changalzorlar shu muhitda yashab turgan millat yoki elatning turmush tarziga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Ikkinchidan, yashash sharoitlari turli bulsa-da, lekin odam zoti umumiy hayot sharoitlariga muhtoj ekanligi ham shubhasizdir.

Bundan tashqari hayotni, turmushni oqilona tashkil kilish va bu boradagi an'analarni avlodlarga uzatish to'risida kishilar qadimdan fikr yuritadilar. Shu asosda xalqning ongiga singib ketgan an'ana va qonun-qoidalar shakllangan. Ular har bir xalq, millatda o'ziga xos xususiyatlarga ega, turmush tarzi ularga tayanadi, albatta.

1.Berdiyaev N.Smisl istorii.-M.: Pravda, 1990.-S. 132.

Sho'rolar davrida xususiy mulkchilikni kat'iy rad etilishi xalqning turmush tarziga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Istibdod nazariyasida, boyish faqat kishilarni eksplutasiya qilish, poraxo'rlik, sudxo'rlik, talonchilik hisobiga bo'lishi mumkin deb ko'rsatildi. Badavlat kishilarga qarshi "Yo'qolsin boylar!" shiori ostida kurash olib borildi. Barcha boyliklar davlat va kolxoz mulkiga aylantirildi, mehnatga haq to'lash ishbay, soatbay asosiga qurildi, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifat va samarasiga karamay reja ketidan quvish avj oldirildi. Qilgan mehnatiga yarasha rag'batlantirilmaganligi tufayli, kishilarda boqimandalik kayfiyati paydo bo'ldi. Istibdod nazariyasida, ishlab chiqarish vositalariga umumiy mulkchilik kishilarning farovonligini ta'minlaydi degan goya asoslandi. Ishlab chiqarish vositalarining sub'ekta mavhum bo'lib qoldi, bu esa ishlab chiqarish ob'ektlariga egasizlikni, ularni talon-taroj qilishni keltirib chiqardi. Sho'rolar tashabbuskorlikka yo'l ochib bergandek edi, lekin ishbilarmonning qo'lida davlat, boylik, ya'ni xususiy mulk yo'q edi. Tashabbusni amalga oshirish uchun zarur mablag'keyingi yil davlat rejasiga kiritilar va uni, tabiiyki, uzok, kutish kerak edi. Shu sababli tashabbus o'zining tashabbuslik mohiyatini yo'qotar, u amalga oshmasdanoq bo'gilardi. Taqsimotdagi bir tekischilik, mehnatdan kishilarning moddiy manfaatdor emasligi tuzumni tanazzulga olib keldi.

"Insonning jamiyatdagi o'z o'rni haqida noto'g'ri tasavvurga ega bo'lishi, u o'zini kichkina odam, uning uchun hamma muammoni davlat hal qiladi, deb hisoblashi - o'tmishdan qolgan asosiy merosdir. Bizda odamlar shunday tarbiyalangan, bu ularning aybi emas, hamma illat shundaki, odamlarimiz ular uchun kimlardir o'ylaydi, deb hisoblaydi. Davlat va hukumat, korxona va xo'jaliklar bor ekan, ular hammasini o'ylaydi va bizni kulfatda qoldirmaydilar, deb hisoblaydilar. Pirovard natija shunday munosabat vujudga keladiki, mehnat omillari mutlaq yo'q bo'lib ketib, inson tabiatidagi ulkan salohiyat barham topadi.

Eng achinarlisi shundaki, o'z faoliyatining maqsadga muvofiqligini, samarali va natijador mehnati bilan munosib turmush sharoitini ta'minlashi mumkinligini tushunib etish amri mahol bo'lib qoladi. Bunday sharoitda odamlar o'z imkoniyatlarini ishga solmaydi, balki yulg'ichlik, mehnatsiz daromad olish, ijtimoiy to'lovlardan tekinga foydalanish qisobiga yaxshi turmushni ta'minlashning nomaqbul yo'llarini topishga urinadi".¹

Utmishdagi turmush tarzining yana bir muhim salbiy tomoni "davlat boy bo'lsa, oila ham, har bir inson ham boy bo'ladi, deb hisoblab kelinganidadir. Bunday sharoitda ishlab chiqarish va mehnatning samarador bo'lishiga umid qilish qiyin edi..., davlatimiz boy - bizni och qoldirmaydi, degan gaplar hayotimizga singib ketgan edi"¹. Endi esa "mehnatga layoqatli kishining o'zi mehnat faoliyati shaklini erkin tanlash huquqidan foydalana borib, o'zini va o'z oilasini moddiy jihatdan zarur darajada ta'minlashi,

oilaning farovonligi uchun, sog'lom avlodni kamol toptirish uchun javobgar bo'lishi kerak"².

Yuqoridagilardan bobga oid quyidagicha xulosalar chiqarishimiz

mumkin.

Milliy turmush tarzidagi etnomadaniy belgilar qotib qolgan narsalar emas, ularning ichki xususiyatida, yon-atrof bilan aloqalarida, davr talablariga moslashishida zamonaviylik, innovasiyaga moyillik mavjuddir. Har bir xalq madaniyati, shu jumladan, bir turmush tarzi, tomondan tarixiy-madaniy tajribaga tayansa, ikkinchi tomondan, dunyoda ro'y berayotgan o'zgarishlar, ijtimoiy munosabatlardagi transformasion jarayonlar, ayrim voqea va hodisalarning globallashuvi kabi omillar ta'sirida yo yangicha ko'rinishga o'tadi yoki butunlay unutiladi. Bu o'rinda vorisiylik printsipli ijtimoiy taraqqiyot

talablarining ifodasi, ko'rsatkichi, mezoni sifatida keladi va unga amal qilish ko'lami, darajasi esa an'anaviylik bilan zamonaviylikning uygunlashuvi deb idrok etiladi.³ Aslida an'anaviylik "o'ziga xos qonuniyatlar bilan yashaydi. Ular nisbiy mustaqillikka ega u yoki bu an'anani vujudga keltirgan shart-sharoitlar va vaqt me'yori bilan o'zgarib yoki tamomila yo'qolib

1. Karimov.I.A. Uzbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. // Bizdan ozod va obod Vatan qolsin". T.2.-T.: Uzbekiston,- 1994.- 50 b.

1.Karimov I.A.O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li.// Bizdan ozod va obod Vatan qolsin.t.2.-T.Uzbekiston, -1994.56-57 b. 2.Usha erda.

Z.Karimov I. An'ana-xarakatlantiruvchi kuch.-T.: 1990.-9.12 b.

ketsa ham u o'z kuchi bilan yashayveradi. An'analar o'z mazmun-mohiyati bilan zamon ruhiga qanchalik mos tushsa, hamohang bo'lsa, jamiyat taraqqiyotini shunchalik osonlashtiradi, jadallashtiradi va aksincha, ya'ni unga to'g'ri kelmasa, ijtimoiy taraqqiyotga gov bo'lishi mumkin".

Uzbekona turmush tarzida etnomadaniy belgilar, an'analar va innovasiyaga moyillik, zamonaviylik har doim etakchi o'rinda turgan. Hatto chor Rossiyasi va sho'rolar saltanati zulmi avj olgan davrlarda ham ular butunlay yo'q bo'lib, ketmadi, xalq turmush tarzidan siqib chiqarilmadi. Chunki turmush tarzi millat va xalqning o'zidir, uning yashash, mavjudlik shartidir. Shu boisdan ham xalq, millat turmush tarzini o'zgartirish oson kechmaydi, ayniqsa unga yot unsurlar, urf-odatlar va normalar majburan joriy etilsa ham turmush tarzidagi ichki kuch, uning o'zagini tashkil etuvchi yadro o'zligini saqlab qoladi. Bu qonuniyatni biz O'zbekona turmush tarzining sho'rolar saltanati davridagi ahvolidagi ham kuzatamiz.

Sho'rolar tuzumining mohiyatan mustamlakachilik siyosati avj olgan 70-90-yillarda milliy turmush tarzini tarixiylik, vorisiylik va uzviylik tamoyillari asosida ob'ektiv o'rganib chiqish imkon bo'lmagan edi. Mustaqillik tufayli uni ob'ektiv, milliy manfaatlar nuqtai nazardan o'rganish talab etilmoqda.

Uzbekiston iqtisodiyoti sho'rolar davrida yagona xalq xo'jaligi majmuining tarkibiy qismiga aylantirilgan va uning taraqqiyoti milliy manfaatlaridan yiroq edi. Shuning uchun turmush tarzi jahon standartlarining eng muhim yo'nalishlaridan, axborot tizimidan, uzluksiz texnologik yangilanish jarayonidan uzilib, ijtimoiy taraqqiyotning jahon ko'rsatkichlaridan jiddiy orqada qola boshlagan.

80-yillarning oxirlariga kelib xalqimiz turmush tarzining orqada qola boshlashining asosiy sabablaridan biri respublikamizning asosan xom ashyo etkazib beruvchi o'lkaga aylantirilganligi edi. Paxta etishtirishni

1. An'ana // falsafa qisqacha izohli lug'at.-T.:Sharq,2004.-37 b.

ko'paytirish maqsadida erga normadan 20 baravar ko'p kimyoviy o'g'it solindi.

Natijada ekologiya buzilib, yuqumli kasalliklar, anemiya va tug'ilayotgan bolalar orasida mayib-majruhlarning soni oshib bordi. Aholi zich yashaydigan joylarda kimyo korxonalarining qurilganligi va meyoridan ortiq ximikat o'g'itlarining ishlatilganligi sababli aholi orasida gepatit kasallik avj oldi.

Aholini uy-joy va ish bilan taminlashda qo'pol xatolarga yo'l qo'yildi, yangi qurilgan korxonalar asosan Uzbekiston dan tashqaridan keltirilgan kadrlar hisobiga to'ldirildi va ularga imtiyozli sharoitlar tug'dirildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari bilan boshqa respublikalarga nisbatan Uzbekiston kam taminlandi, paxta maydonini kengaytirish hisobiga xalqni boqadigan boshqa ekinlar (bug'doy, meva-cheva, va sabzavot)ning salmog'i yil sayin kamaytirildi.

1960-1985 yillarda madaniy-ma'naviy hayot hukmron mafkuraga bo'yinsuntirildi, madaniyat infrastrukturasi kengaygan bo'lsada, mazmun jihatdan qashshoqlashdi.

Sho'rolar saltanati o'z manfaatlariga Moe, mavhum, milliy, etnomadaniy belgilardan xoli "sosialistik turmush tarzini" yaratmoqchi bo'ldi, millatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tajribasini rad etdi.

Xalq turmushiga sarflanadigan mablag'lar qurollanishga, kommunistik goyalarni jahonga targ'ib qilishga sarflandi, natijada milliy turmush tarzi tsivilizatsiya ko'rsatkichlari dan orqada qolib ketdi. Biroq O'zbekona turmush tarzi mutlaq yo'q bo'lib ketmadi, undagi yaratib yashashga intilish, milliy taraqqiyotga boshlovchi yadro, o'zak saqlanib qoldi. Mustaqillik yillarda ushbu o'zak o'zini to'la namoyon qilmoqda.

Sh-Bob.MUSTAQILLIK YILLARDA O'ZBEKONA TURMUSH TARZINING QAYTA TIKLANISHI VA TARAQQIYOT

Xususiyatlari

3.1.O'zbekona turmush tarzida bo'sh vaqtdan foydalanish xususiyatlari

Bo'sh (èki dam olish) vaqt - bu shaxs, guruh èki umuman jamiyat ijtimoiy vaqtining bir qismi bo'lib, u insonning jismoniy va ma'naviy salomatligini saqlash, tiklash va rivojlantirish, uning intellektual yaxshilanishi uchun ishlatiladi. Bu vaqt Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 6 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 753 June, 2022 https://t.me/ares_uz Multidisciplinary Scientific Journal aloqa va sevimli mashg'ulotlarga bo'lgan ehtièjni qondirish, uy va maishiy muammolarni hal qilish, ochiq havoda yurish va h.k. Mutaxassis L.A.Akimova dam olishning quyidagi vazifalarini ko'rsatib beradi: ijtimoiy-ma'rifiy; rivojlanish; ko'ngil ochish; kompensasion; madaniyat va ijodkorlik; ijtimoiy yo'naltirilgan; sog'likni tiklash, ya'ni qayta tayèrlanish va tayèrlash (psixofizik kuchlarni to'ldirish, insonning sog'lig'i va ijodiy salohiyatini tiklash) [1]. "Bo'sh vaqt" – èshlarning o'qishdan tashqari vaqtining bir qismi. Ijtimoiy haètda talaba èshlarning umumiy vaqtini ikki qismga – o'qish vaqti va o'qishdan tashqari vaqtga bo'lish mumkin. O'qishdan tashqari vaqtda ba'zi talabalarning kino, teatrlarga juft-juft bo'lib kirishlari, xièbonlarda besamar yurishlari, ko'cha-kuylarda sigaretalar chekib yurishlarini ko'rib, umrning zoe ketaèganligini anglamaètganligini ko'rsak, ba'zi talabalar esa pul topish maqsadida xususiy tashkilotlar, kafe, restoran, bozorlarda ish faoliyatini olib boraètganligini ko'rish mumkin. Ikkala holatda ham talabaning asosiy maqsadi o'qishdan qolib ketishini kuzatish mumkin. Amerika èzuvchisi Djeyms Kuper, shuningdek, bekorchilik dam olish emas, balki vaqtni yo'qotish degan g'oyani ilgari suradi. [2] mamlakatimizda èshlarga juda ko'plab sharoit va imkoniyatlar yaratilgan bo'lib, asosiy masala undan unumli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli Prezidentimiz Sh.M.Mirzièevning 2019 yil 19 martda yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, èsh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, èshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlari yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surib, 3 aprelda ushbu tashabbusni amaliètga joriy etish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazilib, har bir tashabbus bo'yicha chora-tadbirlar dasturlari loyihalari ishlab chiqildi.[3] hududlarda 5 ta muhim tashabbus bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib, ayniqsa kitobxonlik bo'yicha ko'rik tanlovlarning o'tkazilishi (Oliy o'rin uchun avtomobil mukofoti va qolgan o'rinlarga pul mukofoti hamda kitoblar sovg'asi) va ommaviy axborot

vositalarida èritib borilishi natijasida èshlarning kitobni o'qishga bo'lgan qiziqishi ortaètganiligini ko'rish mumkin. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 6 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 754 June, 2022 https://t.me/ares_uz Multidisciplinary Scientific Journal bugungi kunda mamlakatimiz kelajagi bo'lgan èshlarning huquqiy va ijtimoiy himoyasini ta'minlash, ularga o'z intilish va qobiliyatlarini ro'èbga chiqarish, jamiyat va davlat rivojiga munosib hissa qo'shishlari uchun yaratilgan imkoniyat – yurtimizda amalga oshirilaètgan èshlarga oid davlat sièsatining asosiy ustuvor maqsadlaridan bir sifatida, hukumatimiz tomonidan yoshlar Ittifoqi faoliyatiga doir jami 40 ta qonun va qonunosti hujjati qabul qilindi va èshlar masalalari bilan bog'liq 70 ga yaqin me'èriyhuquqiy hujjatga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildiki, bu esa èshlar va ular bilan bog'liq masalalar yangi bosqichga ko'tarilganligini ko'rsatmoqda. Jumladan, mamlakatimiz èshlarini qo'llab-quvvatlash, har bir sohadagi samarali faoliyati, yutuqlari va iqtidorlarini munosib baholash va rag'batlantirib borish maqsadida "mard o'g'lon" davlat mukofoti hamda "kelajak bunèdkori" medali ta'sis etildi. O'zbekiston èshlar Ittifoqi tashkil qilingan sana – 30 iyun mamlakatimizda "yoshlar kuni" sifatida belgilandi. Bu, o'z navbatida, tegishli davlat tuzilmalari va jamoatchilik e'tiborini yana bir bor èshlar bilan bog'liq masalalarga qaratishga, galdagi vazifalarni belgilab olishga xizmat qildi. O'zbekiston Respublikasining "yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasida [4]: "èshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash; èshlarning haèti va sog'lig'ini saqlash; èshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish; èshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash; èshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shartsharoitlar yaratish; èshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, haètga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash, ... èshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek èshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va èshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish; èsh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llabquvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish" va boshqa shu singari èshlarga oid davlat sièsatining asosiy yo'nalishlari sifatida belgilangan. Ko'rinib turibdiki, so'nggi uch yillikda èshlar va ular bilan bog'liq masalalar yangi bosqichga ko'tarilganligini kuzatishimiz mumkin. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 6 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 755 June, 2022 https://t.me/ares_uz Multidisciplinary Scientific Journal xususan bu borada Prezident Sh.Mirzièevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasida: "mamlakatimizdagi tub o'zgarishlar, èshlarga oid davlat sièsatini yanada rivojlantirishni kun tartibiga qo'yimoqda. Yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholash bo'yicha yagona ko'rsatkichlar ishlab chiqish, èshlar sièsatini baholash milliy indeksini joriy etish kerak. O'zbekiston yoshlar Ittifoqi "O'zbekiston yoshlari – 2025" kontsepsiyasini ishlab

chiqishi, unda ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga etkazishning amaliy chora-tadbirlari belgilanishi zarur [5]"ligi ko'rsatildi. Demak, èshlar bilan bog'liq masala har qachongiga nisbatan yanada dolzarblashdi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiёт strategiyasi to'g'risida"gi farmonida èshlarning "Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga etkazish va ta'lim sifatini oshirish" 46-maqсад sifatida, "el-yurt umidi" jamg'armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan èshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o'qishga yuborish ko'lamini 2 baravarga oshirish, bunda èshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga o'qitish" 50 - maqsad "yoshlarga oid davlat siёsatini takomillashtirish" esa 70-maqсadi [6] e'tiborga molik. Bugungi kunda ushbu fond orqali xorijiy ta'lim dasturlari kesimida nomzodlar soni yildan-yilga ko'payib bormoqda. Muhokama va natijalar har qanday inson uchun bir sutka 24 soatdan iborat, lekin har kim ham etarlicha baxtli omadli emas. Kimlardir muvaffaqiyatli, kimlardir esa muvaffaqiyatsiz, kimlarningdir haёт sifati yuqori kimlarnidir haётi sifatsiz, kimlardir har kungi 24 soatlik vaqt kapitalidan foydalanib haётda istagan narsasiga erishadi, kimlardir esa vaqt resurslarini bekorga sarf etib oqibatda hech nimasiz qoladi. Toshkent davlat transport universiteti talabalari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalarini tahlil qilsak (2021 yil), talabalar asosan ko'p vaqtlarini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazishlarini qayd etganlar. Ijtimoiy tarmoqlarda har bir talaba uchun kuniga o'rtacha 7 soat vaqt ketishi, o'quv faoliyati uchun biroz kamroq vaqt talab qilaётgani va unga talabalar kuniga 5,5 soat vaqt sarflashini aytib o'tdilar. Talabalar turar joylarida yashaydigan ko'pgina talabalar kuniga 1,5 soat kitob o'qish uchun vaqt ajratishi ma'lum bo'ldi. Gigienik muolajalar uchun o'rtacha talabalarning kuniga o'rtacha atigi 15-30 daqiqani tashkil etadi. Zamonaviy qizlarning Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 6 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 756 June, 2022 https://t.me/ares_uz Multidisciplinary Scientific Journal aksariyati o'zlarini tartibga keltirish uchun ko'p vaqt sarflashadi. O'rtacha har bir qiz bunga har kuni taxminan 1 soat sarflaydi. Ko'plab talabalar uxlashni yaxshi ko'radilar, har bir talaba uchun uxlash uchun kuniga o'rtacha 11 soat kerak bo'ladi. Afsuski, hamma talabalar sport bilan shug'ullanishni qayd etishmadi. Zamonaviy talaba haftasiga atigi 3 soat sport bilan shug'ullanadi. Ixtiёriy harakatlarda haftada uch soatdan kam (o'rtacha 2,5 soat) va undan ham kam qatnashadilar. Ma'lumki, talaba èshlar haётi va turmushida ilmiy kitoblar, gazeta va badiiy adabiёт keng o'rin olgan. Bu vositalar bilan cheklanib qolgan talaba èshlarning bilim doiralari pasayib bormoqda. Ko'pgina èshlar televizor, Internet va turli har xil kinolar bilan bandlar. Bu esa èshlarni bo'sh vaqtdan samarali foydalana olmaётganligidan dalolat beradi. Ma'lumki, èshlar haёт strategiyasini shakllantirish masalasi bu murakkab va ko'p qirrali jaraён hisoblanadi. Yoshlar haёт stretegiyasi deganda, bu ularning orzu va intilishlari, maqsad va qiziqishlarini amalga oshirish uchun oldindan haётini rejalashtirish, maqsad va orzularga erishish yo'lida qat'iy kurashish usul va yo'llarini tanlash va ishlab chiqish, shuningdek tuzilgan reja asosida harakatlar ketma-ketligini amalga oshirilishini hisobga olsak, bu borada sosiologlar,

psixologlar, iqtisodchilar 1-5, 10 yillik rejalar tuzish va bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatishgan [7,9,10,11,12]. Shuningdek, hozirgi kunda taym menejment – vaqtni boshqarish san'atidan foydalangan holda haëtda aniq maqsadlarni qo'yish, rejalar tuzish, taym menejmentning samarali usullaridan foydalangan holda muvaffaqiyatli, haëtdan va o'zidan qoniqishni o'rgatuvchi kurslar tashkil qilinmoqda. Lekin, blogger mayo oshin o'zining Medium'dagi ustunchasida nima uchun taym-menejment vaqtni befoyda sarflash ekanini tushuntirib berdi. Samaraliroq ishlash uchun quvvatni aql bilan yo'naltirish kerakligini tushuntirdi [8]. Xulosa yuqoridagilarni hisobga olgan holda muvaffaqiyatli, baxtli, haëtdan qoniqqan inson bo'lish uchun har qanday inson taym-menejmentdan bohabar bo'lishi, samarali vaqtni boshqarish usullaridan foydalanishi maqsadga muvofiq. Xulosa qilib aytganda, talabalar o'zini o'zi rivojlantirish maqsadida: - kundalik vaqtni rejali taqsimlashi; Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 6 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 757 June, 2022 https://t.me/ares_uz Multidisciplinary Scientific Journal - sport va kitob o'qishga vaqt sarflashi; - Smart-maqsadlar, yarim soat nazariyasi, Eyzenxauer jadvali, kun davomida miyaning ish unumdorligini oshirish; - o'zini boshqara olish qobiliyatini shakllantirish; - ijtimoiy nazorat, bunda pedagog o'qituvchilar mas'ul bo'lmog'i, balki èshlarning bo'sh vaqtdan samarali foydalanishlari uchun ota-onalarning ta'sir doirasini va mas'uliyatini ham kuchaytirish, nazorat qilishi lozim, deb uylaymiz. Zero, xalqimizda bugungi ishni ertaga qo'yma degan naql asosida ish olib borish va vaqtni to'g'ri taqsimotiga e'tibor qaratish muhimdir

Vaqt inson umrining, hayotiy faoliyati va turmush tarzining xronologik qimmatini belgilovchi kategoriyadir. "Vaqt - borliqning asosiy yashash shakllaridan biri bo'lib, u voqea va hodisalarning ro'y berish ketma-ketligi vaizchilligi tartibini, davomiyligini ifodalaydi".¹ "Ob'ekt qanchalik katta tezlikda harakatlansa, unda vaqtning o'tishi, nisbatan tinch turgan ob'ektlarga qaraganda shunchalik sekin o'tadi". Demak, inson umri va turmush tarzi qanchalik tez, sermazmun faoliyatda o'tsa, u sokin, befoyda o'tayotgan umrdan ijtimoiy foydaligi, mazmunligi bilan farq qiladi.

Bo'sh vaqt umumiy vaqtning, umrning muhim qismi sifatida ijtimoiy ahamiyatga egadir. Bir qarashdagina bo'sh vaqt faqat shaxsning o'z ixtiyoriga qolgan vaqtdek ko'rinadi, aslida esa u shaxsning ijtimoiy xislatlarini shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bo'sh vaqt turmush tarzida milliy, etnomadaniy xususiyatlarning namoyon bo'lishi bilan ham bog'liqdir. Agar ijtimoiy iqtisodiy munosabatlarga

sarflanadigan vaqt umuminsoniy, umumplanetar xususiyat kasb etib borayotgan bo'lsa, bo'sh vaqt har bir xalq, millatning tarixiy-madaniy belgilarini to'la namoyon bo'lishiga imkon berayotgan yagona makon bo'lib qolmoqda.

Bo'sh vaqtning ijtimoiy mohiyati va undan foydalanish xususiyatlarini turmush tarzi bilan bog'liqligi: **birinchidan**, bo'sh vaqtning o'zi nima;

ikkinchidan, bo'sh vaqtning milliy turmush tarzi bilan bog'liqligi nimalarda aks etadi;

uchinchidan, bo'sh vaqtning inson umri turmush tarzi uchun ijtimoiy

1.Turaev B. Vaqt // falsafa qisqacha izohli lug'at.—
T.:Sharq,2004 .-83 b.

2. O'sha joyda.

kimmati, ontologik mohiyati nimada;

to'rtinchidan, bo'sh vaqt strukturasi, kishilarning qiziqishlarida qanday o'zgarishlar sodir bo'lmoqda;

beshtinchidan, milliy tiklanish nuqtai nazardan O'zbekona turmush tarzida bo'sh vaqtdan foydalanish ;

oltinchidan, bo'sh vaqtda milliy va umuminsoniy belgilar, tajribalarga asoslanish qanday kechmoqda;

ettinchidan, milliy turmush tarzida tsivilizatsiya qadriyatlarini, normalarini to'la shakllanishida duch kelayotgan muammolar nimalardan iborat degan savollarga javob berishni talab etadi.

Vaqtning qimmati eng avvalo ijtimoiy taraqqiyotda aks etadi.¹ Xuddi shuningdek, u individ, shaxsning munosabatida, vaqtga sub'ektiv karashlarida xam namoyon bo'ladi. Eng muhimi vaqtning ijtimoiy qimmati, ahamiyati shaxsni o'rab turgan madaniy muhitning ta'siri, ushbu ta'sirning shaxe, guruh, jamoa turmush tarzida aks etishidir.³ Shuning uchun vaqt kategoriyasi materiyaning shunchaki harakatlarining, o'zgarishlarining ko'rsatkichi emas, unda ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim xususiyatlari, individ, shaxe, jamoa hayotida sodir bo'layotgan tarixiy-madaniy va psixologik o'zgarishlar namoyon bo'ladi. Bu bo'sh vaqtning mohiyatiga ham taalluqlidir. Demak, jamiyatning, kishilarning bo'sh vaqtdan foydalanishini o'rganib, ularning nafaqat vaqtga, xuddi shuningdek, ijtimoiy taraqqiyotga o'zlarining moddiy va ma'naviy rivojlanishiga ham munosabati qanday ekanini anglash mumkin.

Bo'sh vaqt turmush tarzini mazmunan boy, rang-barang qiladi, insonning xayotga qiziqishini va uni qadrlashini orttiradi. Insonning mehnat vaqti

1.Qarang: Mitrikas A. Vremya v izuchenii obraza jizni//Chelovek i ego obraz jizni (Sosiologicheskiy aspekt).-Vilnyus, 1987.-S.5. 2.Qarang O'sha joyda.-s.7.

Z.Gurevich A.Ya. Vremya kak problemi kulturi // Voprosi filosofii, 1989, №3.-S. 18-48.

bilan bo'sh vaqti tadrijiy bog'liq jarayonlar hisoblanadi. Inson bo'sh vaqtida qanchalik mazmunli va maroqli yaxshi dam olsa, hordiq chiqarsa, ishlab chiqarishda shunchalik faol qatnashadi. Bugun ilmiy texnikaning jadal rivojlanishi, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish, robotlashtirish, Internet tizimlari bo'sh vaqtning salmog'ini, miqdorini oshirmoqda.

Vaqt ish vaqti, ishdan tashqari vaqt va bo'sh vaqtga ajratiladi. Ish vaqti jamiyat uchun zarur moddiy va manaviy boyliklar yaratishga, ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirishga, ilmiy texnika taraqqiyoti va tarixan o'zgarib boruvchi ehtiyojlarga sarflanadi ishdan keyingi vaqt ijtimoiy ehtiyojlarga sarflanadigan vaqtdir. Masalan, bola tarbiyasi, bozorga borish va b. Ushbu ijtimoiy vaqtdan keyin kishilarning o'z ixtiyoriga qolgan vaqt bo'sh vaqtdir. Bo'sh vaqt kundalik, haftalik, oylik dam olish kunlarini va turli bayram kunlarini o'z ichiga oladi.

Maxsus tadqiqotlarga ko'ra, shahar aholisining bo'sh vaqti haftalik umumiy ish vaqti xajmining 17-18 %ni tashkil etadi.¹ Shundan keyin bo'sh vaqt hajmini o'lchash amalga oshirilmadi. Agar hozirgi vaqtda o'rinlarning qisqarganidan, ishsizlik juda sekinlik bilan hal qilinayotgan muammo ekanligidan kelib chiqsak, aholi bo'sh vaqti 20-25 % ga ko'tarildi deb taxmin qilsak bo'ladi. (Bu aholi bo'sh vaqti strukturasi va hajmini maxsus tadqiq qilishni taqozo etadi).

Bo'sh vaqt shaxs ixtiyoridagi vaqtdir, uni o'tkazish esa shaxsning imkoniyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlariga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan bo'sh vaqt va shaxs muammolari sosiologik yoki sosial-pedagogik tadqiqotlar mavzui bo'lib keladi. Keyingi yillarda esa uni ijtimoiy falsafiy voqelik

sifatida o'rganishga ham amalga oshirilmoqda. Eng muhimi shundaki, bo'sh vaqtning milliy an'analari, urf-odatlar va turmush tarzi bilan boglab tadqiq etish vujudga kelmoqda.

1.Qarang: Norqulov D. Vaqt va uning ijtimoiy qimmati.//Tafakkur,1998,2-son.-22 b.; Chelovek i ego obraza jizni (Sosiologicheskie aspekti).-Vilnyus,1987.-S106.

V.A.Alimasov o'zining doktorlik dissertasiyasida milliy qadriyatlar va bo'sh vaqtni o'rganib, o'tkazgan sosiologik tadqiqotlari asosida quyidagilarni bildiradi. So'ralgan 1020 ekspert respondentlardan shaharda 98,7 % va qishloqda 87,4 % aholida milliy cholg'u asboblari chalishga kizikishi oshib borayotganini qayd etishgan. Xuddi shuningdek, ular kishilar bo'sh vaqtlarini asosan ochiq havo (mahalla, choyxona, bog'lar, qir, adirlar)da o'tkazishga intilishlarini bildirishgan.

Tadqiqotchi mustaqillik yillarida aholi bo'sh vaqtini o'tkazishda 70-80 yillariga nisbatan quyidagi o'zgarishlar sodir bo'layotganini ko'rsatadi. Birinchidan, aholi o'rtasida milliy bayramlar, an'analar va san'atga bo'lgan kiziqish keskin (shaharda 98 %, qishloqda 96,7 %) oshgan. Mustaqillik tufayli tarixiy-madaniy qadriyatlarni qayta tiklash imkoni paydo bo'lganidan kishilar o'z xalqining o'tmishini, ota-bobolari amal qilgan turmush tarzidagi ijobiy an'analarni to'la o'rganishga hohish bildirishgan. Ikkinchidan, bo'sh vaqtni o'tkazish rasionallashuvi kuzatiladi. Kishilarning bo'sh vaqtda o'zining turmushi, oilasi uchun zarur bo'lgan xalq amaliy san'ati turlaridan foydalanishga intilishi kuchaymoqda. Demak, bo'sh vaqtning faol dam olish turiga aylanishi kuzatiladi. Eng muhimi unda xalq amaliy san'ati (naqqoshlik, pichoqchilik, duradgorlik, zargarlik, do'ppichilik, I zardo'stlik, gilamchilik va b .) qayta tiklanayotgani, hatto ushbu xalq j hunarmandchiligi bo'yicha maxsus o'quv yurtlari (Toshkent, Andijon, Buxoro), ustoz-shogird an'anaviy maktablari paydo bo'layotgani aniqlanadi. Uchinchidan, milliy turmush tarzini, an'anaviy urf-odatlar va bo'sh vaqtni zamonaviy, eng avvalo evropacha usullar bilan

1.Qarang: Alimasov V A. Osobennosti razvitiya kulturno - prosvitetelnix uchrejdeniy v usloviyax perexoda Uzbekistana k rinochnim otnosheniyam. Avtoref.diss. na soisk. uchen.st. dok-ra.filos. nauk, 2001.-S. 27-30; Engulatova D.I. Povishenie Sosialno - duxovnogo potentsiala uchatsheysya molodyoji Uzbekistana a usloviyax nezavisimosti. Avtoref.diss. na soisk. uchen.st. kand. filos. nauk, 1999.-S.17. 2.Qarang: O'sha joyda.

to'ldirishga intilish mavjud. Ekspert-respondentlarning 78 % kishilar turmush tarziga, madaniy hayotiga kompyuter o'yinlari, golf, tennis, poni otlarda chopish, dizayn, rok-musiqqa, golografiya, installyasiya, videart, perfomans kabi zamonaviy san'at va dam olish usullari kirib kelayotganini qayd etiladi.¹

O'zbekona turmush tarzida milliy bayramlar va urf-odatlar chuqur o'rin olganini u.H.Qorabaev tadqiqotlari ham tasdiqlaydi. U yozadi: "xalqni bayram qilishiga qarab, uning taraqqiyot darajasini bilish qiyin emas. Jumladan, bayramlar elning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ahvoli haqida yorqin tasavvur bera oladi. Chunki bayramlar ijtimoiy hayotning eng yaxshi tomonlarini aks ettiradigan ko'zgudir. Har tomonlama rivojlangan xalqning bayramlari ham fayzli bo'ladi" umuman xalq bayramlari negizida kishilarning madaniy, maishiy va estetik ehtiyoji, tarixiy-madaniy tajribalarini avlodlarga etkazish maqsadi, turmush tarzini go'zallashtirish, rang-baranglashtirish istagi yotadi. Mustaqillik yilarida Navro'z, Qurbon xayiti, ro'za hayiti, umumxalq bayramlari qayta tiklandi, tabiat, oila, istiklol va buyuk ajdodlarimiz tavalludlarini nishonlashga qaratilgan 40 dan ziyod bayramlar o'tkazildi, ularning ayrimlari madaniy hayotimizning tarkibiy qismiga aylandi. Bayramlarni sosial psixologik xususiyatlari va bo'sh vaqt bilan bogliqligi shaxe ma'naviy hayotiga ta'sir etadi, uni o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga, vaqtdan unumli foydalanishga, ijtimoiy manfaatlar va kayfiyatga mos tarzda o'z hayotini, turmush tarzini tashkil ztishga undaidi².

1.Alimasov V.A. O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish sharoitida madaniy-marifiy muassasalar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.Falsafa fan. dok-ri ilmiy daraja... diss.—T.:2001.-72-76 b.

2.Qorabaev U.O'zbek xalqi bayramlari.-T.:Sharq,2002.-13 b.

Xalqimizning jahon tsivilizasiyasi bilan integrasiyasi natijasida zamonaviy bayramlar hayotimizga kirib keldi. Masalan, xalqimiz yangi yilni bayram qilmasdi, chunki bir yil 365 kunga emas, 354 kunga teng edi va bu farq aniq bir kunni yangi yil boshlanishi, deyishga yo'l qo'ymas edi. Biz uzimizning, ota-onamizning va farzandlarimizning diqqat e'tiboriga munosib kunni, ya'ni valodat kunini bilmas edik va nishonlamasak, chunki farzand bu yil 22 fevralda tug'ilagn bo'lsa, kelasi yil uning valodat kuni o'n bir kun qisqaroq bo'lib 11 fevralga to'g'ri kelardi. Biz 8-martni, o'quv yili boshlanishini, farzandlarimizning maktabga borganini yoki oliy o'quv yurtiga kirganini, uni tamom qilganini va hakoazolarni nishonlamasak edik, chunki ulkamizda umummajburiy ta'lim tizimi va hozirgi zamon darajasidagi oliy o'quv yurtlari yo'q edi. Demak, bayramlar soni boshqa nomusulmon xalqlariga nisbatan ancha kam edi. Shu bois qadimgi O'zbekona turmush tarzidagi eng asosiy to'y va marakalar, o'g'il to'yi, o'g'il uylantirish, qiz chiqarish, ro'za hayiti va Qurbon hayiti (sunnat), vafot etganlarning marakalarini o'tkazishdan iborat edi. Ammo ular ichida hanuzgacha davom etib kelayotgan an'analar yo'q emas. Masalan, "gap", "yigitlar bazmi", "qizlar bazmi" ana shu milliy an'analar dan biridir.

Bo'sh vaqtning mohiyati kishilarda nafaqat milliy urf-odatlar va bayramlarga qiziqish uyg'otishda, shu bilan birga shaxsning psixofiziologik xolatini qayta tiklashdadir. Aynan ushbu funktsiyasi orqali bo'sh vaqt shaxs ma'naviyati, ruhiyati, madaniyatiga ta'sir etadi, unga ijtimoiy mehnat jarayonida sarflangan psxofiziologik kuch-quvvatni qayta tiklashga yordam beradi. Shuning uchun ilmiy adabiyotlarda kishilarning ma'naviy-madaniy rziqishlarini va ushbu qiziqishlarini qondirishga yo'naltirilgan erkin

1. Qorabaev U. O'zbek xalqi bayramlari. - T.: Sharq, 2002. - 69 b.
2. Qaranpmazaev A.I. Prazdnik kak Sosialno-Xudojestvennoe yavlenie, - M.: Nauka, 1978. - S.6.

faoliyat turlarini o'rganishga muhim e'tibor beriladi.¹ Aynan bo'sh vaqtda kechadigan erkin faoliyat turlari turmush tarzida bo'sh vaqtning ahamiyatini va zamonaviy hayot tarzi, tsivilizasiya yutuqlari bilan qanchalik mushtarak ekanini aniqlash imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida bo'sh vaqtda kechadigan erkin faoliyat faollik turlarini ma'lum bir tartibda klassifikasiyalash (guruhlash)ni taqozo qiladi. Ularni biz:

- a) iqtisodiy ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan faollik;
- b) ijtimoiy-siyosiy faollik;
- v) madaniy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan faollik;
- g) informasiya olishga yo'naltirilgan faollik;
- D) fizkultura va sport bilan shugullanish;
- e) nafaol dam olish kabi guruhlarga ajratib qarash mavzuni kengroq ochib berishga yordam beradi deb o'ylaymiz.

Iqtisodiy ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan faoliyatda majburiylik va ixtiyoriylik elementlari teng ishtirok etadi. Iqtisodiy ehtiyoj inson mavjudligining, tirikligining asosiy sharti sifatida mehnat, ish vaqtini majburiy qiladi. Biroq bozor munosabatlariga o'tish, kishining o'z mehnati samarasiga ko'ra turmush kechirishi uning hayot tarziga aylanayotgan hozirgi paytda ushbu faoliyatda ish vaqti bilan bo'sh vaqt o'rtasidagi chegara yaqqol ko'zga tashlanmaydi. Bundan tashqari, kishining rinday iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishi uning ixtiyoridadir. Demak, bo'sh vaqt ushbu bozor munosabatlari sharoitidagi iqtisodiy faoliyat (ish vaqti) ning tarkibiy qismi sifatida keladi.

1. Karang: Problemi izmereniya i prognozirovaniya v oblasti kulturi.-M.:1993;
 Problemi upravleniya i prognozirovaniya xudojestvennoy kulturi.-M.: Nauka, 1986;
 Orlova E.A. Sovremennaya gorodskaya kultura i chelovek.-M: Nauka, 1987 va b.

To'g'ri, kishilarning bo'sh vaqtga ega bo'lishi O'zbekiston Respublikasining maxsus qonunlari orqali kafolatlangan. Biroq qishloq xo'jaligidagi 20 mingdan ziyod kichik korxonalar, dehqon, fermer xo'jaliklari, oilaviy shirkatlarda ularning mehnati goho mavsumiy va qat'iy chegaralanmagani bois ularda bo'sh vaqt qancha ekanligini o'rnatish mushkul. Ammo o'tkazilgan ba'zi tadqiqotlar qishloq aholisining bo'sh vaqti shaxar aholisidan 15-20 % kam ekanligini ko'rsatadi.¹ Yoki bo'lmasa kishilarning bo'sh vaqtlarida shugullanadigan erkin madaniy faoliyatini olaylik. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, 80-yillarda madaniyat muassasalarida kishilarning bo'sh vaqtini uyushtirishga qaratilgan madaniy faoliyat turlari 6-7 bo'lgan, xolos.³ Hozir ularning turlari 30 dan ziyod. Agar ularning ustiga nodavlat madaniy-ma'rifiy muassasalarida va xalq ijodi uylarida tashkil etilayotgan madaniy xizmat turlarini ham qo'shsak madaniy faoliyat turlari 200 dan oshadi.

Shu bilan birga davlat qaromog'idan madaniyat o'choqlarining qisqarib, ular o'rniga o'zini - o'zi mablag' bilan ta'minlovchi, aholining aniq ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan nodavlat madaniyat o'choqlari, dam olish maskanlari, fizkultura va sport maydonchalari vujudga kelayotganini ko'ramiz.¹ Xuddi shunday holni madaniy-maishiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ham kuzatamiz. Masalan, 1986 yilga kelib respublikamizda 20379 ta bichish-tikish ustaxonalari (atele), kir yuvish tseklari, sartaroshxonalariga ega madaniy-maishiy komplekslar, saroylar mavjud edi. Mustaqillik iillarida ular davlat tasarrufidan chiqarildi va xususiy maishiy xizmat ko'rsatish o'choqlariga aylantirildi. Hozirgi kunda ularning soni, bizning hisob-kitobga kura, 67

1.Qarang: Saakova T.D. Sosialnaya struktura selskogo naseleniya uzbekskoy SSR v usloviyax sovershenstvovaniya sosializma.-T.:Fan, 1988.-S.82-83;Sosialno-kulturniy oblik sovetstix Nasiy.Po rezultatom etnososiologicheskogo issledovaniya.-M.:Nauka,1986.-S.216-217.

2.Siyosiy partiyalar to'g'risida. Uzbekiston Respublikasining qonuni//O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi, 1994, 5 -son.-12 b.

1.Qarang:Vremya povishat aktivnost//Narodnoe slovo,2002,20 dekabr; Hamkorlikka intilib kelgan xalqmiz//Xalq so'zi, 1999,2 noyabr.

2.Qarang:Mamadaliev Sh.O.Xalq xokimiyati: nazariya va amaliyot.-T.:2003.-169-170 b.

3.Qarang:Kulturnaya deyatelnost. Opit sotsiologicheskogo issledovaniya.M.:Nauka, 1981 .-S. 144.

mingdan ziyoddir.

Informasiya ijtimoiy taraqqiyotning yo'nalishini belgilab beruvchi omilga aylangan.Bo'sh vaqtda u bevosita (muloqot) va bilvosita (kitob, gazeta, televidenie, telefon, Internet va b.) orkali shaxsning informasiyaga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi. Bugun respublikamizda bO'Odan ziyod gazeta, 166 ta jurnal chop etiladi, 70 ta teleradiokompaniya va 60 ta nashriyotlar faoliyat ko'rsatmoqda.³ Bundan tashqari, kishilarimiz chet ellardan kelayotgan

nashrlarni o'qish, chet el radioteleprogrammalarini eshitish imkoniyatlariga xam ega. Umuman informatsiya kishiga so'z erkinligini, demokratik huquqlarini ro'yobga chiqarish va shu asosda o'z turmush tarzini shakllantirish uchun zarur. "Hurfiylik-erkin, hur yashash, o'z manfaat va qiziqishlariga Moe turmush tarzini, haqiqatan deb bilgan karashlarini, ijtimoiy munosabatlarning ilg'or yo'nalishda rivojolanishiga yordam beruvchi yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash demakdir".⁴ Talaba yoshlarning

informatsiyaga bo'lgan ehtiyojlarini va ularni qondirish yo'llarini o'rganish uchun biz 1-Toshdavtida 370 respondent o'rtasida savol-javob o'tkazdik. Unda

kuyidagilar ma'lum bo'ldi.

Talabalar televizor va vidiotasvir ko'rishga haftasiga 18-20 soat vaqt sarflashar ekan. Bu har kuni 2,7-2,8 soat demakdir. Eshittirish (programma)lar ichida Rossiya televideniesining "KVN", "Pole chudes", "Vremya", "komnata smexa", "anekdoti", "sekretnie materialy", "Evronyus", "jenskiy Vzglyad", "tsivilizatsiya" kabi ko'rsatuvlar asosiy o'rinda turadi. Respondentlarning 82 % "Pole chudes", "KVN", "anekdoti", "Smexo panarama"ni doimiy ko'rib

1.Qarang Alimasov V.A. Osobennosti razvitiya kulturno-prosvitetelnix uchrejdeniy v usloviyax perexoda Uzbekistana k rinochnim otnosheniyam.Avtoref.diss... D-ra.filos.nauk.-001.—S.26.

2. Qarang: Nosirov R.A. Jiznenniy uroven trudyatshixsya Uzbekistana.-Toshkent,1993.-S41. Z.Qarang:Hoshimov U. Axborot asri.Matbuot erkinligi va kafolotlari xususida //Hayot va qonun, 2002,5-son.-3 b.

Mamadaliev Sh. Xalq hokimiyati: nazariya va amaliyot.-Toshkent,2003.-201 b.

borishlarini ta'kidlashgan. Umuman talabalar Rossiya, Evropa televideniyasi programmalarini ko'rishga ko'p bo'sh vaqtlarini ajratishadi. Ming afsuski, Uzbekiston teleprogrammalarini javoblar ichida yuqori o'yin egallamaydi. Atigi 3 % respondentlar "axborot", goho sport kanallarini tamosha qilishini qayd etgan, xolos. To'g'ri, respondentlarning 57 % "yolg'on asirasi", "klon" filmlarini tomosha qilishini bildirgan, biroq bu filmlar chet tillardan tarjima qilingan. Agar Rossiya televideniyasining 30 oshiq programmalarini mudom ko'rib boriladigan eshittirish sifatida qayd etilsa, Uzbekiston televideniyasining atigi 4 ta programmasi (axborot, yolg'on asirasi, "klon", "Sport kanali") tilga olinadi.

Talabalarning Uzbekiston televideniesi eshittirishlariga rziqishlarining pastligi ularga jamiyatdagi munosabatlarni ham ifoda etadi. Gazeta va jurnallarda teleprogrammalarining qiziqarli emasligi xaqida deyarli har kuni maqolalar berilayotganini ko'ramiz. Talaba-responentlarning gazeta va jurnallar o'qishi quyidagicha: "Darakchi" (61 %), "ayol qalbi"(52 %), "argumenti i fakti" (51 %), "Trud"

(38 %), "Zdorove"(37%), "tilsim" (31%), "Hurriyat" (24 %), "sanam" (12 %), "tafakkur" 9,8 %), "Jahon adabiyoti" (3,5) qolgan nashrlar esa yarim foizga xam etmaydi. Bu raqamlar talabalar orasida gazeta jurnal o'qish yuqori emasligini ko'rsatadi. Ular gazeta va jurnallar o'qishga haftasiga yarim soat o'rtasida bo'sh vaqt ajratishadi. "Darakchi" , "ayol qalbi" gazetalari ko'proqshov-shuvga, Real hayotdan uzoq rivoyat, afsona, tush xabarlarini tarqatishga moslashgan nashrlar bo'lganidan bugun talaba yoshlar nimaga qiziqayotganlarini anglash qiyin emas. Eng ajablanarli hol shundaki, javoblar ichida talabalar uz kasbi-koriga oid gazeta va jurnallardan birortasini ham qayd etmagan. fzir qanday badiiy adabiyot o'qiyabsiz?"degan savolimizga respondentlarning 12 % "Shaytanat"ni,3 % A.Dyuma asarlarini, 1,5 % esa Muhammad Yusuf, askar mahkam, Erkin Vohidov she'rlarini o'qib gurishlarini qayd etishgan. To'g'ri,talabalar ichida Pushkin, M.Prust, Balzak Oruell, Kist,Joys, Shekspir, A.Qodiriy kabi klassik yozuvchilarning asarlarini o'qib turadiganlar ham bor, lekin ularning soni ko'p emas. Umuman yoshlarda badiiy adabiyotlarni o'qishdan ko'ra ular haqidagi badiiy film (vidiofilm)larni ko'rishga intilish yuqori ekanligini boshqa tadqiqotchilar ham qaid etadilar.

Informasiyaning bosh funktsiyasi muloqot bilan bog'liqdir, chunki "muloqot ijtimoiy-madaniy borliqning shaxe ma'naviyatini shakllantiruvchi zng muhim qismidir". Muloqot jarayonida shaxening tashqi olamni bilish, zmosional-aqliy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, o'zida ma'naviy-ruhiy kuch to'plash ehtiyojlari qondiriladi.

O'zbek xalqida muloqot uchun choyxonaga borish, mahallaga chiqish, gap-gashtaklarda qatnashish an'anasi bo'lgan. Ushbu muloqot usullariga keyingi yillarda choyxona-klub, oshxona-kafe, jo'ralar gurungi, ayollar (qizlar, gurungi mahalla yig'ini, otalar choyxonasi, qizlar davrasi, oilalar yig'ini (u yoki bu tadbirni o'tkazish uchun yig'ilib turish) kabilar ham qo'shilmoqda. U.Qorabaev gashtaklarni "turli muammolar hal etishga yordam beruvchi ijtimoiy uyushmadir"² deb hisoblaydi. Shu bilan birga u "gashtaklar yaxshi xordiq chiqarishga yordam beradi. Gashtakdagi muloqot, suhbatlar tufayli unda ishtirok etganlarning dunyoqarashi boyiydi. Davradagilar o'z ijodiy qobiliyatlarini namoyish qilish, rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi", deb ko'rsatadi. Demak, muloqotni rang-barang va sermazmun qilish o'z navbatida bo'sh vaqtdan unumli foydalanishni ta'minlaydi. Bo'sh vaqtda fizkultura va sport bilan shug'ullanish an'anaviy dam olish usullaridan biridir. Qadimdan xalqimizda bayram va sport musobaqalari bir-birini to'ldirib kelgan dam olish usullari hisoblangan. Uzbekiston

2

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 27 maydagi "Uzbekistonda fizkultura va sportni yanada rivojlantirish to'grisida"gi qarori, "Alpomish",

"Barchinoy" nishonlarining ta'sis etilishi, "Xalq sport uyinlari" (1991, 1992, 1993, 1996 y.y. Forij tumani), Milliy sport va xalq o'yinlari olimpiadalari (1994, 1996 y.y. Forij tumani), "Alpomish" Respublika Olimpiada o'yinlari, "To'maris" chaqqon qizlar milliy festivallari (1999 yil Jizzax, 2001 yil Shaxrisabz)ning uyushtirilishi negizida ham aholining bo'sh vaqtdan unumli foydalangan holda soglom avlodni voyaga etkazish maqsadi nazarda tutilgan. Biroq ushbu vazifani to'la amalga oshirish borasida yutuqlardan ko'ra muammolar ko'proq. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, qishloqlardagi 7 ming 694 maktabning 70 % o'z sport zallariga ega emas.³ Bunday hollar barcha viloyatlarda ko'zga tashlanadi. Maktab o'quvchilarining atigi beshdan biri u yoki bu darajada fizkultura va sport bilan shugullanadi. Umuman aholining fizkultura va sport bilan shug'ullanishi haftasiga bo'sh vaqtning 30 minutidan oshgan emas. Katta yoshdagi aholi uchun sport inshootlari qurish, ularni fizkultura va sportga jalb etishning dasturi yo'q. Shaharlarda tennis sportlari qurish "moda"ga aylandi, ammo ular bo'sh vaqtni uyushtirish an'anaga aylanmadi. Shuning uchun mutaxassislar kishilarda, ayniqsa yoshlar o'rtasida nafaol dam olish (vidik ko'rish, kafeda o'tirish va b.) usullari kengroq tarqalayotganini yoki ular ko'proq pul topish uchun "oldi-sotdi"ga berilib ketayotganini noxush hol sifatida qaid etadilar. Nafaol dam olish deganda bo'sh vaqtni harakatsiz, informasiyani mushohadasiz qabul qilishga qaratilgan, na jamiyat, na shaxs taraqqiyotiga ta'sir qiladigan bemaqsad vaqt o'tkazish nazarda tutiladi. Bunday vaqt o'tkazish shaxsni ma'naviy tanazzulga, jamiyat va davlatni idora etishga, o'zining siyosiy huquqlarini ro'yobga chiqarishga befarq qarashga olib keladi. Shaxs hech bo'lmaganida o'z mahallasi, tumaniga taalluqli ishlarda faol qatnashishi, farzandlarining ijtimoiy faol kishilar bo'lib etishishi uchun ibratli turmush kechirishi lozim. Xalqimizda "bir bo'lib, mahalla kishilarining tashvishi bilan yashash" qadimdan an'ana bo'lib keladi.

1, Qarang: Qorabaev U. O'zbek xalqi bayramlari.-
T.: Sharq, 2001.-114 b. 2. Usha joyda.

Z. Qarang: Xalq so'zi, 2004, 10 yanvar; Xalq so'zi, 2004, 16 yanvar.

Respublikamiz hukumatining mahallalarni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlari ham ana shu an'anani mustahkamlashga qaratilgandir.³

Bo'sh vaqtdan unumli foydalanish madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish va servis sohaslarining rivojlanganiga ham bog'liqdir. Tom ma'nodagi madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish, servis bizda endi shakllanmoqda. Sho'rolar davrida ular maishiy xizmat uylari yoki jamoat transportlari ko'rsatadigan xizmat turlaridan iborat edi. Vaholanki, maishiy xizmat yal pi ichki mahsulotlar tarkibida AQShda 80%dan, Angliya, Kanada va Frantsiyada 70 % dan, Germaniya, Italiya va Yaponiyada 68 %dan ziyodni tashkil etadi.

O'zbekistonda u 40 % atrofidadir.¹ Ayniqsa qishloq joylarida servis xizmati davr talablari darajasida emas. Max Su s tadqiqotlar ko'rsatadiki, aholi bo'sh vaqtning asosiy qismi uy yumushlariga, ovqat tayyorlash, kir yuvish, bolalar-tarbiyasiga ketadi. Aholi xarajatlarining atigi 12 % gina maishiy-madaniy xizmatlarga sarflanmoqda, AQSh va Yaponiyada u 60 %ni, Angliyada, Frantsiya, Germaniyada 50 %ni, Shvesiya da esa 70 % tashkil etadi. Shuning uchun respublika oldida madaniy-maishiy xizmatni, servisni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish vazifa bo'lib turibdi. Bu o'rinda xalqimizda an'ana bo'lib kelgan maishiy-madaniy xizmatni aholi joylariga yaqinlashtirish, guzarlarni servis markazlariga aylantirish yo'llaridan borish lozim. Bo'sh vaqtda erkin faoliyat yurgizish va o'zini ma'naviy-madaniy rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Bo'sh vaqt mehnat unumdorligini oshirishning ham muhim omili hisoblanadi. "Yaxshi dam - mehnatga Hamdam" deydi xalqimiz. Kishi qanchalik yaxshi mehnat qilsa, u shunchalik samarali va mazmunli dam olishga ehtiyoj sezadi, yaxshi hordiq chiqara olmagan kishi ko'ngildagidek mehnat qila olmaydi. Shunday ekan bo'sh vaqtdan samarali foydalanish kishilarning mehnat jarayonida sarf

bo'lgan kuch-quvvatlarini tiklash, sog'liqlarini mustahkamlash, ruhiyatlarini tetiklashtirish demakdir.

1.Qarang:Chelovek i sosialnoe razvitie.- M.:Politizdat, 1989.-S.308.

2.Qarang: Davlat,jamiyat, oila va yoshlar tarbiyasi muammolari.-T.:Uzbekiston, 1997.-27-29 b; Chelovek i sosialnoe razvitie.-M.:Politizdat.1989.-S.307. 3.Qarang :Mirolimov Sh. Mahalla mehri.-T.: 1994.-15-22 b.

1. Иконникова С.Н. Диалог о культуре.- Л.: Лениздат, 1987.- 143 б.

2. Капанг-Конабоев В. Бун вақт ва дам олин маланияти - Т.

Ayni paytda bo'sh vaqt va undan turmush tarzini yaxshilashda, takomillashtirishda foydalanish muammosi tobora murakkablashib, jiddiy iqtisodiy, ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-ahloqiy, ruhiy ahamiyat kasb etayotgani, texnika, axborot, fan, madaniyat va turmush tarzining o'sgani, takomillashgani sari, shaxs hayotiga, ruhiyatiga va ma'naviyatiga ta'sirini o'rganishga zaruriyat ham paydo bo'lmoqda.

Sosiolog olim S.N.Ikonnikova bo'sh vaqtdan foydalanuvchi kishilarni olti tipga ajratadi.

Birinchi tipdagi kishilar bo'sh vaqtini o'ta qadrlab, undan unumli foydalanishga harakat qiladilar. Ularning har bir soat va daqiqalari ular hisobida bo'lib, qiziqarli va muhim narsa, hodisalar ularning nazaridan chetda qolmaydi. Bunday kishilar qiziqarli kitoblar, spektakllar, kinofilm, kontsert, ko'rgazmalardan xabardor bo'lishga intiladilar. Maboda madaniy hayotdagi bironta yangi voqea, hodisa bilan tanishishga vaqtlari etmay qolsa ular qattiq afsuslanadilar.

Ikkinchi tipdagi kishilarning diqqatini asosiy faoliyatidan tashqari, unga aloqador bo'lmagan kasbni egallashga ham qaratilgan bo'lib, ular barcha bo'sh vaqtlarini uni sport, badiiy havaskorlik yoki ijodning boshka turilarini astoydil o'rganishga bagishlaydilar.

Uchinchi tipdagi kishilar bo'sh vaqtini o'z kasbini yanada to'liqroq bilishga bagishlashadi. Ular asosiy ish vaqtida bajarish qiyin bo'lgan faoliyatlar bilan bo'sh vaqtda ham shug'ullanishadi, o'z kasbiy mahoratlarni o'stirishga, yangilik yaratishga harakat qilishadi, ixtiro qilishga intilishadi. Bu tipdagi kishilarga ko'proq olimlar, rassomlar, artistlar, yozuvchilar kiradi. Ularning orasida qishloq xo'jaligi xodimlari, ishchi, rasionalizator va texnik xodimlarni ham uchraydi.

1.Qarang:Xalq so'zi,
2004.10 - fevral.

2.Qarang: usha joyda.

To'rtinchi tipdagi kishilar bo'sh vaqtini asosan uyda o'tkazishga intiladilar. Ular teatr, kino, klub, Park, madaniyat muassasalariga borib dam olishga erinadilar, televizorni esa ertadan kechgacha tomosha qilishlari mumkin.

Beshinchi tipdagi kishilar bo'sh vaqtini tanish-bilishlari, do'stlari, xamkasblari davrasida suhbat, muloqot bilan o'tkazishga harakat qilishadi. Bunday kishilar yolg'iz qolishsa, hech narsa bilan qiziqishmaydi, tasodifiy guruhlariga tushib qolganlarida esa har qanday bemaqsad faoliyatga qo'shib ketaverishadi. Ular yolg'iz qolganlarida zerikishadi, mustaqil hech narsa bilan shug'ullana olishmaydi

Oltinchi tipdagi kishilar hech narsa bilan qiziqmaydilar, vaqtini umuman

1. Иконникова С.Н. Диалог о культуре.- Л.: Лениздат, 1987.- 143 б.

2. Капанг-Конабоев V Бун вақт ва дам олинган маданияти - Т. qadrlamaydilar, umrining benaf o'tib ketayotganiga ham afsuslanmaydilar. Bunday ma'naviy qashshoq kishilarga ovqat, kiyim-kechak bo'lsa bas, boshqa narsalarning hammasi ular uchun orzugulik ahamiyatga ega emas, ularni hech kim bezovta qilmasa bas¹.

"Inson organizmi shunday tuzilganki, unda xilma xil- /aqliy, jismoniy, emosional/ faoliyat turlari takrorlanib turadi. Birinchisi - aqliy faoliyat: ko'proq olimlar, ijodiy xodimlar, ilmiy - texnik xodimlar ishida namoyon bo'ladi. Ikkinchisi-jismoniy faoliyat: u asosan ishchilar, kolxozchi dehqonlar, sportchi va izmatchilar ishida namoyon bo'ladi. Uchinchisi - emosional (yoki emosional aqliy) faoliyat: u o'qituvchilar, vrachlar, aktyorlar, san'atkorlar va boshqa kasb egalari ishida namoyon bo'ladi".

Mana shu uch xil faoliyat kundalik hayotda qanchalik ko'p almashib tursa, shaxs hayoti shunchalik qiziqarli kechadi, bunday kishilarda psixofiziologik charchoq o'rnini tezda tetiklik, kelajakka va o'z kuchiga ishonch egallaydi.

Bo'sh vaqtни sermazmun o'tkazishda xalqimizga xos milliy an'nalar, vositalar, shakllar mavjudki, ulardan samarali foydalanish O'zbekona milliy turmush tarzini boyitishga yordam beradi.

O'zbekona milliy turmush tarziga xos qadimiy an'analardan biri choyxo'rlikdir. O'lkamiz qadimdan choy etishtiruvchi Xitoy va Hindiston bilan eng yaqin aloqada bo'lgan. Xalqimizning Islom an'analari sadoqatli bo'lgani bois, spirtli ichimliklarni iste'mol qilgan emas, shuning uchun choyxo'rlik turmush tarzining atributiga aylangan. Bunga tabiiy muhit, issiq iqlim ham ta'sir etgan. Ikki inson yoki ko'pchilik uchrashganida hamma narsa muloqot, suhbat, mulohaza choy atrofida bo'lgan. Eng aziz mehmonni, qimmatli insonni o'zbek "bir piyola choyimizga mehmon bo'ling"-deb uyiga chorlaydi. Choy damlash, choy quyish, choy uzatish, mehmon ko'nglidagi choyni topa bilish milliy belgilardan biriga aylangan. Afsuski, Evropa turmush tarzining ta'sirida keyingi yillarda choy madaniyatiga e'tibor pasaydi. Ushbu an'anani tiklash, turmush tarzimizning atributiga, betakror milliy udumga aylantirish payti keldi. Ushbu milliy an'ananing ijobiy tomoni shundaki, u shaxsni bo'sh vaqtini bezorilik, o'g'rilik, giyohvandlik kabi g'ayriahloqiy istaklarga berilishdan asraydi. To'g'ri, ba'zan yoshlar choyxonaga borishar ekan, unga uzun kechalarni sarflaydilar. Bu esa ularning o'z bo'sh vaqtidan o'qish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bog'liq qator muammolarni hal qilishda foydalana olmasliklarini ko'rsatadi. Shuning uchun oiladagi asosiy xarajatlar farzandlarga til o'rganishga, kompyuter, faks va xokozolari sotib olishga, ishbilarmonlik bilan shugullanishga va ular bilan bogliq texnologik taraqqiyot bilan qiziqishga sarflanishi lozim. "Gap" oiladagi, mahalla-ko'y, ishxonadagi do'stlik munosabatlariga putur etkazmasligi, shaxsga xudbinlik, kekkayish va ovqatxo'rlikka berilish kabi salbiy omillarni keltirib chiqarmasligi kerak. Keyingi

yillarda, ota-onalarning pul topish, oilani moddiy ta'minlash bilan band bo'lib, bola

1. Иконникова С.Н. Диалог о культуре.- Л.: Лениздат, 1987.- 143 б.

2. Капанг-Конабоев В. Бун вақт ва дам олин маланияти - Т.
tarbiyasiga, uning bo'sh vaqtiga sustkashlik bilan qarashi oddiy hol bo'lib qolmoqda.
Bugun ishchi ayollarning umumiy ish vaqti 7 soat 57 daqiqaga, ishga borib kelish,
tanaffus va tushlik esa 1 soatu 38 daqiqaga teng. Turmush uchun zarur buyumlarni
sotib olishga ular ish

kunlarida 46 daqiqa, dam olish kunlarida esa 1 soat 13 daqiqa vaqtini sarflaydi. Uyquga ketgan 8 soatdan boshqa yuqoridagi sarflangan vaqtlarni xisoblaganda, ayollarning 2 soatu 24 daqiqa vaqti bo'sh qolar ekan. Bu bo'sh vaqtining 18 daqiqasi kitob o'qish uchun ajratiladi. Bolalar tarbiyasiga ishchi ayollar 17 daqiqa, televizor ko'rsatuvi va radio eshish uchun 1 soat 9 daqiqa vaqt sarflashi kuzatiladi. Shunisi qiziqki, ko'pgina ayollar shu vaqtda yana bichish, tikish va ovqat tayyorlash bilan mashg'ul bo'lar ekan. Ayollar malakalarini oshirish uchun 7 daqiqa, mehmon kutish va mehmonga borish, kinoteatrlarga tushish uchun 8 daqiqa vaqt ajrata olar ekan. Ayollarning bir haftalik bo'sh vaqti 2,5 soatni tashkil qilar ekan.¹

Otalarning ham bola tarbiyasiga ajratadigan vaqti yuqori emas. Ularning ko'pchiligida "bo'sh vaqt" degan tushuncha hali shakllanmagan.

Ajdodlarimiz bo'sh vaqtlarida bola tarbiyasiga katta ahamiyat berganlar, ular farzandlarini biron kasbga, o'g'il bolalarini esa duradgorlik, misgarlik, hunarmandchilikga, qizlarini esa bichish-tikish, to'qish, pazandalik kabi kasblarga o'rgatganlar. Ushbu an'analar ayrim viloyatlarda qayta tiklanmoqda. Masalan, Fargonalik qizlarning do'ppi tikishi, buxorolik qizlarimizning so'zanalar to'qishi va yigitlarning ota kasbini davom ettirayotgani misol bo'lishi mumkin. Kulolchilik, chinnichilik, kiygiz-gilam, palos, bo'z-mato to'quvchilik, pichoqchilik, qo'girchoqlar va o'yinchoqlar yasash an'analari qayta tiklanmoqda. Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" asarida islomdan oldin va Islom kirib kelgan davrlarda Buxoro shahrida turli kasb-kor, hunarmandlar mahallalari bo'lganini qayd etgan. Hunarmandchilik an'analari bugun Rishton, Pop, Qo'qon, Asaka, marhamat, Buxoro, Shahrisabz, Xiva, Toshkentda qayta tiklanmoqda. Demak, bo'sh vaqtdan

1. Qarang Shayxova X. Nazarov Q. Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy Kamolot.- T.: 1992.- 35 b. 2.Qarang:Narshaxiy Abu Bakr. Buxoro tarixi.-T.:Fan,1966.- 120-128 b.

rasional, milliy an'analar va tajribalarga muvofiq foydalanish qaror topmoqda. Uzbekona turmush tarzida shu bilan birga dam olish va bo'sh vaqt o'tkazishning zamonaviy usullaridan foydalanish ham kengayib bormoqda.

3.3. Milliy turmush tarzining qayta tiklanishida va taraqqiyotida ma'naviyatning o'rni

Uzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kunlaridayoq I.A. Karimov milliy taraqqiyotning bosh ko'rsatkichlaridan biri ma'naviyat, halq, millatning ma'naviy barkomolligi ekanligini ta'kidladi. "Ma'naviyat - insonning, halqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir.... Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish -O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir.»¹ Prezident ma'naviyat taraqqiyotni halq, jamiyat, davlat taraqqiyotining mezonini qilib ko'rsatar ekan, har bir halq, millat o'zining tarixiy-ma'naviy boyliklarini o'zlashtirmay, ularni davr talablari darajasidagi umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitmay rivojlantirishga erisha olmasligini qayd etadi. Demak, ma'naviyat keng kamrovli, ijtimoiy taraqqiyotning barcha tomonlariga taalluqli hodisadir.

Keyingi yillarda "ma'naviyat" tushunchasi haqidagi turli fikrlar bildirilmoqda. Ularning bir guruhida ma'naviyatga alohida ruhiy, hatto ilohiy holat sifatida qarash ustun tursa, boshqalarida ma'naviyatni madaniyatga xos sifatlar deb qarash kuzatiladi. Masalan, F.Zikrillaev ma'naviyat va qadriyatni "aslida ilohiy" deb aytsa, A.Erkaev ma'naviyatga "insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya'ni insonning mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go'zallikni sevish, undan zavqlanish, yovuzlikka nafrat, Iroda, matonat va shu kabi ko'plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuidir" deb ta'rif beradi. Bu aslida

1.Karimov I.A.O'zbekistonning o'z istiqloli va taraqqiyot yo'li. // Uzbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. - T.: Uzbekiston, 1996. - 80-81 b. 2.3 Zikrillaev F. Ma'naviyat-aql-idrok mahsuli // ishonch, 1995, 28 iyul. Z.Erkaev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. - T.: Ma'naviyat, 2002. - 46 b.

madaniyatshunoslikka oid adabiyotlardagi ma'naviy madaniyatning bir oz o'zgartirilgan ko'rinishidir. Shuning uchun ham A.Erkaev ma'naviyat "ma'naviy madaniyatni... qamrab oladi"¹ deb ochiq kayd etadi. Bizning fikrimizcha, ushbu yondashuv ilmiy, falsafiy va ijtimoiy maqsadlarga Moe keladi, shuning uchun **biz** ushbu mavzuda unga tayanamiz.

Ma'naviyatning turmush tarzi bilan bog'liqligi bir-biriga dialektik bog'liq shaxs-oila-jamiat tizimining ichki mohiyati va funktsional xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ushbu tizimlar, pogonalarni mudom kerakli chegara, doirada ushlab turadigan, ijtimoiy taraqqiyotda ularni uz ququqlariga, faoliyat doiralariga va burchlariga ega sub'ektlar sifatida amal qilishini ta'minlaydigan narsa ma'naviyat va uning komponentlaridir.

Agar A.Erkaevning yuqoridagi yondashuvi va dissertasiyamiz ilmiy-nazariy kosepsiyasidan kelib chiqsak, ma'naviyatning milliy turmush tarzidagi o'rnini:

- milliy istiqlol goyasining shakllanganida;
- shaxsning tarixiy-madaniy boyliklarini o'zlashtirgan va shu asosda o'z xayotini tashkil etish usulida;
- turmushini milliy, umuminsoniy kadriyatlar, normalar, talablar doirasida olib borayotganida;
- jamiyatda karor topgan ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va ahloqiy tartiblarga amal qilishida;
- ma'rifatida, jamiyat hayotini ilmiy-rasional asosda boshqarishda ishtirokida;
- ma'naviy-madaniy faoliyatida ko'rishimiz mumkin.

Milliy turmush tarzimizning kayta tiklanishi ma'naviy jarayonlar markazida turgan milliy istiqlol goyasining shaklanishiga bog'liqdir.

1.Erkaev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. - T.: Ma'naviyat, 2002. - 46 b.

"Hayot mavjud ekan, mamlakatlar, davlatlar va ularning manfaatlari bor ekan, ular o'z taraqqiyot yo'lini, ertangi kun ufqlarini o'zining milliy goyasi, milliy mafkurasi orkali belgilab olishga intiladi". Demak, Uzbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida o'z halqini buyuk maqsadlarga etaklaydigan, uning farovon turmush qurishga da'vat etadigan goyalariga, qarashlar kontsepsiyasiga ega bo'lishi tabiiydir. Shuning uchun I.A.Karimov deydi: "pirovard maqsadimiz bo'lgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish borasidagi intilishlarimizda biz uchun ruhiy-ma'naviy kuch-quvvat manbai, ilmiy asos - bu milliy goya, milliy mafkuradir".

G'oya "aks ettirayotgan ob'ekt, hodisa, jarayonni o'rganish natijasida hosil bo'lgan bilimni ixcham va umumlashtirilgan holda ifoda etadi. Bunda, bir tomondan, hayotiy-amaliy faoliyat davomida to'plangan tajriba, ikkinchi tomondan, ilmiy bilimlar erishgan natijalariga tayaniladi".³ Ushbu tasavvurdan kelib chiqib muallif "millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini anglashni o'zida mujassamlashtirgan, uning etnoijtimoiy birlik sifatidagi tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalaydigan, taraqqiyotga xizmat qiladigan goyaga milliy goya".⁴ deb ta'rif beradi. Demak, ushbu ta'rifni turmush tarziga tatbiq etsak, milliy istiqbol goyasi O'zbekona turmush tarzining tarixi, buguni va istiqbolini o'rganishni, uning o'ziga xos tomonlarini, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy, ma'naviy-madaniy xususiyatlarini tadqiq etishni taqozo qiladi.

"Turmush tarzi" turar joy, oila, mahalla bilan bog'liq tushunchadir. Kishi umrining asosiy qismi, hayotiy intilishlarining asosiy

1. Karimov.I.A Milliy istiqbol mafkurasi - halq e'tiqodi va buyuk kelajakka ichonchdir // ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T. 8. -T.: Uzbekiston, 2000. - 462 b.

2. Usha joyda. - 463 b.

3. Ochildiev A. Milliy goya va millatlararo munosabatlar. - T.: Uzbekiston, 2004. - 5 b.

4. Usha joyda. - 15 b.

komponentlari, hatto aytish mumkinki, insonni shakllantiradigan, uning insoniy sifatlarini namoyon qiladigan voqelik - bu turmush tarzidir. Milliy goya, milliy ong, milliy madaniyat, xullas, millatga taalluqli barcha xislatlar, belgilar aynan turmush tarzida namoyon bo'ladi. Shuning uchun milliy istiqlool goyasi milliy turmush tarzi bilan bog'liqdir. Milliy

turmush tarzining qaita tiklanishi va taraqqieti esa milliy istiqlool goyasi

izlab topgan, tadqiq etib, anglab etgan nazariy kontsepsiyalariga, taraqqiyot modellariga tayanadi.

Milliy istiqlool goyasi mahalla, aholi turar joylaridagi ma'naviy jarayonlarni o'rganishga e'tibor barayotgani bejiz emas. Turmush tarzidan

| olgan qadriyatlar, goyalargina kishilar ongining, ma'naviy olamining ajralmas atributiga aylanadi. Masalan, "Respublika fuqarolar turmush tarzida milliy va umuminsoniy qadriyatlar mavzuida o'tkazilgan sosiologik tadqiqot natijalari ham ma'lum bo'ladiki, respondentlarining 68% mahalla I milliy istiklol goyasini shakllantiruvchi markazdir" deb javob berishgan. Respondentlar milliy istiklol goyasiga oid ma'naviy-madaniy tadbirlar asosan aholi turar joylarida, mahallada (69%), o'quv yurtlarida (68%), mehnat jamoalarida (52%), madaniy-ma'rifiy markazlarda (47%) o'tkazilishi zarur degan fikrlarni bildirishgan.¹

Demak, milliy istiklol goyasi va mafkurasini shakllantirish, ularning xayotimiz, turmush tarzimiz, tafakkurimizda aniq vaqelikka aylantirish eng avvalo mahallaga bog'liqdir, chunki mahallalarda chinakam sharqona

munosabatlar "muomala madaniyati, haqchil udum va urf-odatlar saqlanib qolgan". Aynan ushbu tarixiy-madaniy qadriyatlar milliy turmush tarzini

1.Qarang: Analiticheskaya spravka po rezultatam oprosa obtshestvennogo mneniya Obtshechelovecheskie i nasionalnie tsennosti v obraze jizni grajdan Respubliki. - T.: I 2002.-S. 18-23.

2.Qarang: Mirolimov Sh. Mahalla mehri. - T.: Navro'z, 1994. - 11 b.

qayta tiklash, ma'naviy boyitish va taraqqiyotni ta'minlash uchun zamin, poydevor bo'ladi.

Turmush tarzi uchun o'ziga xos makon, uning mavjudlik sharti - oila va oilaviy muhitdir. Mahalla, oila turmush tarzini shakllantiruvchi asosiy institutlar sifatida milliy istiqlool g'oyasini qaror topishini ta'minlaydi. Shu maqsadda mahalla va oilalar birgalikda "uz mahallam-o'z uyim", "Qaynona va kelin", "totuvlik - uyning davlati", "Milliy mafkura va yoshlar tarbiyasi" kabi suhbatlar, kechalar o'tkazish ba'zi viloyatlarda an'anaga aylangan.¹

Kishilar turli goyalarga ergashib ketavermaydilar. Ular avvalo g'oyalarni o'z manfaati, e'tiqodi, turmush tarzi bilan taqqoslaydilar. Shuning uchun kishilar e'tiqodiga, manfaatlarga, tarixiy-madaniy kadriyatlariga, ahloq, odobi, mentalitetiga, turmush tarzini takomillashtirish, hayotini farovonlashtirish maqsadlariga xizmat qiladigan g'oyalarni qo'llab-quvvatlaydilar.³ Milliy istiklol goyasi negizida millat, halq manfaatlari, farovon turmush yaratish maqsadi yotgani uchun ham u jamiyat tomonidan faol muhokama qilinmoqda, yangi qarashlar, vazifalar va yo'nalishlar bilan takomillashtirilmoqda.

Tarixiy-madaniy boyliklarni o'zlashtirish nafaqat har bir kishi uchun qarz va farz, shu bilan birga u shaxs ma'naviyatining ko'rsatkichi hamdir. Kishi ushbu boyliklarni tayyor holda topadi, ya'ni ularda xalq, tarix o'z izini qoldirgan. Tarixiy-madaniy boyliklarni o'zlashtirish yoki o'zlashtirmaslik kishi ixtiyorida emas, chunki ular ijtimoiy muhitning o'zagini, shaxsni kamolga etkazgan shart-sharoitlarning magzini tashkil etadi. Har bir kishida, uning ixtiyori va hoxishidan qat'iy nazar, tarixiy-madaniy boyliklar shakllantirgan ijtimoiy muhitning ta'siri yashaydi. A.Erkaev tarixiy-madaniy boyliklar shakllantirgan davrlarni: 1) eng kadimgi (arxaik) davr va ilk zardo'shtiylik bosqichi; 2) islomgacha bo'lgan diniy-mafkuraviy pilyuralizm bosqichi; 3) Islom tamaddunining gullab yashnashi va Temuriylar davrida qayta uyg'onish bosqichi; 4) an'anaviylikning qaror topishi va ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy tanazzul bosqichi; 5) mustamlakachilik davri ma'naviyati; 6) istiklol davri ma'naviyati kabilarga bo'lib qarashni taklif etadi.¹ Har bir davrdagi yaratilgan ma'naviy-madaniy boyliklarga baho berar ekan, u har bir tarixiy bosqich o'z ma'naviyati va turmush tarzini yaratgani, ularga baho berganda o'sha davr xususiyatlaridan kelib chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Demak, hech qachon va hech bir turmush tarzida, ma'naviyatda tarixiy-madaniy boyliklarning mutlaq hammasi aks etavermaydi, davr talablariga va kishilarning aniq ehtiyojlariga

1.Qarang: Davlat, jamiyat, oila va yoshlar tarbiyasi muammolari. - T.: Uzbekiston, 1997. - 60 b. •

2.Qarang: ma'naviy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati. - Toshkent, 2003. - 147 b.

Moe keladigan qadriyatlarga saqlanib qoladi. Shu nuqtai nazardan shaxs ma'naviyatidagi zamonaviy talablar va shaxs ehtiyojlarini ifoda etadigan \ tarixiy-madaniy boyliklarni o'zlashtirish va shu asosda o'z hayotini tashkil etish usullari kanday?

Hayot, ayniqsa bozor munosabatlari shaxedan ijtimoiy munosabatlarda faol, dadil qatnashishni talab qiladi. Faollik, dadillik sub'ektiv tushunchalar emas, ular shaxening mavjud munosabatlar tizimida tutgan pozitsiyasi, uz kasb-korini egallaganlik darajasi, yon-atrof bilan konstruktiv aloqalarga kira olish qobiliyatidir. Tarixiy-madaniy qadriyatlar ushbu qobiliyat bilan uyg'unlashishi, shaxening pozitiv hulq-atvori, xatti-harakatlari bilan chatishib ketishi zarur. Masalan, Navoiy yozadi:

"Kim, kuchuk birla xo'tikka qilsa qancha tarbiyat, it bo'lur dag'i eshak, bo'lmasdir aslo odamiy"¹. Bu o'rinda shoir talantsiz yoshga tarbiyang befoyda, qancha harakat qilsang ham u talantli bo'lib qolmaydi, degan fikrni ilgari suradi. Lekin bizning umumiy ta'lim, pedagogikamiz talantsiz bola yo'q, hammani talantli qilsa bo'ladi, deb hisoblaydi. Agar biz Navoiy so'zlariga amal qilsak, ko'pgina bolalarni maktabdagi ta'lim-tarbiyadan chetlashtirgan bo'lardik, biroq pedagogikaning talantsiz bola yo'q, har bir bola o'zicha talantli, ta'lim-tarbiyaning vazifasi ana shu talantli ro'yobga chiqarishdadir, degan yondashuvini Navoiy so'ziga tatbiq etsak, har bir kishida hayvoniy sifatlar ham bor, ta'lim-tarbiya undagi odamiy fazilatlarni rivojlantirishga

qaratilmog'i zarur degan xulosaga kelimiz. Demak, tarixiy-madaniy qadriyatlar davr talablari ta'sirida transformasiyaga uchrashi mumkin. Bundan tashqari inson,

1.Qarang: ma'naviy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati. - Toshkent, 2003. - 99-100 b.

2 qarang: o'sha joyda. - 165 b.

o'z amallari va ijtimoiy faoliyatini, turmushini qanchalik rejalashtirmasin, u qaerdadir xato qilishi, adashishi turgan ran. Hatto bozor munosabatlari xatoni, adashishni tabiiy hol qilib qo'yadi. Faqat konstruktiv aloqalargina xato va adashishlar ehtimolini kamaytiradi. Ushbu aloqalar tarixiy-madaniy tajribalarni o'z mezonlaridan o'tkazishni, ulardagi pozitiv tomonlardan foydalanishni taqozo etadi.

Turmush tarzida hayotni muhim ushlab turishga qaratilgan urf-odatlar, normalar, tartiblar ko'p. Aynan ushbu jihatlari turmush tarzidan tarixiy-madaniy qadriyatlarning kengroq va chuqurroq o'rin olishiga imkon yaratadi.

Masalan, maxsus kuzatishlardan ma'lumki, faqat oila tashvishi, turmushyumushlari bilangina yashaydigan ijtimoiy muammolar bilan qiziqmaydigan, tsivilizasiya yutuqlaridan bexabar kishilar konservativ fikrlashga, shakllangan turmush tarzini o'zgartirmaslikka, o'zi qabul qilgan normalarni, tushunchalarnigina haqiqat deb bilishga moyil bo'ladi.¹ Ular turmush tarzini urf-odatlar, o'zgarmas normalar orqali boshqaradilar.

Umuminsoniy va milliy qadriyatlar, normalar, axloqiy talablarning turmush tarzida namoyon bo'lishi shaxs ma'naviyatiga cheksiz talablar qo'yadi. Chunki, umuminsoniy qadriyatlar o'zining serqirraligi va mohiyatiga ko'ra o'ta rang-barang, cheksizdir. Ularga "diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi kurash, atrof muhitni muhofaza qilish, ekologik tarbiya va madaniyatni rivojlantirish, insoniyatning sihat-salomatligini saqlab qolish, o'zaro hamkorlikda xavfli kasalliklarning oldini olish, oziq-ovqatga energiya va yoqilg'i tansiqligini tugatish, milliy boyliklarni, tsivilizasiyani asrab-avaylash, o'zaro nizolarning oldini olish, tinchlikni saqlab qolish va insoniyat taqdiriga daxldor bo'lgan boshqa qadriyatlar kiradi". Shaxs pog'onasida ushbu

qadriyatlar kishining ijtimoiy-ma'naviy pozisiyasida, kishilik duch kelayotgan muammolarning qanchalik muhimligini idrok etishida va nihoyat, inson hayotini saqlab qolishga qo'shgan ulushida namoyon bo'ladi. Inson hayoti oliy qadriyatdir,

1 .Qarang: Alisher Navoiy. Hikmatli so'zlar. - T.: 1985. - 117 b.Bunday fikrlarni Sa'diy, Fuzuliy kabi mutafakkirlar ijodidan ham keltirishimiz mumkin.

har bir kishi o'zini ongli, ma'naviyatli va ma'rifatli deb bilgan har bir kishi umumplanetar muammolar haqida o'ylashi, qo'lidan kelganicha ularni ijobiy hal etishga yordamlashishi kerak, bu uning insoniy burchidir.³ Demak, ma'naviyat, ayniqsa umuminsoniy qadriyatlar bilan aloqadorlikda u sub'ektiv omil bo'lib qolmaydi; har bir kishi umuminsoniy qadriyatlar bilan aloqadorlikda u sub'ektiv omil bo'lib qololmaydi; har bir kishi umuminsoniy qadriyatlarni asrash va qaror topishi uchun turmush tarzidagi imkoniyatlar orqali kurashishi ham lozim. Masalan, kar bir kishi o'zi yashayotgan hovli yoki mahalla yon-atrofida ekologik tozalikni ta'minlash uchun kurashishi, boshqalarni ushbu ishga jalb etishi mumkin. Ming afsuski, respublikamizda bu borada e'tiborli

misollar kam. Birgina 2001 yilda atrof-muhitni, ekologiyani buzgani uchun 11 mingdan ziyod mansabdor shaxslar va fuqorolar ma'muriy javobgarlikka tortilgan. Bu 1999 yilga nisbatan 2,4 baravar ko'pdir. Tabiiy muhitga zarar keltirgani uchun 354 korxona, tsex, inshootlar faoliyati to'xtatib qo'yilgan.¹ Ma'naviy-ekologik va huquqiy-ekologik tadbirlarni uyg'unlashtirgan holda, bizning fikrimizcha, butun respublika miqyosida keng targ'ibot ishlari olib borish darkor.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar jamiyatimizning ma'naviy taraqqiyotiga yo'g'rilgani bilan umuminsoniy xarakter kasb etadi, aynan ushbu xislat yurtimizda turli millat va etnoslarning tinch-totuv yashashini ta'minlaydigan ma'naviy-ruhiy muhitni vujudga keltirmoqda. "O'zbek halqi ruhining tiklanishi, millat ma'naviy-axloqiy ideallarning shakllanishi,- deb ko'rsatadi I.A.Karimov, -chuqur milliylik bilan umuminsoniylik chambarchas bog'liq bo'lgan hodisadir. O'zbekistonda yashayotgan halqlar, o'ziga xoslikni yo'qotmagan holda, umumiyruhiyatga, hulq-atvor falsafasiga, turmush tarziga ega bo'lmoqdalar. Bu esa mustaqillik yillari mobaynida millatlararo totuvlik manbai bo'lib kelgan yagona ma'naviy-ruhiy negizni vujudga keltiradi".² Bugun respublikamizda uzbek tilida gaplashish bilan bir qatorda rus tilida gaplashish an'anasi

Qarang:1 Stil jizni lichnosti, Teoricheskie i metodologicheskie problemi. - Kiev, Naukova dumka, 1992. - S.200-228; Samoregulyasiya i prognozirovanie socialnogo povedeniya lichnosti. L.: LGU. 1979. - S. 22-24.

2.Ma'naviy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati. - Toshkent, 2003. - 43 b. / Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi.

3.Qarang: Pechchei A. Chelovecheskaya kachestva. - M.: Progress, 1980. - S. 14.

4.Karimov I.A. Uzbekiston XXI asr bo'sagasi: xavfsizlikka tahdid, barkarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 6. - T.: Uzbekiston, 1998. - 129 b.

saqlanib qolmoqda. Respublikamizning ayrim hududlarida esa qoraqolpoq, tojik, qozoq tillarida muloqot qilishga ham duch kelamiz.

Bizning fikrimizcha, til-ma'naviy boylik, ammo turmush tarzida bir tilning mutloq hukmronligiga erishib bo'lmaydi. Ko'p millatli davlatda jamiyat, ma'naviy hayot, ayniqsa turmush tarzi, ko'p tillik asosida rivojlanadi. Turmush tarzining nafaqat milliy-madaniy an'analarga tayanish zarurligini, shu bilan birga kishilar, elatlar, Millatlar ma'naviy hayotida ma'lum bir yaqinlik, konsensus, umumiy ruhiy muhit shakllanganini ham ko'rsatadi. Shu bilan birga o'zbek tili millat tili va davlat tili ekan uni ijtimoiy hayotdagi, millatlararo muloqotdagi o'rnini ta'minlashga intilishimiz lozim.

Ma'naviyat-xalqlarning baynalminallashuvi asosidir. Umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarni tan olmaydigan yoki ulardan o'zining tor, milliy xususiyatlarini ustun qo'yadigan doirada, muhitda kishilararo ahillik, konsensus haqida gapirish qiyin. Gap qaysi davr va tuzum haqida ketmasin umuminsoniy taraqqiyot, umuman xar bir davlatning, xalqning tsivilizasiyaning rivojlanishi xalqlar o'rtasidagi internasionallashish jarayonlari orkali sodir bo'ladi.¹ Q.Xonazarov bu jarayonlarning atributlari tsivilizasiya, bozor munosabatlari va milliy taraqqiyotda deb biladi. Haqiqatan ham, bugun ijtimoiy taraqqiyotni, turmush tarzini tsivilizasiyasiz, bozor munosabatlari va milliy taraqqiyot belgilarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Biroq turmush tarzi taraqqiyotida titul millat va uning tili etakchi ahamiyatga ega bo'lishini unutib bo'lmaydi.

Uzbekiston da o'zbeklar 75 % ni, qardosh qo'shni Millatlar 20 % ni tashkil etadiki,¹ ushbu hol uzbek tilining milliy taraqqiyotdagi o'rnini oshib borishini esdan chikarmaslikka undaydi.

Ma'naviyatning turmush tarziga ta'siri eng avvalo jamiyatda qaror topgan

1. Qarang: Xonazarov K. Internatsionalnoe vospitanie v usloviyax nezavisimosti. - T.: KATARTOL-Kamolot, 1997.-S. 13-15.

2.Qarang: Usha joyda. - S. 15.

ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy tartiblarning shaxs xatti-harakatlarida namoyon bo'lishida aks etadi.

Uzbekiston Resublikasi bozor iqtisodiyotiga asoslangan, demokratik tamoyillar va qonun ustivorligi qaror topgan fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidan bormoqda. Ushbu jamiyat shaxsdan bozor iqtisodiyoti qonunlarini chuqur o'zlashtirib olishni, demokratik tamoyillarni hayotga joriy etishda ijtimoiy faollik ko'rsatishni, qonun ustuvorligini ta'minlash uchun siyosiy-huquqiy jarayonlarning haqiqiy sub'ekta sifatida harakat qilishni taqozo etadi.

"Fuqarolik jamiyatida shaxning iqtisodiy va siyosiy turmushini erkin, ixtiyoriy asosda qurish ta'minlanadi, umuminsoniy huquqlarga alohida e'tibor beriladi, davlat organlari faoliyati yuzasida jamoatchilik nazorati o'rnatiladi. Vaqti kelib kuchli davlat

funktsiyalari asta-sekin tadriijiy ravishda kuchli jamiyat zimmasiga o'tadi. Fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda, o'z hududlaridagi ijtimoiy, madaniy, ma'naviy va xo'jalik vazifalarini hal etish, ommaviy-madaniy tadbirlarni o'tkazishdagi faolliklari hozirgidan ko'ra ancha kuchayadi.

Fuqarolik jamiyatida har qanday masala, shaxslarning ma'naviy-madaniy hayotidagi muammolarni ham qonunlar, huquqiy me'yorlar asosida adolatli yo'l bilan hal etiladi. Qonun fuqarolik jamiyati hayotidagi barcha munosabatlarni tartibga solib turadi. Demak, fuqarolik jamiyatining negizi, poydevori qonun, qonuniylikdir.»¹

Turmush tarzida qonunlar belgilab berilgan normalarga itoat etish, umumxalq manfaatlari bilan o'z manfaatlarini uyg'unlashtirish, jamiyatdagi axloqiy tartiblarni tan olish, siyosiy hayotdagi jarayonlarda faol qatnashish yuksak ma'naviy sifatlarni talab etadi. Hech bir jamiyatda ushbu sifatlarni shakllantirish bilan maxsus shug'ullanuvchi institutlar mavjud emas, har bir

1.Qarang: Xonazarov K. Internacionalnoe vospitanie v usloviyax nezavisimosti. - T.: KATARTOL-Kamolot, 1997. - S. 41.

shaxs ularda ixtiyoriy tarzda qatnashadi. Ushbu normalarga rioya etishni turmush tarziga xos voqeaga aylantiradi. Biroq tajriba bu murakkab jarayonlar negizidagi asosiy maqsad kishilar, ayniqsa yoshlar tomonidan etarli anglab etilmayotganini ko'rsatadi. S.Jo'raevning kuzatishicha, bugun yoshlarning aksariyati siyosiy-huquqiy jarayonlarning faol sub'ektlari bo'lib etishishlari

zarurligini oxirigacha tushunib etganlaricha yo'q. "Hozirlikcha ular o'zlarining siyosiy-huquqiy jarayonlarda ishtirok etishini inson sifatida shakllantirishlarida, jamiyatda o'z o'rinlarini topishlarida unchalik muhim bo'lmagan bir mashg'ulot deb bilmoqdalar.»³ S.Jo'raev fikrining to'g'riligini, ya'ni aholi qatlamlari tomonidan siyosiy-huquqiy talablarning oshib borayotgani ham ko'rsatib turibdi.⁴ Demak, ma'naviy-huquqiy sohada tinmay izlanishlar olib borishga to'g'ri keladi.

Ma'rifat, bilim, jamiyat hayotini ongli, rasional boshkarishda ishtirok etish ham shaxs ma'naviy olamining eng muhim qirralaridan biridir.

"Odamzot dunyoga kelganidan buyon mudom ilm-ma'rifatga intilib yashaydi. Buning zamirida, shubhasizki, o'ziga xos ma'no bor. Ya'ni insonning vujudida, yuragida barkamollikka ehtiyoj mavjud. Bu ehtiyojning cheku chegarasi yo'q. Shu bois inson qancha mukammallashsa, xam o'z-o'zidan qoniqmaydi, yana barkamol bo'lsam, deydi. Mana shu doimiy intilish bashariyatga yangi-yangi ilmlarni beradi. Aytish joizki, aynan mana shu intilish inson kalbidagi irodadan, ma'naviyatdan darakdir.»¹

Turmush tarzi ham bilimga, rasional boshqarishga muhtoj. Oilaga ketadigan sarf-xarajatlar, farzandlarning o'qishi, kiyinishi, noz-ne'matlarni iste'mol qilishi, transport xarajatlari bugun turmush tarziga rasional yondashishni

1. Mirhamidova M. Uzbekiston: demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida. - T.: Universitet, 2003. - 26 b.
2. Qarang: Saifnazarov I. Ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. - T.: Sharq, 2001.-7-8 b.
3. Jo'raev S. Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot. - T.: Toshkent davlat Sharqshunoslik instituta nashr, 2003. - 178-179 b.
- 4.Qarang: Xalq so'zi, 2002, 29 mart.

taqozo etmoqda. Ma'rifat, bilim kishi ongining, dunyokarashining shakllanishi uchun qanchalik muhim bo'lmasin, ular turmush tarzini oqilona tashkil qilish uchun ham shunchalik zarurdir. Masalan, iqtisodiyot qonunlarini bilmay, ularni maxsus o'rganmay turib, instinktga asoslangan holda oila hayotini tashkil etib bo'lmaydi. Mehnat qilib pul topgan odam uni behudaga yoki bir kunlik dabdabali to'y, ma'rakalarga sarflamaydi, ertaga duch keladigan sarf-xarajatlarni, oilasini boqishni o'ylaydi.² Demak, ma'rifat, bilim faqat intellektual ehtiyojni qondirish uchun emas, balki shaxsga o'z turmushini, hayotini rasional tashkil qilish uchun ham zarurdir.

Turmush tarzining yuksaklik belgisi shaxning ma'naviy-madaniy faolligidir. Mutaxassislar ushbu faollik turi orqali turmush tarzining shaxs ongi, hayoti, dunyoqarashi kabi omillar bilan dialektik bog'liqligini, ushbu bog'liqlik va yuksaklik darajasini o'lchash, bilish mumkin deb hisoblaydilar.

Ma'naviy-madaniy faoliyat (faollik) shaxning intellektual qobiliyatini ro'yobga chiqarish usulidir. Turmush tarzida u oilaviy munosabatlardan tortib to bo'sh vaqtda boshqalarning ma'naviy hayotini go'zallashtirishga qaratilgan badiiy havaskorlik ijodi yoki jamiyat va davlat ishlarini boshqarishga yo'naltirilgan faoliyat turlarigacha o'z ichiga oladi.

Shaxs ma'naviy-madaniy faoliyatida kishilararo kechadigan murakkab munosabatlarning mohiyatini anglab etadi, ijtimoiy manfaatlarning kishilar turmushiga ta'sirini, inson ruhiyati bilan bog'liq badiiy, estetik, texnik ijod turlarining o'ziga xos qonunlarini idrok qiladi va o'zi ham betakror ijod namunalari yaratishga intiladi. Xuddi shunday jarayonlar uning axloqiy hayotida, o'zini-o'zi anglab etishida ham ro'y beradi. Turmush tarzini oqilona tashkil etish va rasional boshqarish negizida ham aslida insonning ma'naviy-madaniy faolligini rivojlantirish, uning ichki dunyosida yashirin yotgan,

1. Qarang: Saifnazarov I. Ma'naviyat va bilim - barkamollik qanotlari. - T.: 1999. -3 b.

Karang: Saifnazarov I. Oila barqarorligining ma'naviy asoslari. - T.: - 17-18 b.;Uniki. Iqtisodiy manfaatlar uyg'unligi va barkamol inson tarbiyasi.- T.: Yangi asr avlodi, 2002. 17 b.

ma'lum bir sabablar bois o'zini namoyon eta olmayotgan sifatlarini ro'yobga chiqarish yotadi. Shuning uchun ma'naviyatning turmush tarzidagi o'rni shaxning

ma'naviy-madaniy boyliklarni nafaqat o'zlashtirgani, shu bilan birga betakror, o'ziga xos ma'naviy-madaniy boyliklar, qadriyatlar yaratgani bilan ham belgilanadi.

Ushbu yo'nalishlar u yoki bu darajada oila va jamiyat pogonalarida davom etadi. To'g'ri, shaxs turmush tarzi bilan oila va jamiyat turmush tarzlari o'rtasida farqlar mavjud. Ular eng avvalo shaxs, oila, jamiyatning turli funktsional jihatlariga va imkoniyatlarga ega ekanligida ko'zga tashlanadi.

Masalan, oila turmush tarzi erkak ayol, ota va onalar o'rtasidagi munosabatlarning, ularning oilaviy an'analar, tartiblar, qadriyatlarga itoat etishini, shaxs uz manfaatlarini mudom oilaviy manfaatlarga "qurbon" etishini taqozo qiladi. Ma'lum bir ma'noda oila shaxs xatti-harakatlarini regulyasiya qilib, kerak bo'lsa, ularni to'g'rilab, zarur narsalar bilan boyitib boradi. Jamiyat turmush tarzi esa keng ma'noda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ma'naviy-madaniy munosabatlar asosiga quriladi, ushbu munosabatlarning eng muhim tomonlarini ifoda etadi. Unda millionlab oilalarning manfaatlarini ifoda etuvchi jihatlar hayot tarzi, jamiyat hayotini ifodalovchi strategik ahamiyatga ega belgilar, tipik xususiyatlar jamlangan bo'ladiki, aynan ushbu jihatlar millat, xalq turmush tarzini prognozlashga, boshqarishga asos qilib olinadi.¹

Ilmiy adabiyotlarda turmush tarzini prognozashtirishda maqsadli prognoz, tadqiqot-prognoz va normativ prognoz usullari qo'llanilishi qayd etiladi. Maqsadli prognoz turmush tarzini yoki undagi biror voqea va hodisaning kelgusida qanday holatda bo'lishini taxmin-bashorat qiladi. Bu o'rinda o'sha voqea va hodisalarning ichki qonuniyatlariga emas, balki sub'ektlarning hayotiy tasavvurlari va hayotiy tajribalariga asoslanadi. Uni

1. Qarang: Problemi izmereniya i modelirovaniya obraza jizni. - M.:1988. S. 74-84; obraz jizni problemi duxovnix potrebnostey. - Frunze, 1986. - S. 104-106.

sosiologlar "tom ma'nodagi prognoz emas" deb atashadi, ammo u prognozashtirishda muhim ahamiyatga ega.³

Tadqiqot-prognoz voqea va hodisalarning ichki qonunlarini kuzatish, o'rganish, tahlil qilish, qiyoslash kabi ilmiy izlanishlarning xulosalariga

1. Qarang: Problemi izmereniya i modelirovaniya obraza jizni. - M.: 1988.-S. 9-12; Chelovek i sosialnoe razvitie. - M.: Politizdat, 1989.-S. 302-312; Problemi izmereniya i prognozirovaniya v oblasti kulturi. - M.: 1993. - S.68-92.

2. Problemi izmereniya i prognozirovaniya v oblasti kulturi. — M.: 1993. -S.
- 13.
3. Qarang: O'sha joyda.

tayanadi. U ehtimol-xulosalar chiqarib, ob'ektning kelgusidagi holatini aytib beradi. Normativ prognoz ilmiy tadqiqotlar natijasi sifatida ishlab

chiqilgan normalar, modellar, andozalarga muvofiq ob'ektning, turmush tarzining kelgusi holatini bashorat qiladi. Boshqarishda asosan ushbu

! normativ prognozga tayaniladi.

Ma'naviy-madaniy hayotni prognozlash juda murakkab, hatto u "prognoz qilish mumkin emas" soha hisoblanadi. Ammo unga ta'sir etuvchi ob'ektlarni prognozlash mumkin. Buning uchun: a) ushbu ob'ektlar aniq bo'lishi; b) ular ma'lum bir doyra, hudud bilan chegaralangan bo'lishi; v) prognoz ehtimollari, **ko'p** variantli bo'lishi; g) tadqiqot-prognoz doimiy, uzluksiz olib borilishi lozim.¹ Masalan, kishilar turmush tarziga ta'sir etuvchi televizor, radio, magnitafon, pleyr kabi texnika vositalarini is'temol qilinishiga qarab kishilarning kelgusidagi maishiy turmushi haqida ma'lum bir xulosalar chiqarish, uni yana takomillashtirish haqida boshqarishga taalluqli prognoz-dasturlar ishlab chiqish mumkin.

Bu o'rinda ma'naviy-madaniyatning sub'ektiv harakterga ega voqea, hodisa ekanligini ham unutib bo'lmaydi. Statistik ma'lumotlar hali kishilar turmush tarzida o'zgarishlar sodir bo'layotganini har doim ham aniq aks ettiravermaydi. Masalan, keyingi o'n yil ichida O'zbekistonda 170 dan ortiq diniy tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan, 1,7 mingdan ziyod masjidlar, ibodatxonalar ishga tushdi ta'mirlandi.² Sho'rolar davrida ular barmoq bilan sanoqli edi. Ammo ushbu rakamlar barcha kishilarimiz ma'naviy-diniy olamida pozitiv ma'nodagi o'zgarishlar sodir bo'ldi, deb xulosa chiqarishga asos bo'lolmaydi. Ayrim diniy-mistik va ekstremistik guruh qo'poruvchilik va tashviiqiy harakatlari buni ko'rsatib turibdi.

1. Qarang: Problemi izmereniya i prognozirovaniya v oblasti kulturi. - M.: 1993. - S. 14.
2. Qarang: Asrlarga teng yillar. - Toshkent, 2001. - 38 b.

Din, iymon, e'tiqod xalqimiz turmush tarzida yashab kelayotgan tarixiy-madaniy qadriyatlardan biri hisoblanadi. Diniy bayramlar (Qurbon hayiti, ro'za hayiti va boshqalar) va marosimlar (xotiralash kuni, mayitga janoza o'qitish va boshqalar) ning qayta tiklanayotgani, har yili 4 mingga yaqin fuqarolarimiz hajga borib kelayotgani ma'naviy-madaniy hayotga ta'sir etmay qolmaydi, albatta. "Kimki jahon ahlida inson erur, - degan edi buyuk bobomiz Alisher Navoiy, - bilki, nishoni ani iymon erur.»¹ Iymon, e'tiqodi mustahkam kishi nafs ketidan chopmaydi, boshqalar mulkiga ko'z olaytirmaydi, yon-atrofdagilari bilan sermuomala, ahloqli, odobli aloqalarda bo'ladi.² Bunday kishining turmush tarzida Islom dinidagi ijobiy qadriyatlar mustahkam o'rin topadi, uning ma'naviy hayotining tarkibiy qismiga aylanadi.

Ma'naviyatning turmush tarzidagi o'rni shaxening jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga, yashash shart-sharoitlariga, muhitga munosabatlarida xam namoyon bo'ladi. Ko'pincha ushbu munosabatlar shaxslarning sub'ektiv fikrlari, tasavvur va karashlari sifatida qabul qilinadi.

Milliy turmush tarzining qayta tiklanishida ma'naviy omillar bilan bir qatorda ijtimoiy-madaniy institutlar infrastrukturasi ham muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy-madaniy institutlar infrastrukturasi turar joylar, madaniy-maishiy xizmat o'choqlari, transport xizmati muassasalari, telefon, telegraf va pochta, tibbiyot va ijtimoiy-pedagogik muassasalar, bozor va do'konlar tarmoqlari kiradi. Ushbu muassasalar va institutlar ma'naviy hayotga bevosita bo'lmasada, aholining ishdan keyingi vaqtini olishi bilan bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

1.Qarang: Navoiy. Imon shahri // Milliy tiklanish, 1997, 7 yanvar.

2.Qarang: Soifnazarov I. Ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. - T.: Sharq, 2001.

1986 yili O'zbekistonda har bir kishiga 11,2 kv.metr turar joy to'g'ri kelgan bo'lsa, 1993 yili u 13,6 kv.metr ko'tarildi.¹ 2001 yilda respublikada 1061,6 ming kv.metr uy-joylar, 525 ming kv.metr ambulatoriya, poliklinika, tibbiyot muassasalari qurilgan. Investisiyalarning umumiy hajmidan kommunal qurilishga 20,8 mlrd.so'm (umumiy hajmning 17,1%), ijtimoiy-pedagogik ob'ektlarni qurilishga 40,0 mlrd.so'm (umumiy hajmning 33,0%), tibbiyot ob'ektlari qurilishiga 9,5 mlrd.so'm (umumiy hajmning 7,8%) sarflandi.

Xuddi shuningdek, oilalarni suv, gaz bilan ta'minlashga 2,5 mlrd.so'm (umumiy hajmning 20,3%), gaz qovurlari etkazishga 0,4 mlrd.so'm (umumiy xajmning 16,7%) sarflandi. Temir yul transportida 1331, 4 ming tonna, avtomobil transportida esa 1968,8 mln. tonna yuk tashildi. Xususiy yuk tashuvchilar avtomobil transportining yuk aylanasi 2001 yilda 886,3 mln. tonnani tashkil etadi. Io'lovchi aylanmasi tarkibida avtomobil transportining ulushi 6,6 mlrd. yo'lovchi - km. dir.³

Aholiga ma'naviy-ma'rifiy va maishiy xizmat hajmi 2002 yilda 2000 yildagidan 14% ga oshib, 30,8 mlrd. so'mga etdi. Maishiy xizmatlar umumiy xajmida yakka tadbirkorlik ulushi 82,1% dan iborat bo'lib, 25,2 mlrd. so'mni tashkil etadi. O'sha yillar doirasida respublikada 1125 ta, shu jumladan, qishloq joylarida 725 ta ijtimoiy-madaniy va maishiy ob'ektlar barpo etildi.⁴ Umumiy aholiga pullik xizmat ko'rsatish 2003 yili 111,8 mlrd. so'mdan 2004 yil birinchi yarmida 241,9 mlrd. so'mga ko'tarildi.⁵ Ular dan nodavlat sektoriga 68,5% xizmat ko'rsatish to'g'ri keladi.

Raqamlar ko'rsatadigan, ijtimoiy - madaniy va maishiy xizmat

Sharodnoe xozyaystvo SSSR za 70 let. - M: Finansi i statistika, 1987. - S. 522;
Mustaqil Uzbekiston. - T.: Mehnat, 2001. - 19 b.

2karang: Uzbekiston Respublikasining 2004 yil yanvar-mart statistik axborotnomasi. Toshkent, 2004. - 29 b.

3. Qarang: Usha joyda. - 36 b.
4. Qarang: Usha joyda. — 37 b.
5. Qarang: Usha joyda. - 94 b.

ko'rsatishda sezilarli siljishlar sodir bo'lmoqda. Aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish hajmi, ayniqsa nodavlat sektori orqali, yildan yilga oshib bormoqda. Shubhasiz, ushbu o'zgarishlar kishilarimiz turmushining farovonlashuviga, ularga o'z vaqtidan unumli foydalanishga imkoniyatlar yaratib beradi. Shu bilan birga bugun biz ijtimoiy-madaniy va maishiy ob'ektlar infrastukturasi haqida etarli ma'lumotlarga ega emasmiz. Masalan, shaharlarda ushbu ob'ektlarning soni va aholi turar joylarida joylashishi qanday? Ming kishiga nechta oshxona, klub, kutubxona, sartaroshxona, oziq-ovqat do'konlari, kioska, pochta to'g'ri keladi? Qishloq joylaridachi? Transport qatnovi qanday ahvolda? Nechta aholi punktlari yangi yo'llarga, gaz quvurlari, suv etkazib berishga muhtoj? Oilalarning maishiy-texnika vositalari, radio, televidenie, kompyuter bilan ta'minlanganlik darajasi kanday? Kitob, gazeta, jurnal o'qish sonida qanday o'zgarishlar bor?... Xullas, ushbu va shunga o'xshash savollarga javob topmay turmush tarzining rivojlanish yo'llarini etarli darajada ochib berish mumkin emas.

Ma'naviyatning turmush tarzidagi o'rni, agar yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqsak, birinchidan, kishilarning milliy istiklol g'oyasida ilgari surilayotgan talablarni, qadriyatlarni, qarashlarni o'zlashtirib olganida, o'zida ma'naviy-madaniy fazilatlarini

shakllantirganida, ikkinchidan, turmush tarzining farovonligini ta'minlovchi vositalarni yaratish jarayoniga mehnatga layoqatli barcha fuqarolarni jalb etib, oilaning moddiy, maishiy texnikaviy asosini yuksal tiri sh dadir.

Yukrridagilardan bobga oid quyidagicha xulosalar chiqarish mumkin.

Uzbekiston Respublikasi mustaqil milliy taraqqiyot bosqichiga o'tgach xalqimiz turmush tarziga jiddiy ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy voqelik:

- bozor munosabatlarining joriy etilganida;

-

- xususiy mulkning yuzaga kelayotganida;

- ko'p ukkladli iqtisodiyotning yuzaga kelayotganida; jahon taraqqiyoti erishgan yutuqlardan keng va erkin

foydalanayotganida;

milliy turmush tarzi uchun zarur moddiy, madaniy, ma'naviy boyliklar yaratilayotganida;

xalqaro madaniy-informasion va texnologik aloqalarning rivojlanayotganida;

- milliy mustaqillik, milliy taraqqiyot va milliy istiklol uchun kurash umumxalq goyasi hamda turmush tarziga aylanayotganida aks etadi.

Mehnatga munosabatning o'zgarishi, xususiy mulkning shakllanayotgani O'zbekona turmush tarzining uz tarixiy-madaniy negizlariga muvofiq rivojlanishga o'tganidan dalolat beradi. Milliy manfaatlar nuqtai nazaridan mehnat qilish, o'z turmushining farovonligini ta'minlash mehnatga munosabatning o'zgarishida namoyon bo'layotgan holdir.

Bo'sh vaqtdan unumli foydalanish negizida shaxning ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini to'la qondirishga erishish yotadi. Turmush tarzida bo'sh vaqt salmoqli o'rinni egallamoqda, shuning uchun undagi milliy taraqqiyot va shaxs kamoloti nuqtai nazaridan foydalanish yo'llarini ishlab chiqish davr talabidir.

Ma'naviyat-milliy istiqbolning eng asosiy ko'rsatkichi, mezonidir. Uning turmush tarzidagi o'rni bir tomondan, sub'ektiv xarakterga ega qadriyatlarning shakllanishida, ikkinchi tomonidan, turmush tarzining moddiy, texnikaviy va maishiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishidadir. To'g'ri, ikkinchi tomon ma'naviyatni bevosita emas, balki bilvosita, ya'ni kishilarda mehnatga to'g'ri munosabatni, ijtimoiy, iqtisodiy va intellektual faollikni shakllantirish orkali amalga oshiradi. Pirovard natijada u turmush tarzining moddiy asosini mustahkamlashga olib keladi.

XXXXXXXXXXXXXXXXXX

Biz yosh avlodni xar tomonlama soglom va barkamol etib tarbiyalash borasidagi ishlari 138 mizni yangi boskichga kutarish MAK, sadida "yoshlarga oid davlat siyosati tugrisida" gi konunni yangi taxrirda kabul kildik. Shu asosda yangicha yondashuvlar xdyotga faol joriy etilmokda. Yoshlar xdkida ran ketganda, men doim bir narsani uylayman. Mana, bugungi kunda kancha-kancha yoshlarimiz chet ellarda ta'lim olmokda, mexnat kilmokda. Albatta, ularning orasida uz yulini topib, begona yurtida x, ech kimdan kam bulmay yashayotganlari xam kup. Lekin Vatan soginchi xdr kanday odamni xdm kiynaydi. Shuning uchun ular bilan doimiy aloka urnatish, ularning xukuk va manfaatlarini x, imoya kilish, yurtimizga kaytish istagida bulganlarni kullab-kuvvatlash buyicha ishlarni kuchaytirishimiz zarur. Shu maksadda Uzbekiston yoshlari xalkaro assosiasiyasini tuzish va uning samarali faoliyat yuritishi uchun tegishli sharoit yaratib berishimiz kerak. Yoshlarimiz xorijdagi tengdoshlari bilan ilm-fan, madaniyat, tadbirkorlik, sport va boshka sox, alarda faol mulokotda bulishlari maksadga muvofik. Bu ularning uz saloxiyatini dunyo mikyosida namoyon etishlari uchun katta imkoniyat yaratadi. Shuning uchun kelgusi yili Samarkand shaxrida Markaziy Osiyo yoshlari forumini UGK Azi sh kuzda tutilmokda. Joriy yilda olib borgan isloxotlarimizning eng mux, im natijalaridan biri - bu, xech shubx(asiz, mamlakatimizda bolalar mex, nati va majburiy mex, natga butunlay chek kuyilgani buldi. Bunday 139 ijobiy uzgarishlar xalkaro mexnat tashkiloti va boshka tuzilmalar tomonidan e'tirof etilgani e'tiborga loyik, albatta. Biz bundan buyon xam ingliz tili va boshka xorijiy tillarni chukur ukitish masalasiga ustuvor axamiyat karatamiz. Shu bilan birga, biz uchun zarur bulgan mutaxassisliklar buyicha ta'lim olish va kadrlar malakasini oshirish ishlarini keng kulamda yulga kuyamiz. Bu xakda suz yuritganda, aytish lozimki, biz ulug bobolarimizning munosib davomchilari buladigan etuk insonlarni tarbiyalash masalasiga, afsuski, etarlicha axamiyat bermadik. Xolbuki, intellektual va madaniy saloxiyatning kanday noyob boylik ekani, Nodir talant egalarini tarbiyalab kamolga etkazish xal kiluvchi axamiyatga ega ekanini unutishga xakkimiz yuk. Rivojlangan mamlakatlar bugungi yuksak tarakkiyot darajasiga aynan shuning x, isobidan etgani - bu *am xakikat. Ming afsuski, mamlakatimizda katta ilmiy saloxiyatga ega bulgan ayrim olimlar, iste'dodli yoshlar u r t a s i D a xorijiy davlatlarga ketib kolish x, olatlari xdm yuk emas. Kdncha-kancha uzbek yigitlari, uzbek kizlari bugun chet ellardagi yirik kompaniya va banklarda, nufuzli universitetlar, xalkaro tashkilotlarda katta-katta lavozimlarda xizmat kilmokda. Men shaxsan uzim xorijiy mamlakatlarga safarlarim chogida unlab ana shunday vatandoshlarimiz bilan uchrashib, mulokotda buldim. 140 chet ellardagi yurtdoshlarimizga konsullik xizmatlari va boshka xizmatlar kursatish, ularning yurtimizga bermalol kelib-ketishi, mamlakatimizni tarakkiy ettirishda ishtirok etishlari uchun zarur sharoitlar yaratilmokda. Biz bu ishlarni kelgusida yanada kengaytiramiz. Shu munosabat bilan chet ellarda yashayotgan va ishlayotgan

vatandoshlarimiz bilan uzaro *amkorlik sohasida davlat siyosati kontsepsiyasini ishlab chikishni taklif etaman.

Xulosa

Milliy turmush tarzi o'ziga xos tarixiy-madaniy hodisa bo'lib, unda har bir xalq, millat, etnosning o'ziga xos xususiyatlari, uzoq ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida yaratgan kadriyatlari, an'analari, yashash tarzi, boshqa xalqlar bilan integrasion aloqalari jarayonida o'zlashtirgan boyliklari, yon-atrof, dunyo va kelajak haqidagi qarashlari mujassamlashgan bo'ladi. Qisqa qilib aytganda, turmush tarzi - bu xalqning o'zi, uning ijtimoiy-tarixiy va ma'naviy-madaniy avtoportretidir.

Tadqiqotimiz natijalari ko'rsatadiki, sho'rolar davrida turmush tarzini ilmiy muammo sifatida o'rganish amalga oshirilgan, bu borada ilmiy-metodologik ahamiyatga ega xulosalar chiqarilgan, tadqiqot usullari aniqlangan bo'lsa-da, milliy turmush tarzi mustaqil ahamiyatga ega muammo sifatida o'rganilmadi. Ulkan imperiyada 130 dan oshiq millat va elatlar yashashiga qaramay, tadqiqotlar "sosialistik turmush tarzi"ni ulug'lashga "yagona sovet xalqi" va "sosialistik madaniyatni" tez va shu onda shakllantirish yo'llarini o'rganishga bag'ishlandi. O'sha davrda ijtimoiy hayot va ilmiy izlanishlar ustidan o'z hukmronligini o'rnatgan kommunistik ideologiya va ma'muriy buyruqbozlik boshqarishi milliy turmush tarzini mustaqil ilmiy muammo sifatida tadqiq etishga imkon bermadi. Uzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyingina milliy, shu jumladan, O'zbekona turmush tarzining etnogenezisini, mavjud muammolarini, taraqqiyot yo'llari va xususiyatlarini o'rganish imkoni tugildi.

Milliy turmush tarzini o'rganish: a) turmush tarzining sosiodynamik va etnogenetik xususiyatlarini; b) O'zbekona turmush tarzida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni; v) milliy turmush tarzining ichki belgilarini, uning milliy, tarixiy-madaniy qadriyatlarni rivojlantirishdagi o'rnini; g) milliy istiklol goyasining milliy turmush tarzini kayta tiklashdagi funktsional jihatlarini; D) ma'naviy-madaniy omillarining turmush tarziga va u orkali shaxs kamolotiga ta'sirini tadqiq etishni taqozo qildi. Ushbu rang-barang va serqirra muammoni bir dissertasiya doirasida o'rganish amri maholdir. Bu borada nafaqat faylasuflar va sosiologlar, shu bilan birga iqtisodchilar, demograflar, etnograflar, madaniyatshunoslar, antropologlar ijtimoiy boshkarish va prognozlashtirish bilan shugullanuvchi mutaxassislarning birgalikda, keng qamrovli, kompleks izlanishlarni o'tkazishlari talab etiladi.

Milliy turmush tarziga ikki blok: 1) umumsosial va umumhayotiy manbalar; 2) milliy, etnomadaniy manbalar ta'sir etadi. Ushbu manbalar milliy turmush tarzining sosiodynamik va etnomadaniy xususiyatlarini belgilab, uni ijtimoiy taraqqiyot talablariga, qonunlariga moslashib, transformasiyaga uchrab, o'zgarib borishini ta'minlaydi, biroq milliy turmush tarzi ichida shunday o'zgarimas o'zak, yadro borki, aynan ular turmush tarzining milliyligini, biror xalqqa, etnosga taalluqli ekanligini belgilab beradi. Ushbu o'zak, yadro xalqning tarixiy-madaniy boyliklari, ijtimoiy tajribalari, mentaliteta, yashash tarzidir. Turmush tarzining tashki belgilari va atributlari

(masalan, ikki-uch qavatli uylar qurish, kafe-restoranlarda ovqatlanish, uy xizmatchilari tutish, repetitorlar va tarbiyachilar yollash va boshqalar) tez o'zgarishi mumkin, ammo o'zak, yadro turmush tarzidagi tarixiy-madaniy boylikning mavjudlik va barqarorlik sharti sifatida saqlanib qolaveradi. Aynan ushbu o'zak turmush tarzining sub'ektlari (pog'onalari) bo'lgan shaxs - oila - jamiyat tizimidagi manfaatlarning uyg'unligini, aloqalarning barqarorligini ta'minlaydi. Qaerda turmush tarzining sub'ektlari (pogonalari) o'rtasida mustahkam dialektik bog'liqlik, manfaatlar uyg'unligi bo'lmasa, o'sha joyda milliy turmush tarzida parokandalik, emirilish yuzaga keladi. Uzbekiston Respublikasida milliy turmush tarzini kayta tiklash va taraqqiy ettirishga da'vat etayotgan kuch - o'zak, yadro - bu milliy istiklol g'oyasidir.

O'zbekona turmush tarzining etnomadaniy negizi eramizdan avvalgi davrlarga borib takaladi. Unda bir-biriga dialektik bogliq ikki -o'lkamiz xalqlariga xos etnik xususiyatlar, belgilar va boshqa xalqlar bilan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy alokalar jarayonida o'zlashtirgan innovasiyalar uyg'unlashib keladi. Uzbek xalqi hech qachon milliy, etnik qobiqda biqiq holda yashamagan, u ichki ehtiyojlari, manfaatlar va tarixiy-madaniy qadriyatlariga Moe kelgan innovasiyalarni, boyliklarni qabul qilgan, shu tariqa o'zining turmush tarzida milliy va umuminsoniy kadriyatlarni shakllantirib, rivojlantirib kelgan. Hattoki, eroniylar, arablar va Chor Rossiyasi bosqinlari ham O'zbekona turmush tarzini butunlay o'zgartirolmadi, balki unda milliy birlikning, milliy uyg'unlikning yanada chuqurroq ildiz olishiga undadi.

Muammoga retrospektiv yondashish milliy turmush tarzining mustaqillik arafasidagi ahvolini, keyin esa hozirgi taraqqiyot xususiyatlarini o'rganishni taqozo etdi. Tadqiqot ko'rsatadiki, 70-90 yillarda Uzbekistonda turmush tarzini farovonlashtirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Yangi madaniy-maishiy ob'ektlar, ta'lim va tarbiya o'choqlari, noz-ne'matlar, mahsulotlar etishtirib beruvchi korxonalar, fabrikalar, xo'jaliklar tashkil etilgan. An'anaviy turmush tarzi yangi an'analar, tartiblar, normalar, maishiy hayot texnika vositalari, informasion texnologik uskunalar bilan boyitilgan. Qardosh va boshqa respublikalar bilan integrasion aloqalar kengaygan, ijtimoiy-madaniy tajribalar almashish borasida zamonaviy qarashlar, institutlar paydo bo'lgan. Xalqimiz yaratgan ushbu yutuqlardan voz kechish adolatdan emas, balki, ular o'zbek xalqining har qanday sharoitda, hattoki, sho'rolar mustabid tuzumi o'z tazyiqini avj oldirgan davrlarda ham, ijtimoiy

madaniy boyliklar yaratishdan to'xtamaganini ko'rsatadi. Biroq mustaqillik arafasida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotda turg'unlik yuzaga keldi. Milliy o'lkalarni markazga to'la itoat ettirishga intiluvchi kuchlar paydo bo'ldi, natijada "markaz - respublikalar" o'rtasidagi ziddiyatlar kuchaydi. Ushbu davr dan chiqariladigan eng muhim xulosa shundaki, milliy va kishilar manfaatlarini mensimaslik, mavjud muammolarni rasional hal etish o'rniga ma'muriy buyrukbozlik, zo'ravonlik o'rnatish hech qachon yaxshi natijalarga olib kelmaydi. Mehnat ahli, fuqarolar o'z mehnatiga yarasha haq olmas, farovon yashamas ekan ularning jamiyatdan, mavjud tuzumdan begonalashuvi saqlanib qolaveradi.

Mustaqillik yillarida xalqimiz, millatimiz turmush tarzida jiddiy ijtimoiy-tarixiy ahamiyatga molik o'zgarishlar sodir bo'ldi. Birinchisi, kishilarimizning mehnatga bo'lgan munosabati tubdan o'zgardi. Mulkchilikning turli shakllari yuzaga keldi, fuqarolar o'zining xususiy mulkiga ega bo'ldilar. Xususiy mulkka ega bo'lish xalqimizning ijtimoiy-tarixiy hayotiga xos hodisa edi. Mustaqillik tufayli ushbu an'ana kayta tiklandi.

Xalqimiz o'zining vaqtiga, umriga nihoyatda talabchanlik bilan yondashgan. Bu uning "vakting ketdi - baxting ketdi" degan naqlida ham o'z ifodasini topgan. Bozor munosabatlari ta'sirida kishilarimiz o'zlarida ishdan keyingi vaqtlaridan va bo'sh vaqtdan unumli foydalanish ko'nikmalarini shakllantira boshladilar. Bu eng avvalo ularning ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirish, turmush tarzini farovon qilish uchun zarur faoliyat turlari bilan shugullanishlarida namoyon bo'ladi. To'g'ri, bu borada hali kengroq va chuqurroq tahlil, bo'sh vaqtning hajmi, strukturasi va shaxs kamolotiga, turmush tarziga ta'sir qiladigan omillarini aniqlash, shu asosda zarur tavsiyanomalar ishlab chiqish talab etiladi. Ammo hozirning o'zidayoq bir narsa ayon — kishilarimizning bo'sh

vaqtda mavjud madaniy, maishiy va ijtimoiy-tarbiyaviy imkoniyatlardan foydalanishga intilishi oshib, rang-baranglashib bormoqda. Bu ularning turmush tarziga ijobiy ta'sir etmay qolmaydi.

Milliy turmush tarzining qayta tiklanishida va taraqqiyotida ma'naviyatning o'rni beqiyosdir. Milliy ma'naviy taraqqiyot milliy istiklol goyasiga tayanganidek, milliy turmush tarzi taraqqiyoti ham milliy istiqlol goyasi yaratgan kontseptual qarashlarga, yo'nalishlar va tavsiyalarga tayanadi. Xuddi shuningdek, milliy turmush tarzining kayta tiklanishi tarixiy-madaniy tajribalarni (mahalla, oilaviy urf-odatlar, sharqona odob-axloq va boshqalar), taraqqiyoti esa ijtimoiy-madaniy ob'ektlar infrastrukturasini (maishiy va fizkultura, sport ob'ektlari, ijtimoiy-pedagogik institutlar, madaniy-ma'rifiy muassasalar, tibbiyot va transport xizmatlari va boshqalar) ni rivojlantirishga undaydi. Bu borada respublikada ancha ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, aholining o'sib borayotgan madaniy-maishiy va ma'naviy ehtiyojlari keng miqyosda dastur ishlab chiqishni kun tartibiga qo'yimoqda. Aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish, servis jiddiy izlanishlar o'tkazish va o'zgarishlarni amalga oshirishni talab qilmoqda.

Tadqiqotimizning natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagilarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

1. Turmush tarzini kompleks tadqiq etishni yo'lga qo'yish;
2. Turmush tarzi muammolarini, unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni o'rganib, zarur prognoz-dasturlar ishlab chiquvchi nodavlat tadqiqot markazini tashkil etish;
3. Turmush tarziga oid halqaro normativ hujjatlarni, mezonlarni, koeffitsentlarni jamlash va ularni o'zbek tiliga o'girib chop qilish;

4.

4. "Turmush tarzi" maxsus nashrini (yoki iqtisodiy muammolarni o'rganuvchi jurnallar qoshida qo'shimcha son sifatida) chop ettirishni yo'lga qo'yish;

4. Turmush tarzining tarixi, nazariyasi va amaliyotga oid iqtisod va ijtimoiy taraqqiyot bo'yicha mutaxassislar tayyorlovchi o'quv yurtlarining talabalari uchun maxsus kurslar tayyorlash;

4. "Milliy istiklol goyasi" va "Ma'naviyat asoslari" fanlariga "Milliy turmush tarzi: etnomadaniy genezisi va zamonaviy taraqqiyoti" mavzuini kiritish;

4. Milliy turmush tarzini prognozlash muammolariga bag'ishlangan ilmiy-nazariy anjumanlar, davra suhbatlari va maxsus nashrlarda ruknlar uyushtirish .

FOYDALANGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

R o ' y x a t i

I. Uzbekiston Prezidenti I.A. Karimovning asarlari, nutqlari va farmonlari.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. -T.:O'zbekiston, 2003.-47 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining farmoni. – Maxalla institutini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida. Gaz. Xalq so'zi 4 fevral 2017 yil
3. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining farmoni. – O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakatlar strategiyasi to'g'risida. Gaz. Xalq so'zi. 8 fevral 2017 yil
4. O'zbekiston Respublikasining mehnat kodeksi. -T.: Adolat, 1998. - 432 b.
5. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi". -T.: Sharq, 1998. -63 b.

Mirziyoev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. 2016 yil, 7 dekabr.

25. Mirziyov Sh. M. O'zbekiston Respublikasi prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida so'zlagan nutqi // Xalq so'zi. 2016 yil 15, dekabr.

1.Karimov I.A.. Uzbekistonning uz istiklol va taraqqiyot yo'li // Uzbekiston: milliy istiklol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. - Toshkent: Uzbekiston, 1996. - 39 b.

2.Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. // Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. -Toshkent: Uzbekiston, 1999. - 84-102 b.

Z.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q // biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. - Toshkent: Uzbekiston, 1999. - 132-153 b.

4. Karimov I.A. Barkamol avlod - Uzbekiston taraqqiyotining poydevori // xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 6. - Toshkent: Uzbekiston, 1998 - 324-346 b.

5.Karimov I.A. Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik // Uzbekiston: milliy istiklol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. - Toshkent: 1996. - 199-218 b.

6.Karimov I.A. Xotira chirog'i o'chmaydi // biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. - Toshkent: Uzbekiston, 1999. - 407. 421 b.

7.Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi mukaddasdir // Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3 - t. - Toshkent: Uzbekiston, 1996. - 64 - 86 b.

8.Karimov I.A. Fan Vatan taraqqiyotiga xizmat qilsin // bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. 2. - Toshkent: Uzbekiston, 1996. - 70 - 82 b.

9.Karimov I.A. Istiklol yo'li: muammolar va rejalar // Uzbekiston: milliy istiklol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1 - t. - Toshkent: Uzbekiston, 1996.-3 -36 b.

Yu.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyatsiz kelajak yo'q. // Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.5. - Toshkent: Uzbekiston, 1997. - 145 - 151 b.

11. Karimov.I.A Milliy istiklol mafkurasi - halq e'tiqodi va buyuk kelajakka ichonchdir // ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T. 8. - Toshkent: Uzbekiston, 2000. - 462 b.

12. Karimov I.A. Uzbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // xavfsizlik va taraqqiyot yo'lida. T.6. - Toshkent: Uzbekiston, 1998. - 631-626 b.

13. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiklol va taraqqiyot yo'li // Uzbekiston: milliy istiklol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1 t. - Toshkent: Uzbekiston, 1996. 37 - 84 b.

N.Karimov I.A. Uzbekiston XXI asrga intilmoqda//biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. - Toshkent: Uzbekiston, 1999. - 373 b.

15. Karimov I.A.. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz // Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T.8. - Toshkent: Uzbekiston, 2000. - 331-332 b.

16.Karimov I.A. Konstitutsiyamiz - yurtimizda yangi hayot, yangi jamiyat barpo etishning huquqiy poydevori//tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga va qat'iy irodamizga bogliq..T.12.-Toshkent:O'zbekiston,2004.-1116.

17. Respublikada musiqiy ta'limni, madaniyat va san'at o'quv yurtlari faoliyatini yaxshilash to'g'risida. 1996 yil 31 dekabr. // Uzbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari. T.4. - Toshkent: Uzbekiston, 2000. -114-116 b.

18. Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atni rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab - quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida // Uzbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari T.4. - Toshkent: Uzbekiston, 2000. - 140-143 b.

19. Uzbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida. 1998 yil 26 mart // Uzbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari. T.4. - Toshkent: 2000.- 209-213 b.

20. Uzbekiston Respublikasi Prezident Farmoni. Uzbekiston | Respublikasida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari to'grisida. // Uzbekiston Respublikasi Farmonlari va qarorlari. Toshkent: 1994. - 18-21 b .

21. Uzbekiston Respublikasi Prezidenta Farmoni. Erkin narxni belgilash munosabati bilan axrlini ijtimoiy himoyalashga doyr tadbirlar to'grisida // Uzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. - | Toshkent: 1992, 2-son. - 8-18 b.

22. Uzbekiston Respublikasi Prezident Farmoni. Respublikaning |davlat tomonidan aholining turmush darajasiga madad berish chora tadbirlari to'g'risida // Uzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1. son.- Toshkent: 1991. - 12-19 b.

23. Uzbekiston Respublikasi Prezident Farmoni. Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida. Uzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. - Toshkent: 1994. 8-9-son.-21-32 b.

I. Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunlari.

24. Kadrlar tayyorlash dasturi. Uzbekiston Respublikasining qonuni // Ma'rifat,-1998.- 1 aprel.

25. Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent: Uzbekiston, 2003.-35 b.

26. Uzbekiston Respublikasining "Ta'lim to'grisida"gi qonuni. -Toshkent: Uzbekiston, 1997. - 16 b.

27. Uzbekiston Respublikasining "vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar" to'grisidagi qonuni. - Toshkent: Adolat, 1999. - 80 b.

28. Uzbekiston Respublikasining qonuni. Jismoniy tarbiya va sport tugrisida. (yangi tahriri) // Xalq so'zi, 2000 yil - 21 iyun, 2 b.

29. Uzbekiston Respublikasining Qonuni. "Uzbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining asoslari tugrisida" // Uzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi, 11 - son, 1991. - 18-31 b.

30. Uzbekiston Respublikasining Qonuni. "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish tugrisida" // Uzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. Toshkent: 1 - son, 1992. - 10 - 16 b.

31. Uzbekiston Respublikasining Qonuni. "Aholini ish bilan ta'minlash tugrisida" // Uzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. - Toshkent: 4 - son, 1992. - 2 - 11 b.

32. Uzbekiston Respublikasi Prezidentning Farmoni. "2003 yilning apreldan boshlab uy-joy - kommunal xizmatlar haqini to'lash bo'yicha beriladigan imtiyozlar o'rniga kompensasiya pul to'lovlarini joriy etish tugrisida" // Xalq so'zi, 2003.- 28 mart.

III. Monografiyalar, kitoblar, risolalar

33. Abdullaev A. Ma'naviyat va iqtisodiy tafakkur. - Toshkent: Ma'naviyat, 1999.- 100 b.

34. Abdugafurov A. Qalb qa'ridagi qadriyatlar. - Toshkent: Uqituvchi, 1998.-216 b.

35. Abdullaeva E.N. Rassvet i sblijenie kultar narodov Sredney Azii pri razvitom sosializme i kritika IX burjuaznix falsifikatorov.-Toshkent, TPI, 1981. - 24s.

36. Abdulxanova-Slavskaya K.A. Dialektika chelovecheskoy jizni.- Moskva: Misl, 1987. - 278 s.

37. Abilov O'. Milliy g'oya: ma'naviy omillar. - Toshkent: Ma'naviyat, 1999.-62 b.
38. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. - Toshkent: Cho'lpon, 1994. - 182 b.
39. Alimasov V. Madaniyat muassasalarida iqtisodiy boshqarish usullari. - Toshkent: Fan, 1997. - 120 b.
40. Anufriev E.A. Sosialisticheskij obraz jizni //Metodologicheskie i Metodicheskie Voprosi. -M., 1980. - S. 18-19.
41. Atamuradov S. Nasionalnaya kultura i nasionalnoe samosoznanie v prosesse obnovleniya obtshestvo. - Toshkent: Uzbekiston, 1992. - 195 s.
42. Bekmuradov M. Sosiologiya asoslari. - Toshkent, Fan, 1994. - 248 b.
43. Bestujev - Lada I.V. Mir nashego zavtra. - M.: Misl, 1996. - 269 s.
44. Bestujev - Lada I.V. Okno v budutshee. - M.: Misl, 1996. - 269 s.
45. Bestujev - Lada V.I. Problemi postroeniya sistemi pokazateley obraza jizni. - M.: Misl, 1977. - 204 s.
46. Bestujev-Lada I.V. Problemi i cherti obraza jizni.-M.:Misl, 1977. - 153 s.
47. Bestujev-Lada I.V. Metodologicheskie problemi izmereniya i modelirovaniya obraza jizni //Problemi izmereniya i modelirovaniya obraza jizni.-M, 1978.-S.4-5.
48. Bobojonova D. O'zbekistonda ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar. - Toshkent:Sharq, 1999.-160 b.
49. Butabaev M.T. Rabochee i svobodnoe vremya rabotnikov selskogo xozyaystva. Toshkent: - Mehnat, 1987. - 112 s.
50. Butenko A.P. Sosialisticheskij obraza jizni: problemi i sujdeniya.-M., Misl, 1978.-S.36-37.
51. Bo'ronov Q. Xalqimiz ma'naviyati va ma'rifatining teran ildizlari, - Toshkent: Fan, 2003. - 131 b.

52. Bo'riev O., Shaymradanov I., Nasriddinov Q. O'zbek oilasi tarixidan. -Toshkent: O'qituvchi, 1995. -71 b.
53. Vatan tuyg'usi. - Toshkent: Uzbekiston, 1996. - 397 b.
54. Validiy A.Z. Rus mustamlaka siyosatining mohiyati va maqsadi.-Vena, 1929.-212 b.
55. Vsesoyuznaya perepis naseleniya 1926 goda.t.49.Uzbekskaya SSR.-ML: Planxozgiz, 1930.-148 s.
56. Gegel G.V.F. Lektsii po istorii filosofii.4.3.Soch.,t. 11.-M-L.,1935.-214s.
57. Gelvinskiy K.A. O cheloveke ego umstvennix oposobnostyax i ego vospitaniy.-M.:Gosstatizdat,1938. -492 s.
- 58.Geldieva A.Ch. Nasionalnaya kultura i lichnost, - Toshkent: Uzbekiston, 1993. - 102 s.
- 59.Glezerman G.E.Istoricheskiy materializm i razvitie sotsialisticheskogo obshchestva.-M.:Politizdat,1973. - 294 s.
60. Davlat, jamiyat, oila va yoshlar tarbiyasi muammolari. - Toshkent: Uzbekiston, 1997.-92 b.
61. Doklad o chelovecheskom razvitiy. Uzbekistan. 1999.-26 s
- 62.Jabborov I. Antik madaniyat va ma'naviyat xazinas. - Toshkent: Uzbekiston, 1999.-221 b.
63. Jabborov Iso. O'zbek xalqi etnografiyasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1994.-312 b.
64. Jabborov I.M., O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati.- Toshkent: O'qituvchi,-2003;
65. Jabborov I.M. Uzbekiston etnologiyasi:yangicha qarashlar va yondashuvlar. - Toshkent: O'qituvchi ,2004. - 208 b.
66. Jakbarov M. Komil inson goyasi: tarixiy-falsafiy tahlil. -Toshkent: Abu Ali Ibn Sino, 2000. - 132 b.

67. Jamiyatni isloh qilish yo'lida. - Toshkent: Sharq, 1998. - 110 6.
68. Jumaev R. Davlat va jamiyat: demokratlashtirish yo'lida. - Toshkent: Sharq, 1998.- 142 6.
69. Jumaniyazov R. Xalq ijodi - xaq ijod. - Toshkent: Uzbekiston, -1992.-79 b.
- 70.3 iyadullaev S.K. Prognozirovanie ekonomicheskogo razvitiya Uzbekistana v usloviyax perexodya k rinochnoy ekonomike. - Tashkent: Uzbekiston, 1993. - 87 b.
71. Islom odobi va madaniyati. - Toshkent: Cho'lpon, 1996. - 176 b.
72. Ismoilov F. Ijtimoiy taraqqiyotda vorislik. - Toshkent: Uzbekiston, 1986. -43 b.
73. Yo'ldoshev Sh. Sosial bilishning ayrim masalalari. Milliy o'zlikni anglash va turmush tarzi. - Toshkent: Uzbekiston, 1989. - 89 b.
74. Karimov R.K., Karimov.T.A. Milliy model muammolari. - Toshkent:Uzbekiston, 1993. - 82 b.
75. Karimova G. Davlat, jamiyat, oila va yoshlar tarbiyasi. - Toshkent: Uzbekiston, 1997. - 42 b.
76. Kapustin L. Sosialisticheskiy obraza jizni kak Sosialno-Ekonomicheskaya kategoriya // Voprosi ekonomiki.-1974.-№12.-S. 19-26.
77. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson ahloqi. - Toshkent: Ma'naviyat, 1996. - 289 b.
78. Qoraboev U.X. Tradisionnoe Narodnoe tvorchestvo: problemi Vozrojdeniya i razvitiya. - Toshkent: Fan, 1991. - 108 s.
79. Kulturnaya deyatel'nost. Opit sosiologicheskogo issledovaniya.- M.: Nauka, 1981.-144 s.
80. Mahmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat. - Toshkent: Sharq, 2001. - 159 6.

- 81.
82. Mamadaliev Sh. Xalq xokimiyati: nazariya va amaliyot. -Toshkent.: II Akademiyasi, 2003. - 221 b.
83. Mansurov N.S., Kosumov T.K. Metodologicheskie problemi izucheniya socialisticheskogo obraza jizni// Filosofskie nauki.-1976. - №5.-S.32-33.
83. Maksakova L.P. Migrasiya naseleniya Respublika O'zbekistan,- Tashkent: Eldnur, 2000.-115 s.
84. Masalskiy V.M. Xlopkovodstvo: Oroshenie gosudarstvennix zemel i chasnaya predpriimchivost. - Spb.: B.I., 1908. - 378 s.
85. Matyushkin N.I.SSSR-staran velikogo sodrujestva narodov. - M.:Gos. kultprosvet.lit-rid 953. - 153 s.
- 86.Masharipov A. Sosialnaya zatshita interesov tudyatshixsya. Toshkent: Uzbekiston,. 1993. - 110 s.
- 87.Mirhamidova M. Uzbekiston: demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida. - Toshkent: Universitet, 2003. - 26 b.
88. Mitrikas A. Vremya v izuchenii obraza jizni//Chelovek i ego obraz jizni (Sosiologicheskiy aspekt).-Vilnyus,1987.- S.5-6.
- 89.Musurmonova O. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. - Toshkent: Fan, 1993. - 133 b.
- 90.Mullyadjanov I.Naselenie uzbekskoy SSR.- Toshkent: Uzbekistan, 1989.-190 s.
- 91.Nabiev E.G. Sfera uslug v nasionalnom vosproizvodstve: teoreticheskie i metodologie aspekti. - Toshkent: Mehnat, 1993. - 135 s.
92. Navoiy A. Hikmatli so'zlar. - Toshkent: Fan, 1985. - 117 6.
93. Navoiy. A. Imon shahri // Milliy tiklanish. - 1997. - 7 yanv. 94.Nadjimov G.I. Narodnie Tradisii i kultura. - Toshkent: Uzbekiston, 1992. - 212 s.
95. Nazarov Q. Aksiologiya kadriyatlar falsafasi. - Toshkent: Ma'naviyat, 1998.-

96. Nazarov Q. Milliy istiklol goyasining asosiy maqsad va vazifalari. - Toshkent: yangi asr avlodi, 2001. - 32 b.
97. Nasriddinov K. Uzbek dafn va ta'ziya marosimlari. - Toshkent, Xalq merosi, 1996. - 144 b.
98. Nadjimov G.N. Narodnie Tradisii i kultura.- Toshkent:Uzbekiston, 1992.- 120 s.
99. Nikolaev I. Obraz jizni kak Sosialnaya kategoriya //politicheskoe samoobrazovanie.-1974.-№7.-S.41 -42.
- YUO.Nosirov R. A. Jiznenniy uroven trudyatshixsya Uzbekistana.-Tashkent: 1993.-41 s.
101. Oltinov M. Qayta qurish va qishloq madaniyati. - Toshkent: Uzbekiston, 1990. - 152 b.
102. Orlova E.A. Sovremennaya gorodskaya kultura i chelovek. - M.: Nauka, 1987.- 190 s.
103. Otchet po chelovecheskomu razvitiyu, 1995. - Tashkent: Uzbekistan, 1995.- 98 s.
104. Petrov N. K unijeniyam v svojom otechestve nam ne privikat//Nezavisimaya gazeta, 13 iyulya 1993.Platnie uslugi naseleniyu. - Tashkent: 1988.-S.70.
105. Pechchei A. Chelovecheskie kachestva. - M.: Progress, 1980. - 300 s.
106. Pokrovskiy M.N. K voprosu ob istoricheskom razvitii Rossii.-Leningrad: B.I., 1925. - 178 s.
107. Prigojiy I.R. Vvedenie // Poznanie slojnogo.-M.; 1990,-S. 12-13.
108. Saakova T.D. Sosialnaya struktura selskogo naseleniya uzbekskoy SSR v usloviyax sovershenstvovaniya sosializma.- Toshkent,Fan, 1988.-192 s.
109. Saifnazarov I. Iqtisodiy va ma'naviy manfaatlar uygunligi va barkamol inson tarbiyasi. - Toshkent: yangi asr avlodi, 2002. - 20 b.

- Po. Saifnazarov I. Ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. -Toshkent: Sharq, 2001.- 158 b.
111. Saifnazarov I. Oilaviy barqarorlikning ma'naviy asoslari. - Toshkent: Sharq, 1999. - 26 b.
112. Smolenskiy V.G. Tsennosti sotsialisticheskogo mira M.:Misl,1978.-S7.
113. Suxanov V.I. Obichai, Tradisii i Preemstvennost pokoleniy.- M.:Politizdat, 1976-223 s.
114. Spirkin A.G. Soznanie i samosoznanie.-M.:Pedagogika, 1987.-303 s.
115. Stil jizni lichnosti. Teoriticheskie i Metodicheskie problemi.-Kiev; Naukova dumka, 1992.-178 s.
116. Stil jizni lichnosti. Teoreticheskie problemi. - Kiev: Naukova dumka, 1982.- 372 s.
123. Shayxova X., Nazarov Q. Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy Kamolot. - Toshkent: 1992. - 135 b.
124. Shamsutdinov R. Istiqlol yo'lida shahid ketganlar.- Toshkent: Sharq, 2001.- 416 b.
125. Shirmatova G. Obtshenie v usloviyax vzaimodeystviya Kultur kak faktor duxovnogo formirovaniya lichnosti // Kulturnaya Sreda i duxovnoe Formirovanie lichnosti.- Tashkent: 1981.- S.62-64.
126. Shermatova G.Sh. Vzoimodeystvie Kultur i duxovnie razaitie lichnosti. - Toshkent: Fan, 1991. - 112 s.
127. Shermuhamedov S. Biz qanday jamiyat qurayapmiz. - Toshkent: Uzbekiston, 2000. - 78 b.
128. Shermuhamedov S. Mustaqillik - buyuk ne'mat. - Toshkent: Uzbekiston, 1997.-80 b.
129. Xonazarov Q. Ijtimoiy hayot va yangi urf-odatlar. - Toshkent: Uzbekiston, 1987. - 62 b.
130. Xonazarov K.X. Internacionalnoe vospitanie v usloviyax nezavisimosti. - Tashkent: Katartal-Kamolot, 1997. - 46 s.
130. Xolmatova M,Muravyova N.Yoshlar oilaviy hayot bo'sag'asida . Toshkent: Uzbekiston, 2000.-94 b.
131. Xenoves S.Povedenie izolirovannoy gruppi lyudey v Atlantike//Znanie-sila,-1974.- №5.-S.38-39.
132. Худойбергенова, Патма Тошпулатовна. "КАЧЕСТВА НЕОБХОДИМЫЕ ДЛЯ ВРАЧЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ДОВЕРИТЕЛЬНОГО ОТНОШЕНИЯ ПАЦИЕНТА К ВРАЧУ." *Новости образования: исследование в XXI веке* 1.5 (2022): 646-648.
133. Худайбергенова, Патма Ташпулатовна. "ОБРАЗ МАВЛОНО ДЖАЛОЛИДДИНА РУМИ В

КОНТЕКСТЕ ГУМАНИСТИЧЕСКИХ ТРАДИЦИЙ ВОСТОКА И МУСУЛЬМАНСКОЙ БИОЭТИКИ." *Гуманитарный трактат* 33 (2018): 28-30.

134. Умарова, Дилорам Арифовна, and Патма Ташпулатовна Худайбергенова. "РОЛЬ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В РЕШЕНИИ ПРОБЛЕМ ГУМАНИЗАЦИИ МЕДИЦИНЫ." *Гуманитарный трактат* 97 (2020): 25-28.

135. Худойбергенова, П. Т. "ЎЗБЕКОНА ТУРМУШ ТАРЗИДА БЎШ ВАҚТДАН ФОЙДАЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ." *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика* 2.11 (2023): 51-55.

136. Khudaybergenova, P. T. "UZBEKISTAN: ETHNO CULTURAL IDENTITY AND TOLERANCE UNDER CONDITIONS OF GLOBALIZATION." *Социосфера* 4-2 (2013): 52-54.

137. Худойбергенова, П. Т. "БУГУНГИ КУНДА ЁШЛАРНИНГ ОНГИ ВА ҚАЛБИНИ ЭГАЛЛАШДА ИНТЕРНЕТ ОРҚАЛИ КИЛИНАЁТГАН МАФКУРАВИЙ ХУРУЖЛАР." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.2 (2023): 683-687.

